

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus  
ta’lim vazirligi**

**Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti**

**E.A.AKRAMOV**

**KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATI TAHLILI**  
(O‘quv qo‘llanma)

**Toshkent-2007**

E.A. Akramov. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. O'quv q'llanma. – T., 2007.

O'quv qo'llanmada bozor munosabatlarning shakllanishiga moslab, korxonalarining moliyaviy holati tahlilining nazariy, uslubiy va shu bilan birga uning asosiy bosqichlari yoritilgan. Unda moliyaviy tahlilning asosiy talablari, manbalari, xorijiy mamlakatlarning moliyaviy tahlil borasidagi tajribalari, korxonalarining moliyaviy holatini umumiy baholash, moliyaviy mustahkamlik tahlili, balans likvidligi, korxonalarni ishchanlik va bozorga oid faolligi tahlili, aylanma mablaglarining aylanishi, mahsulotlar tannarxi bilan moliyaviy holat o'rtasidagi aloqa hamda korxonalarining moliyaviy natijalari tahlili ko'rib chiqiladi. Iqtisodiyotga oid adabiyotda birinchi marotaba korxonalarining iqtisodiy nochorligi tahlili ham bayon etilmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmasi oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari, aspirantlari, magistrantlari, bakalavrlari, shuningdek, kasb-hunar kollejlari va litseylarning talabalari tomonidan foydalanishga mo'ljallangan. Qo'llanmadan xalq xo'jaligining iqtisodiyot sohalari mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

В учебном пособии с учётом требований рыночных отношений последовательно излагаются теоретико-методологические и практические проблемы и этапы анализа финансового состояния предприятий. Рассмотрены основные принципы и источники финансового анализа, его зарубежный опыт, общая оценка финансового состояния предприятия, анализ финансовой устойчивости предприятия и ликвидности баланса, связь финансового состояния с оборачиваемостью оборотных средств и себестоимостью продукции и т.д.

Учебное пособие рассчитано на преподавателей, аспирантов, магистрантов, студентов высших учебных заведений, может быть использовано специалистами экономических служб народного хозяйства.

The theoretical-methodological and practical issues and stages of financial analysis of enterprises as it required with market economy are consist ently\*stated in the manual. The following issues are examined in the book: the basic principles and sources of financial analysis, foreign experience, estimation of financial state of enterprise, analysis of enterprisers financial stability and balance liquidity, financial slate in connection with turnover of capital and production costs, analysis of business and market activity, economic insolvency as well as financial results of enterprises activity.

The manual is designed for the lecturers, post-graduate students, master degree candidates, students of universities. It also can be used by the experts of the national economy infrastructure.

Mas'ul muharrir

i.f.d., prof. B.Yu.Xodiev

Taqrizchilar:

i.f.d., prof. X.Nabiev.;  
Iqtisodiyot vazirligi bo'lim boshlig'i,  
i.f.n., dos. A.A.Nabixo'jaev.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	9
<b>I bob. BOZOR MUNOSABATLARI VA KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL QILISH ASOSLARI.....</b>	11
1.1. Xalq xo‘jaligini bozor munosabatlariga o‘tkazish va korxonalar moliyaviy holatining ahamiyati ko‘tarilishi.....	11
1.2. Moliyaviy tahlilning asosiy talablari va manbalari.....	14
1.3. Buxgalteriya balansi — moliyaviy tahlilning asosiy manbai.....	19
Tayanch iboralar.....	26
Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar.....	26
<b>II bob. MOLIYAVIY TAHLIL TAJRIBASIDAN. KORXONA MOLIYAVIY HOLATINI UMUMIY BAHOLASH.....</b>	27
2.1. Xorijiy mamlakatlar moliyaviy tahlili tajribasidan.....	27
2.2. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy tahlil uslubining ishlab chiqilishi.....	33
2.3. Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholash.....	38
Tayanch iboralar.....	40
Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar.....	41
<b>III bob. KORXONALARNING MOLIYAVIY MUSTAHKAMLIGI VA BALANS LIKVIDLIGI TAHLILI.....</b>	42
3.1. Korxonalar moliyaviy mustahkamligini tahlili.....	42
3.2. Korxonalar balansining likvidligi tahlili.....	50
Tayanch iboralar.....	55
Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar.....	56
<b>IV bob. AYLANMA MABLAG‘LARNING AYLANISHI, MAHSULOTLAR TANNARXI VA KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATI.....</b>	57
4.1. Aylanma mablag‘larning aylanishi va korxonalar moliyaviy holati.....	57
4.2. Mahsulotlar tannarxi va korxonalar moliyaviy holati.....	62
Tayanch iboralar.....	71
Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar.....	726
<b>V bob. KORXONANING ISHCHANLIK VA BOZORGA OID FAOLLIGI TAHLILI.....</b>	73
5.1. Korxonalar ishchanlik faolligi tahlili.....	73
5.2. Korxonalar bozorga oidligi tahlili.....	76
Tayanch iboralar.....	84
Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar.....	85
<b>VI bob. KORXONALAR FAOLIYATINING MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI.....</b>	86
6.1. Korxonalar foydasi tahlili.....	86
6.2. Korxonalar rentabelligi tahlili.....	93
6.3. Korxonalar iqtisodiy nochorligi tahlili.....	110

Tayanch iboralar.....	119
Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar.....	119
<b>XOTIMA O‘RNIDA.....</b>	<b>120</b>
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>121</b>

## ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение.....	9
<b>Глава I. РЫНОЧНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ОСНОВА АНАЛИЗА ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....</b>	<b>11</b>
1.1. Перевод народного хозяйства на рыночные отношения и возрастание роли финансового состояния предприятия.....	11
1.2. Основные принципы и источники финансового анализа.....	14
1.3. Баланс предприятия - основной источник финансового анализа.....	19
Ключевые слова.....	26
Вопросы для самоконтроля и самоподготовки.....	26
<b>Глава II. ИЗ ОПЫТА ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА И ОБЩАЯ ОЦЕНКА ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....</b>	<b>27</b>
2.1. Из зарубежного опыта финансового анализа.....	27
2.2. Разработка методики анализа финансового состояния предприятия в Узбекистане.....	33
2.3. Общая оценка финансового состояния предприятия .....	38
Ключевые слова.....	40
Вопросы для самоконтроля и самоподготовки.....	41
<b>Глава III. АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ И ЛИКВИДНОСТИ БАЛАНСА.....</b>	<b>42</b>
3.1. Анализ финансовой устойчивости предприятия.....	42
3.2. Анализ ликвидности баланса предприятия.....	50
Ключевые слова.....	55
Вопросы для самоконтроля и самоподготовки.....	56
<b>Глава IV. ОБОРАЧИВАЕМОСТЬ ОБОРОТНЫХ СРЕДСТВ, СЕБЕСТОИМОСТЬ ПРОДУКЦИИ И ФИНАНСОВОЕ СОСТОЯНИЕ ПРЕДПРИЯТИЯ.....</b>	<b>57</b>
4.1. Оборачиваемость оборотных средств и финансовое состояние предприятия.....	57
4.2. Себестоимость продукции и финансовое состояние предприятия.....	62
Ключевые слова.....	71
Вопросы для самоконтроля и самоподготовки.....	726
<b>Глава V. АНАЛИЗ ДЕЛОВОЙ И РЫНОЧНОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....</b>	<b>73</b>
5.1. Анализ деловой активности предприятия.....	73
5.2. Анализ рыночной активности предприятия.....	76
Ключевые слова.....	84
Вопросы для самоконтроля и самоподготовки.....	85
<b>Глава VI. АНАЛИЗ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....</b>	<b>86</b>
6.1. Анализ прибыли предприятия.....	86
6.2. Анализ рентабельности предприятия.....	93
6.3. Анализ экономической несостоятельности предприятия.....	110

Ключевые слова.....	119
Вопросы для самоконтроля и самоподготовки.....	119
<b>ВМЕСТО ЗАКЛЮЧЕНИЯ.....</b>	<b>120</b>
<b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ И МАТЕРИАЛОВ.....</b>	<b>121</b>

## CONTENTS

Introduction.....	9
<b>Chapter I. THE BASIC PRINCIPLES OF THE ANALYSIS OF ENTERPRISES FINANCIAL CONDITION AND MARKET RELATIONS.....</b>	<b>11</b>
1.1. Transition of national economy to the market and increasing the role of enterprises" financial condition.....	11
1.2. The basic principles and sources of financial analysis.....	14
1.3. Balance sheet of enterprise — the basic source of the financial analysis.....	19
Brief summary.....	26
Questions for control a discussions.....	26
<b>Chapter II. THE EXPERIENCE OF FINANCIAL ANALYSIS AND GENERAL ESTIMATION OF ENTERPRISES FINANCIAL CONDITION.....</b>	<b>27</b>
2.1. Foreign experience of financial analysis.....	27
2.2. Development_ of the methods of the enterprise's financial state analysis in Uzbekistan.....	33
2.3. A general (common) estimation of a financial condition of the enterprise.....	38
Brief summary.....	40
Questions for control a discussions.....	41
<b>Chapter III. THE ANALYSIS OF FINANCIAL STABILITY AND LIQUIDITY OF BALANCE.....</b>	<b>42</b>
3.1. Analysis of enterprise's financial stability.....	42
3.2. Analysis of enterprise's balance liquidity.....	50
Brief summary.....	55
Questions for control a discussions.....	56
<b>Chapter IV. CAPITAL TURNOVER. COSTS of PRODUCTION AND FINANCIAL STATE OF ENTERPRISE.....</b>	<b>57</b>
4.1. Turnover of capital and enterprise's financial conditions.....	57
4.2. Production costs and enterprise's financial condition.....	62
Brief summary.....	71
Questions for control a discussions.....	726
<b>Chapter V. THE ANALYSIS OF ENTERPRISE'S BUSINESS AND MARKET ACTIVITY.....</b>	<b>73</b>
5.1. The analysis of business activity.....	73
5.2. The analysis of market activity.....	76
Brief summary.....	84
Questions for control a discussions.....	85
<b>Chapter VI. THE ANALYSIS OF ENTERPRISES FINANCIAL RESULTS.....</b>	<b>86</b>
6.1. Enterprise's profit analysis.....	86

6.2. Analysis of enterprise profitability..... 93  
6.3. Analysis of enterprise's economic insolvency..... 110  
Briel summary..... 119  
Questions for control a discussions..... 119  
**INSTEAD OF CONCLUSION..... 120**  
**THE LITERATURE AND MATERIALS..... 121**



## KIRISH

Korxonalarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab, korxonalarining kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Xalq xo‘jalikni bozor munosabatlariga o‘tkazish bilan korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishning ahamiyati yanada ortadi, chunki bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish eng dolzarb muammoga aylanadi.

Bozor munosabatlari shakllanishi, rivojlanishi, ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari foyda va rentabellik korxonalar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlariga aylanishiga olib keladi.

Xalq xo‘jalikni rivojlantirishda haddan tashqari markazlashtirilgan ma‘muriy-buyruqbozlik, rasmiyatchilik, rejalashtirish va boshqarishlik tizimidan voz kechish, bozor munosabatlaridan keng foydalanish, korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini kengaytiradi, ularning moliyaviy holatiga e‘tiborni oshiradi hamda korxonalarining moliyaviy holati bilan shug‘ullanuvchi, undan manfaatdor tashkilot va organlarning tarkibini kengaytiradi.

Agar ilgari korxonalarining xo‘jalik faoliyatini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish bilan faqat moliya, bank, statistika organlari va yuqori tashkilotlar shug‘ullangan bo‘lsalar, endilikda bu ish bilan yuqorida ko‘rsatilgan tashkilotlardan tashqari soliq organlari, auditorlik idoralari, jamoa tashkilotlari, aktsionerlar, ta‘minotchilar, iste‘molchilar va boshqa organlar hamda tashkilotlar ham shug‘ullanishyapti. Bu holat moliyaviy tahlil, uni bajarish uslubi oldiga yangi talablar qo‘ymoqda.

Ma‘lumki, sobiq Ittifoq davrida korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, jumladan, korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etishning uslubiy masalalari markazda — butun ittifoq organlari tomonidan ishlab chiqilardi, muammolari yechilardi va ittifoqdosh respublikalarga foydalanish uchun jo‘natilar edi.

Sobiq Ittifoqning tarqatilishi tufayli ittifoqdosh respublikalar mustaqil davlatlarga aylandi, ulardan har bittasi bozor munosabatlariga o‘tish uchun o‘z yo‘lini tanlab, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni davom ettirib, bozor iqtisodiyotini shakllantirmoqda. Ular orasida O‘zbekiston ham o‘zining bozor iqtisodiyotiga o‘tish modelini ishlab chiqib, xalq xo‘jalikni bozor munosabatlari sharoitida rivojlantirgan holda ijobiy natijalarni qo‘lga kiritib kelayotir.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning huquqiy bazasini tashkil qiluvchi Respublika Qonunlari, Prezidentimiz Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining yuzlab qarorlari qabul qilindi va qabul qilinyapti.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri — boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal etishda korxonalarining xo‘jalik faoliyati va moliyaviy holatini

tahlil qilish katta rol o'ynaydi. Chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bozor munosabatlari davrida bu shartning asosiy qismi, korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Respublikada yangi moliyaviy hisobot shakllari qabul qilindi, ularni o'rganish va ulardan keng foydalanish uslublarini barpo etish katta ahamiyatga ega.

Bozor munosabatlari davrida respublikada bu masalani yechish maqsadida moliyaviy tahlil uslubiyatini takomillashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu borada hali yechilmagan muammolar ham kam emas. Moliyaviy tahlilni o'tkazishdan manfaatdor tashkilotlar, organlar, mutaxassislar hali ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan asoslangan uslub bilan ta'minlanmaganlar. Bu holat, albatta, bozor munosabatlarini shakllantirish davrida korxonalar va tashkilotlarga samarali boshqaruvchilik qilishda salbiy rol o'ynamoqda.

Moliyaviy tahlildan manfaatdor tashkilot va organlar, mutaxassislar, keng kitobxonlar ommasi e'tiboriga havola qilinayotgan kitobimizda bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi kun iqtisodiy nazariyasiga asoslanib, sobiq ittifoq davrida shakllangan moliyaviy tahlil uslubiyatini, bu boradagi xorijiy mamlakatlar tajribasini e'tiborga olib, bozor iqtisodiyoti talablarini ko'zda tutib, korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishning kompleks uslubiyatini ishlab chiqish maqsadlari, tadbirlari bayon etilgan. O'ylaymizki, bu qo'llanma korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishni yaxshilashda, uning samarasini ko'tarishga yordam berishi shak-shubhasizdir.

O'quv qo'llanma muallifi iqtisod fanlari nomzodlari, dotsentlar A.T.Ibrohimov, Sh.Sh.Shoyokubov, F.Sh. Shamsutdinovlarga o'quv qo'llanmani tayyorlash davrida uning sifatini, mazmun-mohiyati va saviyasini oshirish niyatida qilgan tavsiya-takliflari uchun chin qalbdan o'z minnatdorchiligini izhor etadi. Bu tavsiya va mulohazalar muallif tomonidan asosiy yo'nalishlar bo'yicha e'tiborga olingan.

O'quv qo'llanmada o'z ifodasini topgan moliyaviy tahlil uslubiyati, unda tavsiya etilgan, foydalanilgan, tahlil qilingan ko'rsatkichlar tizimining asoslanganligi, amaliyligi, zamon talablariga javob berishi respublika korxonalarini materiallarini muallif tomondan tahlil etish yo'li bilan sinovdan o'tkazilgan.

# **1-bob. BOZOR MUNOSABATLARI VA KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL QILISH ASOSLARI**

## **1.1. Xalq xo‘jaligini bozor munosabatlariga o‘tkazish va korxonalar moliyaviy holatining ahamiyati ko‘tarilishi**

Ma'lumki, 80-yillarda mamlakatimizda haddan tashqari markazlashtirilgan rejalashtirish va boshqaruvchilik ma'muriy-buyruqbozlik, rasmiyatchilik tizimining potentsial imkoniyatlari tamom bo'la boshladi. Shu davrda foydalanilayotgan sotsialistik iqtisodiy nazariyani tubdan ko'rib chiqish, o'zgartirish, sotsialistik jamiyat qurish usullarini takomillashtirish ob'yektiv zarurligi kun tartibiga qo'yilgandi. Lekin bu muammolar o'z yechimini topmadi, xalq xo'jalikni rivojlantirishda eskicha boshqaruv davom etaverdi. Xalq xo'jaligini rivojlantirishning ehtiyojlari, uning ob'yektiv-sub'yektiv imkoniyatlari to'liq va har tomonlama e'tiborga olinmadi. Mamlakat rivojiga muhim hissa qo'shadigan alohida mintaqalar va ittifoqdosh respublikalarning tabiiy-iqtisodiy sharoitlari ham ehtiyojlari ko'zda tutilmadi.

Xalq farovonligini oshirish davlat miqyosida asosiy vazifa shior etib qabul qilingan bo'lsa-da, amaliyotda bu muammolar yechilmay qolaverdi. Jamiyatni sotsial rivojlantirish uchun rivojlangan kapitalistik mamlakatlarga nisbatan 4-6 marta kam mablag' ajratildi. Bu holat shunga olib keldiki, 1990 yil respublikamiz aholisining 45 foizi qashshoqlikda hayot kechirdi. Ittifoq miqyosida bu ko'rsatkich 15 foizni tashkil qilgan edi.

Korxonalar faoliyatida xo'jalik yuritishning asosiy usuli sifatida qabul qilingan xo'jalik hisobi usulidan esa me'yyorida foydalanilmadi, uning tamoyillari ko'p tarmoqlarda, korxonalar va tashkilotlarda amalga oshirilmadi. Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy mustaqilligi tubdan chegaralandi, ular o'z mol-mulklariga, ishlab chiqargan mahsulotlarga ega bo'lmadilar. Mamlakat bo'yicha o'rtacha 15 foiz korxonalar va tashkilotlar davlat budjetiga bir so'm ham foyda keltirmay, zarariga ishladilar, 25 foiz korxonalar va tashkilotlarning rentabellik darajasi 10 foizdan oshmas edi, o'z-o'zini moliyalashtirish to'g'risida esa gap bo'lishi ham mumkin emasdi.

Xalq ommasida paydo bo'lgan xalq harakatining keng shakllari – sotsialistik musobaqa, kommunistik mehnat uchun intilish va boshqa harakat shakllari vaqt o'tishi bilan ma'muriy boshqaruv ta'sirida buzildi, izdan chiqdi va rasmiy tadbirlarga aylantirildi. Natijada ishlab chiqaruvchilar — mehnatkashlar bu xalq harakati shakllaridan cheklandilar va voz kehdilar.

Qabul qilingan ko'plab qonunlar, qarorlar va tadbirlarga qaramasdan fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni rivojlantirishda asosiy hal qiluvchi omilga aylanmadi. Bu borada xorijiy mamlakatlarning yutuqlaridan foydalanish u yoqda tursin, mamlakatda kashf etilgan fan va texnika yutuqlaridan to'liq foydalanilmadi.

Ishlab chiqilib, amaliyotda samarali foydalanilayotgan iqtisodiy islohotlar zamon talabiga mos ravishda takomillashtirilmadi, chuqurlashtirilmadi va oxirigacha olib borilmadi. Misol sifatida 1965 yilda qabul qilingan rejalashtirishni takomillashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish xo'jalik islohotini keltirishimiz mumkin.

Ma'lumki, bu islohot sakkizinchi besh yillik davrida xalq xo'jaligini

rivojlantirishni jadallashtirdi, rivojlantirishni ifodalovchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari, o'sish sur'atlari tubdan ko'tarildi. Lekin to'qqizinchi besh yillikdan e'tiboran yana taraqqiyot sur'atlari pasaya boshladi, chunki boshlangan islohot takomillashtirilmadi, oxirigacha olib borilmadi. Rivojlanish sur'atlari yildan-yilga pasayaverdi – bu turg'unlik yillari edi. 1990 yildan boshlab mamlakat iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi, iqtisodiyot orqaga keta boshladi. Yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi keskin kamaydi. 1991 yildan boshlab O'zbekiston ham iqtisodiy inqirozga uchradi.

Sobiq Ittifoq rahbariyati bu holatni sezib, inqirozdan chiqish yo'llarini qidira boshladilar. Bu muammoni yechish uchun ikki yo'l bor edi:

- birinchidan, ittifoqdosh respublikalarning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish;
- ikkinchidan, xalq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazish zarur edi.

Ana shunday iqtisodiy inqiroz paytida sobiq SSSR ning tarqatilishi ittifoqdosh respublikalarning hammasini mustaqil davlatlarga aylanishini va bozor iqtisodiyotiga o'tishlarini tezlashtirdi.

Biroq O'zbekiston o'z xalq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazish dasturini ilgariroq ishlab chiqib, 1990 yilning oktyabr oyida o'tkazilgan respublika Oliy Kengashining majlisida qabul qilindi. Demak, O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish borasida o'z yo'lini izlab topib, o'z andozasini ishlab chiqib, mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirmoqda va demokratik tamoyillar asosida qurmoqda.

Xalq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, rivojlantirish korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holatini, tutgan o'rnining ahamiyatini tubdan o'zgartiradi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy natijalari ularning ishini baholashda asosiy ko'rsatkichlarga aylanib qoladi.

Bozor munosabatlari bozor iqtisodiyotining shakllanishi, rivojlanishi davrida korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holati ahamiyatining ko'tarilishiga quyidagi vaziyatlar ta'sir ko'rsatadi:

1. Ma'muriy buyruqbozlik tizimini bozor munosabatlari bilan almashtirish korxonalar faoliyati natijalarini baholash mezonini tubdan o'zgartiradi. Agar ilgari korxonalar faoliyatining natijalari, avvalambor, ishlab chiqarish dasturining bajarish, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi bilan ifodalangan bo'lsa, bozor munosabatlari davrida korxonalar faoliyati moliyaviy natijalar va moliyaviy ko'rsatkichlar — foyda hamda rentabellik ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. Bu o'z navbatida bozor munosabatlari davrida korxonalar faoliyatining moliyaviy holatiga e'tibor oshayotganligidan dalolatdir.

2. Jamiyatda foydalanilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan qat'iy nazar korxonalar faoliyatini tashkil qilish uchun xo'jalik yuritish usullaridan foydalaniladi. Shunday usullardan biri xo'jalik hisobi usulidir. Xo'jalik hisobi usuli sobiq Ittifoq davrida shakllandi va mamlakatimizda keng foydalanildi. Chunki o'sha davrda korxonalar va tashkilotlar faoliyati xo'jalik hisobi tamoyillari asosida tashkil qilingan edi.

Lekin o'sha davrda ko'pgina korxonalar va tashkilotlar faoliyatida xo'jalik hisobi rasmiy ravishda foydalanilgan edi. Ko'p tarmoqlar va korxonalar davlat budjetiga hech qanday foyda keltirmadi, ya'ni doimo zarar bilan ishlab, davlatdan hamma vaqt

dotatsiya va subsidiya olib, hayot kechirardi. Demak, bu korxonalar va tashkilotlar xo'jalik hisobining asosiy tamoyili — o'z-o'zini oqlash, o'zini-o'zi moliyalashtirish tamoyillarini amalga oshirmaganlar. Chunki bu holat ma'muriy buyruqbozlik va rasmiyatchilik tizimining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan edi.

Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan moliyaviy yakunlar asosiy ko'rsatkichlarga aylanar ekan, korxonalar faoliyatida endi yuzaki emas, haqqoniy xo'jalik hisobi amalga oshirilishi lozim. Demak, korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari tutgan o'rni oshib boradi, bozor munosabatlari xo'jalik hisobi usulini inkor etmay, uni qabul qiladi va haqqoniy xo'jalik hisobini amalga oshiradi.

3. Ma'lumki, markazlashtirilgan rejalashtirish ma'muriy buyruqbozlik va rasmiyatchilik davrida korxonalarining mablag'larga bo'lgan ehtiyojlari asosan davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirish yo'li bilan qoplanar edi, chunki xalq xo'jalik ijtimoiy ishlab chiqarish mamlakatimizda, asosan bir ijtimoiy-iqtisodiy ukladdan iborat bo'lgandi va davlat rejalariga binoan uning buyurtmalarini bajarish bilan shug'ullanardi.

Bozor munosabatlari davrida ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti shakllanar ekan, davlat ukladida ham bozor munosabatlari, keng foydalanilar ekan, korxonalar va tashkilotlarning mablag'larga bo'lgan ehtiyojlari tabiiy ravishda asosan moliyalashtirish orqali emas, balki kreditlashtirish, ya'ni banklardan kreditlar olish orqali qondirilishi mumkin. Buning uchun korxonalar o'z faoliyatini samarali tashkil qilishlari, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytib berish qobiliyatiga, ya'ni kerakli darajada moliyaviy imkoniyatga ega bo'lishlari kerak.

4. Markazlashtirilgan rejalashtirish va bozor munosabatlarini shakllantirish tizimidan qat'iy nazar xalq xo'jaligini rivojlantirishda davlatning ishtiroki, aralashuvi, uning boshqaruv roli tabiiy ravishda bo'lishi kerak.

Lekin markazlashtirilgan rejalashtirish tizimida butun korxonalar va tashkilotlar davlatniki bo'lganligi hamda uning qaramog'idaligi uchun doimo davlat rahnamoligidan foydalanganlar, davlat ularga hamma vaqt yordam berib turgan.

Bozor munosabatlari davrida esa davlat tomonidan yordam doimo kamayib boradi. Korxonalar va tashkilotlar keng iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lib, o'z faoliyatiga o'zlari javob berishlari lozim. Shuning uchun ham korxonalar va tashkilotlar o'zlarining kerakli moliya holatiga ega bo'lishlari kerak.

5. Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida korxonalararo raqobat bo'lgan emas. Ularning hammasi davlat rejalariga asosan faoliyat ko'rsatishgan. Iqtisodiy nuqtai nazardan og'ir holatga tushib qolgan korxonalar davlatdan olingan yordamga asoslanib o'z faoliyatini davom ettiraverganlar. Og'ir moliyaviy holatga tushib qolgan korxonalarini sinish tizimi bo'lgan emas.

Bozor munosabatlariga o'tish sababli korxonalararo raqobat tizimi shakllandi. Agarda korxonalar og'ir moliyaviy holatga tushib qolsa, olingan ssuda va qarzlarni o'z vaqtida qaytib bera olmasa, bu korxonalar ustidan xo'jalik sudiga bank va kreditorlar tomonidan arizalar tushadi va xo'jalik sudi bu korxonalarini sindi yoki bankrot bo'ldi deb qarorlar qabul qiladi. Demak, korxonalar bankrotlikka uchramaslik uchun bozor munosabatlarining talablariga javob bera borib, o'z faoliyatini yaxshi moliyaviy holatda ushlab turishlari lozim.

6. Pirovardida bozor munosabatlari davrida korxonalar moliyaviy holatining

ahamiyati oshib borishi to'g'risida gap borar ekan, yana bir narsani ta'kidlash lozim.

Respublika jahon bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirib borarkan hamda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda bo'lar ekan, respublikada hisob va hisobot tizimlari xalqaro andozalarga o'tkazilishi lozim. Bu milliy schyotlar tizimidan foydalanishni, hisob va hisobot tizimlarini bozor iqtisodiyoti talablariga moslab takomillashtirishni, moliyaviy hamda boshqaruv hisobi va hisoboti tizimlarini tatbiq qilishni talab etadi. Bu tadbirlarning asosiy vazifalaridan biri korxonalarining moliyaviy holatini yaqqol ko'rsatib berish va har tomonlama ifodalashni talab etadi. Chunki bozor munosabatlari davrida korxonalarining moliyaviy holati ham nazariyada, ham amaliyotda asosiy muammoga aylanadi.

Shunday qilib, xalq xo'jaligi bozor munosabatlariga o'tkazilishi, respublikada bozor iqtisodiyoti shakllanishi munosabati bilan korxonalarining moliyaviy holatiga e'tibor oshib boradi. Demak, korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish eng dolzarb masalalarga, shuningdek, moliyaviy tahlil uslubini o'rganish, o'zlashtirib olish xalq xo'jalikning, butun iqtisodiy idora va organlarning, tashkilotlarning eng asosiy vazifalaridan biriga aylanadi.

## **1.2. Moliyaviy tahlilning asosiy talablari va manbalari**

Korxonalarining moliyaviy holati bu:

- kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;

- korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorligi natijasidir;

- korxonalarining mo'ʻtadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;

- korxonalarining boshqa xo'jalik sub'yektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Korxonalarining ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxonalar bilan aloqada bo'lgan boshqa tashkilotlar va korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman korxonalarining ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatini, jumladan ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, menedjment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqalar tashkil etadi. Demak, tahlilchi mutaxassis-auditorlar keng iqtisodiy ilimga ega bo'lishlari lozim.

Iqtisodiy adabiyotda, ma'lumki, "Moliyaviy tahlil" atamasidan foydalaniladi. "Moliyaviy tahlil" barcha iqtisodiy tahlilning bir shakli hisoblanadi, ikkinchi shakli – bu "boshqaruvlik tahlili". Demak, mazmunan "Moliyaviy tahlil" va "Korxonalarining moliyaviy holati tahlili" – bu har xil mazmunga ega bo'lgan iboralar.

Bizning ma'ruzamiz Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishga bag'ishlangan, lekin iqtisodiy adabiyotda qabul qilingandek, qisqa ifodalash uchun ma'ruzalarda "Moliyaviy tahlil" atamasidan foydalanilgan. Iqtisodiy adabiyotda Korxonalarining moliya holati tahlili jarayoni ham "Moliyaviy tahlil" deb qabul

qilinayapti.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, ya'ni moliyaviy tahlil — keng ko'rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.

Moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab jarayon bo'lib, u tashkil qilinishi, buning uchun esa bir qator talablarga asoslanishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqalarni borligini bilish;
- moliyaviy tahlil mobaynida mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan birgalikda foydalanish;

- moliyaviy tahlil mantiqiy ravishda amalga oshirilib, u induktiv usulga — alohida hodisalardan umumiy hodisalarga o'tish, moliyaviy holatning bir shakl ko'rinishidan umumiy ko'rinishga o'tish va deduktiv usulga — umumiy hodisalardan alohida hodisalarga o'tishga asoslanib tahlil qilish;

- hamma foydalanilayotgan ko'rsatkichlar bir xil, asoslangan usulda aniqlanishi lozim;

- moliyaviy holatni tahlil qilishda tahlil qilinayotgan korxonalar ko'rsatkichlarini boshqa korxonalar, o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari va ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

- moliyaviy tahlilning har tomonlama bo'lishligi va korxonalarining umumiy moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil etish;

- moliyaviy tahlilni samarali o'tkazish uchun kerakli ma'lumotlarni oldindan tayyorlash va bu borada asosiy tasdiqlangan moliyaviy manbalar bilan cheklanmasdan birlamchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish;

- moliyaviy tahlil ob'yektiv ravishda tashkil qilinib, u korxonalarining moliyaviy holati real darajasini ifodalashi lozim;

- moliyaviy tahlil o'z vaqtida o'tkazilib, tahlil yakunlariga asoslanib, moliyaviy holatni yaxshilash choralari o'z vaqtida amalga oshirishga imkon berish;

- moliyaviy tahlil kompleks ravishda o'tkazilib, unda moliyaviy holatning hamma shakl va yo'nalishlari ifodalinishi lozim;

- moliyaviy tahlil o'z vaqtida va haqqoniy bo'lib, u moliyaviy holatni ko'tarishga bag'ishlangan tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishga imkon berishi;

- moliyaviy holatni tahlil qilish shunday vaqtda o'tkazilishi lozimki, tahlil yakunlari qo'yilgan maqsadni amalga oshirib, korxonalar boshqaruvini takomillashtirishga imkoniyat tug'dirishi lozim;

- moliyaviy tahlil barcha yig'ilgan va umumlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanib, kerakli ko'rsatkichlardan foydalanib, bu ko'rsatkichlarning asosligi to'g'ri usullarda aniqlanishi lozim,

Ko'rinib turibdiki, moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab va muhim bo'lganligi sababli u bir qancha talablarga asoslangan bo'lishi lozim. Yuqorida ko'rilgan talablarga asoslanib, moliyaviy tahlil korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishda quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilishi kerak:

1. Korxonalarining moliyaviy darajasini baholash.
2. Moliyaviy holatning o'zgarishini aniqlash.

3. Moliya holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish.

4. Korxonalarda qo'lga kiritilgan moliyaviy holat darajasini ifodalab, bu borada hali foydalanilmagan imkoniyatlarni, mavjud zaxiralarni ko'rsatib berish.

5. Korxonalarda hali foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish maqsadida tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini ko'rsatib berish.

Bajariladigan vazifalar shuni ko'rsatayaptiki, moliyaviy holatni tahlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruv tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Moliyaviy tahlil boshlanmasdan tahlilning ob'yektlari va predmetlari aniqlanishi lozim. Moliyaviy tahlilning asosiy ob'yekti, xo'jalik sub'yektlari, alohida korxonalar, tashkilotlar hisoblanadi. Lekin moliyaviy holat korxonalar guruhi, ishlab chiqarish tarmoqlari miqyosida ham aniqlanishi mumkin.

Moliyaviy tahlilning predmeti korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy faoliyati, ularning moliyaviy resurslaridan foydalanish jarayoni hisoblanadi. Moliyaviy tahlilning maqsadi va uning yo'nalishini e'tiborga olsak moliyaviy tahlil har xil shaklda bo'lishi mumkin; tarmoqlararo, tarmoqda, korxonalar miqyosida, joriy va istiqboliy, tezkorlikda tugallangan bo'lishi mumkin. Tarmoqlararo moliyaviy tahlilda tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarni nazarda tutgan holda tahlil qilinayotgan korxonalarining moliyaviy holati o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi.

Tarmoq miqyosida o'tkazilayotgan moliyaviy tahlilda tahlil qilinayotgan korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari shu tarmoqdagi boshqa korxonalar hamda ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Bozor munosabatlari davrida butun korxonalar va tashkilotlar mustaqil ravishda faoliyat olib borar ekan, moliyaviy tahlilning eng asosiy shakli alohida korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish hisoblanadi.

Tugallangan moliyaviy tahlilda korxonaning butun moliyaviy holati tahlil qilinadi, undan tashqari korxonalar moliyaviy holatining alohida yo'nalishlari, shakllari tahlil qilinishi mumkin.

Tezkor, tahlil korxonalar faoliyatida doimo, uzluksiz bo'lishi kerak. Unda moliyaviy holatning alohida ko'rsatkichlari kuzatib boriladi va ularning o'zgarishiga qarab boshqaruv tadbirlari ishlab chiqilib amalga oshiriladi.

Joriy moliyaviy tahlil chorak va yarim yillik moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'tkazilib, moliyaviy holatni yil davomida o'zgartirib, yaxshilab turish imkoniyatini beradi. Faoliyat ko'rsatayotgan har bir korxonalar o'z istiqboliga ega bo'lishi zarur, bu istiqbol tadbirlari esa korxonalar bo'yicha ishlab chiqilishi kerak. Shu munosabat bilan korxonalarining moliyaviy holati istiqbolini ham tahlil qilib turish kerak.

Moliyaviy tahlilning yo'naltirilganligi nuqtai nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- gorizontal tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'tgan davr bilan taqqoslanadi, ya'ni bu ko'rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

- vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarning tarkibiy-tuzilmasi o'rganiladi. Masalan, korxonalar mablag'larining yoki ularni qoplovchi manbalarining hisobot davridagi tarkibi va uni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi ifodalanadi;



- nisbiy ko'rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqa o'rganiladi. Masalan, korxonada mablag'larining va ularning manbalari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o'rtasidagi aloqa ifodalanadi;

- taqqoslash tahlilida korxonada bo'yicha moliyaviy holat uning alohida bo'limchalari moliyaviy holati bilan taqqoslandi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarining moliyaviy holati bilan solishtiriladi;

- pirovardida, omillar tahlilida korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil etiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan moliyaviy tahlilning shakllaridan tashqari yana amaliyotda ichki va tashqi, moliyaviy va boshqaruvchanlik tahlili shakllari qo'llaniladi.

Ichki moliyaviy tahlil korxonalarining xodimlari tomonidan o'tkazilib, shu korxonalarining boshqaruv tizimini kelgusida takomillashtirish va moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida o'tkaziladi.

Tashqi moliyaviy tahlil korxonalarining xodimlari tomonidan emas, balki organlar, tashkilotlar xodimlari tomonidan o'tkaziladi. Bu tahlil korxonalarining iltimosi bo'yicha yoki tashqi organ, tashkilot, korxonada xodimlari tomonidan nazorat sifatida o'tkazilishi mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tish bilan moliyaviy va boshqaruvlik tahlilidan keng foydalanilmoqda va bu tahlil shakllari katta ahamiyat kasb etayapti.

Moliyaviy tahlil — korxonalarining ochiq tarzidagi moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlariga asoslanib o'tkaziladigan tahlildir.

Yuqorida ta'kidlanganidek moliyaviy tahlilni korxonalarining xodimlari o'tkazishi mumkin, lekin moliyaviy hisobot ochiq bo'lganligi uchun bu tahlilni boshqa tashqi organlar, korxonalar va tashkilotlar — soliq, moliya, bank va boshqalar tomonidan o'tkaziladi hamda korxonalarining moliyaviy holatiga baho beriladi.

Boshqaruv tahlil bevosita korxonalar tomonidan o'tkazilib, u ham ochiq, ham yopiq hisobot axborotlariga asoslanadi va bu tahlil yakunlari korxonalar rahbariyati tomonidan boshqaruvlikni takomillashtirish uchun foydalaniladi. Bu tahlilda yopiq ma'lumotlardan foydalanilganligi uchun bu tahlilni asosan tashqi korxonada va organlar emas, bevosita korxonada xodimlari olib boradilar, chunki bozor munosabatlari davrida har bir korxonada o'zining hisob siyosatiga ega. Shuningdek, uning faoliyatida tijorat sirlari bo'lib, ular moliyaviy hisob va hisobotda emas, boshqaruv hisob va hisobotida ifodalanadi.

Moliyaviy va boshqaruv tahlil shakllari bir birini inkor qilmaydi, ular bir-biri bilan bog'liq, lekin bajaradigan vazifalari va xususiyatlari har xil.

Moliyaviy tahlil quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy tahlilning yakunlari ochiq bo'lib, ulardan hamma foydalanishi mumkin;

- moliyaviy tahlilning sub'yektlari va bu tahlilning yakunlaridan foydalanuvchi organ, korxonada, tashkilotlar tarkibi keng;

- moliyaviy tahlil hamma uchun moslangan, nashr etilgan hisobot ma'lumotlariga asoslanadi;

- moliyaviy tahlil korxonalar ichki boshqaruv muammolarini yechish uchun o'tkaziladi;

- moliyaviy tahlilning yoʻnalishi moliyaviy hisobot maʼlumotlari bilan cheklangan boʻlib, unda chegaralangan aniq bir vazifalar yechiladi. Bu moliyaviy mustahkamlik, balans likvidligi, foyda, rentabellik darajasi va boshqalardir.

Oʻz navbatida boshqaruv tahlili quyidagi xususiyatlar bilan ifodalanadi:

1) korxonalar tijorat sirlarini saqlash maqsadida boshqaruvlik tahlilning yopiqligi;

2) boshqaruv tahlili oʻtkazilganda foydalanadigan maʼlumotlar tarkibi chegaralanmaydi. Bu tahlilda ochiq moliyaviy hisobot maʼlumotlaridan tashqari, birlamchi buxgalteriya hisobi maʼlumotlari, maxsus tashkil qilib yigʻilgan maʼlumotlaridan foydalaniladi;

3) boshqaruv tahlilida tahlil yoʻnalishlari, foydalanilayotgan koʻrsatkichlar, bajariladigan vazifalar chegaralanmaydi;

4) boshqaruv tahlilining yakunlari ichki maqsadlar hamda moliyaviy holatni yaxshilash uchun foydalaniladi.

Koʻrinib turibdiki, korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish keng miqyosda va aniq vazifalarni bajarish uchun oʻtkaziladi. Korxonalar ishlab chiqarish, xoʻjalik faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun anʼanaviy, qadimdan qoʻllanib kelinayotgan usullar bilan birga, keng tarzda statistika usullari, moliyaviy holatni ifodalovchi maʼlumotlarni yigʻish va umumlashtirish, statistik kuzatishlarni oʻtkazish, mutlaq, nisbiy, oʻrtacha, dinamik koʻrsatkichlardan foydalanish, dinamik qatorlardan, iqtisodiy indekslar tizimidan, omillararo korrelyatsiya aloqalarini aniqlash, jadval va chizma tizimidan foydalanish lozim.

Umuman tahlil qilish usullari, ayniqsa, moliyaviy holatni tahlil qilish usullari bozor munosabatlariga oʻtish bilan yanada takomillashtirilishi, korxonalararo taqqoslash, raqobatchi va ilgʻor korxonalar bilan taqqoslash hamda korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish usullari katta ahamiyatga ega boʻlib qoladi.

Moliyaviy tahlil koʻp qirrali murakkab ish boʻlib, u oʻz ichiga korxonalarda shakllangan moliyaviy holatni, uning alohida yoʻnalish boʻyicha moliyaviy holatini aniqlovchi shart-sharoit, omillarni, korxonalar moliyaviy holatini kelgusida koʻtarish imkoniyatlarini, zaxiralarini, yoʻnalishlarini tahlil qilishni oladi. Demak, moliyaviy tahlilni har tomonlama tayyorlab, soʻng oʻtkazish lozim. Shu sababli moliyaviy tahlilni tayyorlash va oʻtkazish bir qancha bosqichlarni oʻziga olib, ular quyidagilardan iborat:

- moliyaviy tahlilni oʻtkazishning ishchi dasturini tuzish. Dasturda tahlilning maqsadi va vazifalari aniqlanadi;

- tahlilni oʻtkazuvchilarning tarkibini aniqlash, yaʼni tahlil qiluvchilarning roʻyxatini tuzish;

- tahlil uchun foydalaniladigan iqtisodiy maʼlumotlarni toʻplash;

- moliyaviy tahlilda foydalanadigan koʻrsatkichlar tizimini aniqlash;

- moliyaviy tahlil koʻrsatkichlarini hisoblash usullarini aniqlash;

- tahlilda foydalanadigan koʻrsatkichlarni hisoblash va ularni umumlashtirish;

- tahlil yakunlarini jadvallar va chizmalarda shakllantirish;

- moliyaviy tahlil natijasida xotima tayyorlab, unda tahlil yakunlari boʻyicha xulosalar chiqarib, kelgusida korxonaning moliyaviy holatini koʻtarishga bagʻishlangan tavsiyalar ishlab chiqish;

- moliyaviy tahlil yakunlarini maxsus yigʻilishda muhokama qilish;

- tahlil yakunlari bo'yicha muhokama natijalarini e'tiborga olib, korxonaning moliyaviy holatini ko'tarish maqsadida boshqaruv tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan tadbirlar ishlab chiqib, ularni korxonaga rahbariyatining maxsus qarorida ifodalash.

O'tkazilayotgan moliyaviy tahlilning darajasi va mazmuni foydalanilayotgan ma'lumotlar bazasiga bog'liq iqtisodiy fanlarning rivojlanishi, buxgalteriya hisobi va hisobotlarining takomillashtirilishi bilan ma'lumotlar bazasi ham takomillashib boradi. Demak, foydalaniladigan ma'lumotlar moliyaviy tahlilning manbalari bo'lib hisoblanadi. Bunday manbalar sifatida korxonalarining yillik va boshqa hisobotlarini ko'rish mumkin.

### **1.3. Buxgalteriya balansi — moliyaviy tahlilning asosiy manbai**

«Balans» so'zi lis-ikki marta va lapx-torozi pallalari so'zlaridan kelib chiqib, mazmunan barobarlikni, teng qiymatlikni ifodalaydi. Balans usuli xalq xo'jaligining har xil tarmoq va sohalarida keng va har xil maqsadda foydalaniladi.

Buxgalteriya hisobida balans ikki maqsadda foydalaniladi:

- 1) korxonaga mablag'larini va ularni qoplovchi manbalarni hamda buxgalteriya schyotlarining debet va kreditda ifodalangan ko'rsatkichlari tengligini ko'rsatish;
- 2) buxgalteriya hisoboti shaklida korxonaga mablag'larini aniq bir vaqtda pul sifatida ko'rsatish.

Balans buxgalteriya hisobotini eng asosiy shakli bo'lib, qolgan buxgalteriya moliyaviy hisobotlar balans ko'rsatkichlarini boyitadi va moliyaviy holatning alohida yo'nalishlarini ifodalaydi.

Balans buxgalteriya ma'lumotlariga asoslanadi. Buxgalteriya ma'lumotlari debetlik, kreditlik aylanmalarda, aktiv va passiv schyotlarda o'z ifodasini topadi.

Debet aylanma - buxgalteriya schyotlarining debetida boshlang'ich qoldiqsiz yozilgan ma'lumotlar.

Kredit aylanma - buxgalteriya schyotlarining kreditiga boshlang'ich qoldiqsiz yozilgan ma'lumotlar.

Aktiv schyotlar - bu schyotlarda korxonaga xo'jalik moliyaviy faoliyatining har xil yo'nalishlari ko'rsatiladi. Bu schyotlarning qoldig'i faqat debet bo'lishi mumkin. Chunki korxonaga faqat mavjud mablag'lardan foydalanishi mumkin.

Passiv schyotlar - schyotlarda korxonaga mablag'larining kelib chiqish va qoplanish manbalari ko'rsatiladi. Bu schyotlarning qoldig'i faqat kredit bo'lishi, ya'ni korxonaga faqat tegishli manbalar bilan qoplangan mablag'lardan foydalanishi mumkin.

Amaliyotda aktiv-passiv schyotlar ham bo'lishi mumkin. Bu schyotlarda korxonaning ham mablag'lari, ham ularni qoplovchi manbalar ko'rsatiladi. Masalan: bu korxonaning ham yuridik ham jismoniy shaxslar bilan hisob-kitob schyotlaridir. Bu shaxslar korxonaga bilan aloqada bo'lganlarida ham debitorlik ham kreditorlik vazifalarini bajarishi mumkin.

Balans tuzishda foydalanilayotgan ma'lumotlar umimlashtirilgan va detallashtirilgan bo'lishi ham mumkin. Bu ma'lumotlar buxgalteriyaning sintetik va analitik schyotlarida o'z ifodasini topadi.

Sintetik schyotlarda korxonaga faoliyatining umumiy ko'rsatkichlari hisobga

olinadi. Masalan, «Materiallar» sintetik schyotida butun moddiy resurslardan foydalanish natijalari ko'rsatiladi.

Analitik schyotlarda sintetik schyotlarning ma'lumotlari detallashtiriladi. Masalan, «Materiallar» sintetik schyotning ma'lumotlari alohida material turlari bo'yicha tuzilgan analitik schyotlarda detallashtiriladi.

Sintetik va analitik schyotlardan tashqari yana subschyotlar bo'lishi mumkin. Ulardan ham sintetik schyotlarning ma'lumotlarini detallashtirish uchun foydalaniladi. Lekin subschyotlar analitik schyotlardan farq qiladi.

Subschyotlar rasmiy ravishda schyotlar rejasida keltiriladi, analitik schyotlar esa schyotlar rejasida keltirilmasdan korxonada tomonidan hisobga kiritilib, ularda buxgalteriyaning birlamchi ma'lumotlari hisobga olinadi.

Balans va buxgalteriya schyotlari to'g'risida gap borar ekan, shuni e'tiborga olish kerakki, balans moddalarining nomlari buxgalteriya schyotlarining nomlariga to'g'ri kelmaydi. Lekin buxgalteriya schyotlaridagi o'zgarishlar balans moddalarining o'zgarishida o'z aksini topadi. Buxgalteriya schyotlaridagi o'zgarishlar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

Birinchi guruh o'zgarishlar korxonada mablag'lari va ularning manbalarini ko'paytiradi. Demak, balans valyutasi ko'payadi.

Ikkinchi guruh o'zgarishlar korxonada mablag'lari ularning manbalarini kamaytiradi, natijada balans valyutasi ham kamayadi.

Uchinchi guruh o'zgarishlar balans valyutasini o'zgartirmasdan, balans bir xil mablag' moddalarini kamaytirib, boshqa moddalarini ko'paytirishi mumkin. Masalan, korxonada omboridan tayyor mahsulot iste'molchilarga jo'natildi va korxonada hisob-kitob schyotidan naqd pul olinib kassaga topshirildi.

Pirovardida to'rtinchi o'zgarishlar ham balans valyutasini o'zgartirmaydi, lekin korxonada mablag'larining bir xil manbalarini kamaytiradi, boshqa manbalarining qoldiqlarini ko'paytiradi. Masalan, bankdan kredit olib, ta'minlovchilar bilan sotib olingan xomashyo bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Ma'lumki, tuziladigan balanslarning shakllari juda ko'p. Ular quyidagi nuqtai nazardan tuzilishi mumkin: tuzish vaqti; manbalar; ma'lumotlar hajmi; faoliyatni ifodalash; mulk shakllari; ob'yektni ifodalash; tozalanganlik.

Tuzish vaqti nuqtai nazardan balans: kirish, joriy, tugatish-tarqatish, bo'lish, birlashtirish balanslari bo'lishi mumkin.

Kirish balansini korxonaning paydo bo'lib, faoliyat boshlashiga tuziladi hamda korxonada o'z faoliyatini qancha mablag'lar bilan va qanday mablag'lardan foydalanib boshlayotganini ko'rsatadi.

Joriy balanslar — korxonalar butun faoliyati mobaynida tuziladi, ular yillik va choraklik bo'lishi mumkin.

Tugatish balansini korxonada tugatilishi munosabati bilan tuziladi, bo'lish va birlashtirish balanslari esa korxonalar bo'linayotganda, birlashtirilayotganda tuziladi.

Balans tuzish manbalari nuqtai nazaridan balanslar uch xil yo'l bilan tuziladi:

- inventar balanslar — ilgari faoliyat kechirgan korxonada asosida uning mulkini invertizatsiya qilib, yangi korxonada barpo etishda, korxonaning mulk va xo'jalik yuritish shakllari o'zgartirilganda tuziladi;

- kitob balanslar — buxgalteriya kitoblarida aks etilgan ma'lumotlar bo'yicha

tuziladi;


- bosh balanslar — korxonalarining mol-mulklarini inventarizatsiya qilish va buxgalteriya kitoblarida aks ettirilgan ma'lumotlarga asoslanib tuziladi.

Foydalanilgan ma'lumotlarga nisbatan balans yolg'iz va yig'ma bo'lishi mumkin. Yolg'iz balans alohida korxonalar uchun tuziladi, yig'ma balanslar esa bir qancha korxonalar balanslarini umumlashtirish asosida hamma korxonalar uchun yagona balans sifatida tuziladi. Korxonalar faoliyati nazarda tutilsa, balanslar korxonaning asosiy faoliyati bo'yicha va noasosiy, ya'ni korxonaning qo'shimcha faoliyati bo'yicha balanslar tuzilishi mumkin. Asosiy faoliyat bu korxonaning nizomida ko'rsatilgan faoliyat shaklidir.

Bozor munosabatlari davrida mulki har xil shaklda bo'lgan korxonalar barpo etiladi. Davlat korxonalari bilan birga xususiy, shirkat, aktsiyadorlar, qo'shma korxonalar faoliyat olib boradi. Demak, mulk shakllari nuqtai nazaridan ham balanslar tuzilishi mumkin. Haqiqatni aks ettirish nuqtai nazaridan esa, balanslar mustaqil va bo'lak balanslar bo'lishi mumkin. Mustaqil balanslar yuridik shaxs sifatida faoliyat kechirayotgan korxonalar bo'yicha tuziladi. Bo'lak balanslar esa, bu korxonalar tarkibidagi alohida bo'lak korxonalarining — ishlab chiqarishi bo'yicha tuziladi.

Buxgalteriya balansida o'z ifodasini topgan korxonalar mablag'lari har xil bo'lishi mumkin. O'z navbatida bu mablag'larning manbalari ham har xil bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Avvalambor, korxonalar mablag'lari immobilizatsiya shaklida, ya'ni uzoq muddatli aktivlar shaklida va harakatchan aylanma aktivlar shaklida bo'lishi hamda, ular o'z navbatida har xil turlarga bo'linishi mumkin. Bular quyidagi ko'rinishga ega:




**1-chizma.**

Uzoq muddatli aktivlar bir qancha ishlab chiqarish davri foydalaniladigan mablag‘lar bo‘lib, ular, demak, darhol naqd pulga aylanmaydigan mablag‘lardir.

Harakatchan mablag‘lar, ya’ni joriy aktivlar esa bir ishlab chiqarish davrida foydalanadi va ular, demak, darhol naqd pulga aylanishi mumkin.

Korxonalar mablag‘larining manbalari korxonaga tegishli manbalar va qarz manbalari, ya’ni majburiyatlar shaklida bo‘lishi mumkin. Ular ham o‘z navbatida har xil manba turlariga bo‘linadi. Bularni quyidagi 2-chizma tasvirida ko‘rishimiz mumkin. Korxonalar mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojlari mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan qat’iy nazar, avvalambor, ularga tegishli manbalar hisobidan qoplanishi lozim va qolgan qismi tashqaridan jalb etilgan qarz-majburiyatlar hisobidan qoplanishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, qarz manbalari uzoq va qisqa muddatli, banklardan olingan kredit shaklida yoki boshqa tashkilotlardan, korxonalaridan olingan qarzlardan hamda ularga kreditorlik qarzlari shaklida bo‘lishi mumkin.



## 2-chizma.

Buxgalteriya nazariyasining rivojlanishi, iqtisodiy tahlil usullarini takomillashtirilishi xalq xo‘jaligining rivojlanish bosqichlarida hisob va tahlil oldiga yangi vazifalar qo‘yilishi munosabati bilan korxonalar buxgalteriya balansining tuzilishi takomillashib bormoqda.

S.Q.Turning<sup>1</sup> ma'lumotlariga qaraganda 30-yillarning oxirida korxonalar balansining tuzilishi quyidagicha bo'lgan:

#### **Aktiv**

1. Asosiy va mavhum umumiy mablag'lar.
2. Me'yorlashtirilgan mablag'lar (korxonaga tegishli va kreditlashtirilgan).
3. Kapital ta'mirlashdagi mablag'lar.
4. Hisob-kitobdagi mablag'lar va boshqa aktivlar.

#### **Passiv**

1. Korxonaga tegishli mablag'lar va ularga tenglashtirilgan mablag'lar.
2. Qisqa muddatli bank kreditlari.
3. Kapital ta'mirlash uchun xarajat manbalari.
4. Boshqa passivlar.

Balans aktivining birinchi bo'limida asosiy vositalar, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish, mavhum umumiy mablag'lar, korxonaning ichki hisob-kitoblari va fondlarga ajratmalar ko'rsatilardi.

Aktivning ikkinchi bo'limida materiallar, xomashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlarning ombordagi qoldig'i va ta'minlovchilar ifodalangan edi.

Uchinchi bo'limda tugallangan va tugallanmagan kapital ta'mirlash hamda pudratchilar bilan hisob-kitob ko'rsatilardi.

Aktivning to'rtinchi bo'limida esa, tovarlarning qiymati, pul mablag'lari va hisob-kitobdagi mablag'lar o'z aksini topardi.

Balans passivining birinchi bo'limida korxonalar fondlarini moliyalashtirishga ketgan mablag'lar, uzoq muddatga olingan kreditlar, kreditorlik qarzlari va korxonalar foydasi ko'rsatilar edi.

Ikkinchi bo'limda korxonaning xomashyo materiallariga, tugallanmagan ishlab chiqarishga va tayyor mahsulotga bo'lgan ehtiyojlarini qoplash uchun olingan bank kreditlari ko'rsatilardi.

Uchinchi bo'limda kapital ta'mirlashni moliyalashtirishga ketgan mablag'lar, amortizatsiya fondi, pudratchilar bilan hisob-kitoblar kapital ta'mirlashni bajarish uchun olingan bank ssudalari ko'rsatilgan.

Passivning to'rtinchi bo'limida kreditorlar, maxsus fondlar zaxiralar va maqsadli moliyalashtirishga ketgan mablag'lar ko'rsatilar edi.

Ko'rinib turibdiki, bu davrda to'rt bo'limli korxonalar balansi tuzilardi. Keyingi paytlarda besh bo'limli balans tuzilgan va ko'p yillar foydalanilgan. Bu balans quyidagi shaklda bo'lgan:

#### **Aktiv**

1. Asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlar.
2. Me'yorlangan aylanma mablag'lar.
3. Pul mablag'lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlar.
4. Kapital mablag'lari va xarajatlar.
5. Asosiy podani shakllantirishga ketgan xarajatlar.

---

<sup>1</sup> Татур С.К. Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий. - М., 1940.

## **Passiv**

1. Korxonaga tegishli mablag'lar manbalari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar.

2. Me'yorlangan aylanma mablag'lari uchun olingan kreditlar.

3. Banklardan olingan har xil kreditlar, hisob-kitoblar va boshqa passivlar.

4. Kapital qurilish mablag'larining manbalari.

5. Asosiy podani shakllantirishga ketgan xarajatlarni moliyalashtirish,

Shuni ta'kidlash kerakki, yangi balans tizimida faqat bo'limlarning soni, ularning nomlari o'zgarishi bilan birga balans bo'limlarining mazmuni, tarkibi ham o'zgardi.

Balans aktivining birinchi bo'limida asosiy va mavhum umumiy vositalardan tashqari, yana aylanma mablag'larini tarmoq miqyosida qayta taqsimlash, korxonada foydasi, tovar-moddiy resurslarini arzonlashtirish va korxonada zararlari ko'rsatilgan.

Ikkinchi bo'limda xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, sotib olingan yarim fabrikatlar, yoqilg'i, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, past qiymatli va tez eskiradigan mol, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va tovarlar aks ettirilgan.

Uchinchi bo'limda pul mablag'lari, foydalanilgan, uzoq muddatga olingan bank kreditlari, jo'natilgan tovarlar, debitorlik qarzlari ishchi va xizmatchilar bilan hisob-kitoblar ifodalangan.

Balans passivining birinchi bo'limida korxonaning nizom fondi, asosiy vositalarning eskirish summasi, me'yorlangan aylanma mablag'larini ko'paytirish maqsadida budjetdan olingan mablag'lar, shu maqsadda banklardan olingan ssudalar, davlat dotatsiyasi, buyurtmachilardan olingan avanslar ko'rsatilar edi.

Ikkinchi bo'limda esa korxonada mablag'larining aylanmasi uchun olingan ssudalar, moddiy resurslar uchun olingan ssudalar, tayyor mahsulot va tovarlar ifodalangan.

Uchinchi bo'limda hisob-kitob hujjatlari ustidan olingan ssudalar, shartnomalar, aylanma mablag'larni vaqtincha to'ldirib turish uchun olingan avanslar, ta'minotchilar bilan hisob-kitoblar uchun olingan ssudalar, uzoq muddatga olingan kreditlar, kreditorlik qarzlari, maxsus fondlar, amortizatsiya fondi va boshqa passivlar ko'rsatilgan.

Besh bo'limli balansdan keyin uch bo'limli balansga o'tildi bu balansdan 1993 yilgacha foydalanilgan. Bu balans quyidagi shaklda tuzilgan edi:

### **Aktiv**

1. Asosiy vositalar va qo'yilmalar.

2. Kreditlar va xarajatlar.

3. Pul mablag'lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlar.

### **Passiv**

1. O'z mablag'lari manbalari.

2. Kreditlar va boshqa qarzga olingan mablag'lar.

3. Hisob-kitoblar va boshqa passivlar.

Ma'lumki, 1993 yil 1 yanvardan ilgari tuziladigan balans-brutto bo'lib, 1993 yildan boshlab balans-nettoga o'tildi. Bu balans ham uch bo'limli bo'lib, quyidagi shaklda tuzilar edi:



### **Aktiv**

1. Asosiy vositalar va boshqa aylanmadan tashqari aktivlar.
2. Zaxiralar va xarajatlar.
3. Pul mablag‘lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlar.

### **Passiv**

1. O‘z mablag‘lari manbalari.
2. Uzoq muddatli passivlar.
3. Hisob-kitoblar va boshqa passivlar.

Pirovardida 1997 yil 1 yanvardan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997 yil 15 yanvarda qabul qilingan buyrug‘iga binoan yana balansning yangi shakli qabul qilindi. Endi ilgari tuzilgan uch bo‘limli balansdan ikki bo‘limli balansga o‘tildi. Bu balans quyidagi shaklda tuzildi:

### **Aktiv**

1. Uzoq muddatli aktivlar.
2. Aylanma aktivlar.

### **Passiv**

1. O‘zlik mablag‘larning manbalari.
2. Majburiyatlar.

2004 yil yanvar oyidan boshlab buxgalteriya balansining yana yangi shakli qabul qilindi. Unda balansning bo‘limlari quyidagicha berilgan.

### **Aktiv**

1. Uzoq muddatli aktivlar.
2. Joriy aktivlar, shu jumladan: tovar-moddiy zaxiralari; pul mablag‘lari, jami.

### **Passiv**

1. O‘z mablag‘lari manbalari.
2. Majburiyatlar, jami, shu jumladan: uzoq muddatli majburiyatlar; joriy majburiyatlar.

1997 yilda qabul qilingan balans shaklidan bu balansning farqi shundan iboratki, balansning aktiv tomonida korxonalar aylanma mablag‘lari moddiy zaxiralar ya’ni moddiy aylanma mablag‘lar va pul aylanma mablag‘lari, balansning passiv tomonida esa ilgorigidek ikkiga bo‘lib ko‘rsatilgan uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar. Bu o‘zgarishlar korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishni ancha yengillashtiradi.

Shunday qilib, korxonalar balansining tuzilish shakli doimo takomillashtirilgan. Bu takomillashtirish quyidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, balansning ham aktiv, ham passiv bo‘yicha bo‘limlari soni o‘zgarib, korxonalar mablag‘lari va ularning manbalari konsentratsiyalanib bordi.

Ikkinchidan, balans bo‘limlarining nomlari o‘zgarib, yangi nomlarda mablag‘lar va ularning manbalari mazmuni to‘liqroq aks ettirila boshlandi.

Uchinchidan, korxonalar balanslarining o‘zgarishida alohida ishlab chiqarish tarmoqlarining mablag‘lari va ularni qoplovchi manbalarining xususiyatlari e’tiborga olingan.

To‘rtinchidan, xalq xo‘jaligi bozor munosabatlariga o‘tkazilishi munosabati bilan korxonalar balansini bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan yo‘nalishda takomillashtirilmoqda.

Beshinchidan, moliyaviy tahlil o‘tkazishni yengillashtirish maqsadida balans-

bruttodan, balans-nettoga o‘tilgan.

Oltinchidan, respublika jahon bozor iqtisodiyotiga kirib borar ekan, mamlakatda hisob va hisobotini tashkil qilish xalqaro andozalarga o‘tkazilayapti.

### **Tayanch iboralar**

Moliyaviy holat – korxonaning moliyaviy resurslarini mavjudligi, joylashganligi, holati va foydalanish darajasi. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili – korxonalar barcha moliyaviy resurslarining joylashganligini, holati va foydalanish darajasi ifodalanishi. Moliyaviy tahlil manbalari – Moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisobotlar shakllari.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Korxonalar moliyaviy holati tahlilini boshqarish tizimidagi xususiyatlari.
2. Qanday sabablarga ko‘ra bozor munosabatlari davrida korxonalarining moliyaviy holatini ahamiyati oshib boradi.
3. Moliyaviy tahlilga nisbatan talablar nimalardan iborat.
4. Moliyaviy holatni tahlil qilish oldiga qanday vazifalar qo‘yadi?
5. Moliyaviy tahlil qanday shakllarda o‘tkaziladi.
6. Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy tahlilning xususiyatlari nimalardan iborat.
7. Moliyaviy tahlil qanday bosqichlardan iborat.
8. Qanday moliyaviy hisobotlar moliyaviy tahlilning manbalari hisoblanadi.
9. Buxgalteriya balansini shakliy o‘zgarishi nimalardan iborat.
10. Korxonalar moliyaviy holati tahlilini tariflang.

## **II bob. MOLIYAVIY TAHLIL TAJRIBASIDAN. KORXONA MOLIYAVIY HOLATINI UMUMIY BAHOLASH**

### **2.1. Xorijiy mamlakatlar moliyaviy tahlili tajribasidan**

O‘zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o‘ta borib, ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini ko‘rmoqda. Respublika tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanyapti, respublikaga xorijiy mamlakatlarning sarmoyalari jalb etilmoqda. O‘zbekiston jahon bozor iqtisodiyotiga kirib bormoqda.

Bu holat xorijiy mamlakatlarda bozor munosabatlarining shakllanishi, bozor iqtisodiyotini barpo etish tajribasini va bozor iqtisodiyoti samaradorligini ko‘tarish yo‘llarini o‘rganishni talab etadi. Shu jumladan, firma va korxonalar tomonidan boshqaruv tizimi yaxshi o‘rganilishi kerak. Bu borada firma va korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Xorijiy mamlakatlarning bu sohadagi tajribasini o‘qish, o‘rganish to‘g‘risida gap borar ekan, respublikada bu tajribadan mexanik ravishda foydalanishga intilish mavjud. Shubha yo‘qki, xorijiy mamlakatlarda shakllangan moliyaviy tahlil usullari har tomonlama o‘rganilib, undan keng foydalaniladi. Lekin shu bilan mamlakatimizda shakllangan usullarni inkor qilmasdan, ulardan ham keng foydalanish lozim. Buning uchun xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribasini yaxshi o‘rganishimiz va bilishimiz kerak.

Ma‘lumki, o‘tgan davrda — sobiq sho‘ro paytida korxonalarining xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyatini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish muammolari markazlashtirilgan shaklda, markazda chop etiladigan darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarda, yo‘riqnomalarda, Ittifoq miqyosida chiqariladigan «Buxgalteriya hisobi», «SSSR moliyalari», «Statistika axborotlari», «Pul va kredit» jurnallarida yoritilardi hamda bu manbalar ittifoqdosh respublikalarga tarqatilar edi.

Sobiq ittifoq respublikalari mustaqil davlatlarga aylantirilgandan keyin, har bir davlat o‘z yukini o‘zi ko‘tara boshladi, bozor munosabatlariga o‘tish muammolarini ham o‘zlari yecha boshladi. Bundan tashqari, ilgari shakllangan iqtisodiy-sotsial aloqalar buzilib ketdi va respublikalararo munosabatlar murakkablashib, markazda, Rossiya Federatsiyasida chop etilayotgan iqtisodiy adabiyot, jurnallarni respublikalarga tarqatilishi qiyinlashib qoldi. Demak, xorijiy mamlakatlarning moliyaviy tahlil borasidagi tajribalarini respublikamizga yetib kelishi muammoga aylandi.

Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tashabbuskorligi bilan boshlangan ishni olqishlab, qo‘llab-quvvatlash lozim. Qo‘mita o‘zining haftalik «Soliq va bojxona xabarnomalari» ro‘znomasida «Yosh hisobchi maktabi» va «Bosh hisobchi akademiyasi» sahifalarini tashkil etib, xorijiy mamlakatlarning bozor munosabatlari davrida hisob va hisobotni tashkil qilish, moliyaviy tahlilni o‘tkazish borasidagi tajribalari yoritila boshlandi. Shular qatori respublikada qilinayotgan ishlar ham yoritilyapti.

Respublika bozor munosabatlariga o‘tar ekan, respublikada korxonalarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilish uslubi bozor munosabatlariga moslab barpo etilishi lozim. Buning uchun albatta, xorijiy mamlakatlarning, ayniqsa, Rossiya

Federatsiyasining tajribasini sinchiklab o'rganib, undan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shu maqsadda bizga yetib kelgan iqtisodiy manbalardan foydalanib, moliyaviy tahlil bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribasi, undan foydalanish imkoniyatlari to'g'risida qisqa to'xtalmoqchimiz.

1995 yil fevral oyida «Soliq va bojxona xabarnomalari» ro'znomasida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi A.H Shoalimovning «Moliyaviy holatning tahlili» nomli maqolasi chop etildi. Bu maqolada muallif moliyaviy tahlilning maqsadi, sub'yekt va ob'yektlari, ma'lumot manbalari to'g'risida o'z fikrlarini bergan.

Muallif o'z maqolasida xorijiy mamlakatlarning tajribasiga asoslanib moliyaviy tahlilni asosiy yo'nalishlarini yoritgan. Bular quyidagilardan iborat:

- ichki va tashqi tahlil;
- boshqaruv tahlili - umuman firma faoliyati bo'yicha;
- tadqiqot tahlili — mehnat unumdorligi va moddiy xarajatlar tahlili;
- funktsional tahlil – firmaning kichik bo'limlarini tahlil qilish.

1995 yil «Soliq va bojxona xabarnomalari» ro'znomasining 22-sonida Toshkent moliya instituti dotsenti, O'zbekiston Respublikasi hisobchilar va auditorlar Assotsiatsiyasining boshqarma a'zosi, iqtisod fanlari nomzodi M. To'laxo'jaevaning maqolasi chop etilgan. «Moliyaviy hisobot va moliyaviy koeffitsientlarning tahlili» nomli maqolada «O'zbekistonda buxgalteriya hisobi islohoti» loyihasi materiallaridan foydalanib, xorijiy mamlakatlarning moliyaviy tahlil borasidagi tajribasi yoritilgan.

Maqolada bayon etilganidek, moliyaviy tahlil quyidagi besh yo'nalishda o'tkaziladi:

- mutlaq ko'rsatkichlar tahlili, ya'ni korxonalarining mablag'lari va ularning manbalari hajm ko'rsatkichlari;
- gorizontall tahlil - korxonalar hisobotida ifodalangan moddalarning bir davr davomida mutlaq va nisbiy o'zgarishlari;
- vertikal tahlil - korxonalar mablag'larini tarkibiy o'zgarishlari tahlili;
- trend tahlili - korxonalarining moliyaviy holatini ifodalovchi alohida ko'rsatkichlarning o'zgarish yo'nalishlari tahlili;
- moliyaviy koeffitsientlar tahlili, bunda moliyaviy koeffitsientlar sifatida likvidlik, rentabellik, ishchanlik, bozorga oid faollik, korxonalar kapitalining tarkibiy ko'rsatkichlaridan foydalanilgan. Yuqorida ifodalangan tahlil yo'nalishlarida moliyaviy tahlil jarayonining mantiqiyligi ko'rsatilmagan.

Moliyaviy koeffitsientlar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

- taqsimlanish koeffitsientlari;
- muvofiqlashtirish koeffitsientlari.

Maqolada foydalanilgan ko'rsatkichlarning mazmuniga qaralganda birinchi guruh koeffitsientlari taqsimlanish koeffitsientlari emas, tarkibiy koeffitsientlar, ikkinchi guruh moliyaviy koeffitsientlarni muvofiqlashtirish koeffitsientlari emas, nisbat koeffitsientlari, deb atalsa maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Chunki taqsimlanish koeffitsientlari to'g'risida gap borar ekan, korxonalar mulluki tarkibida, asosiy va aylanma mablag'larning salmoqlari, umumiy aylanma

mablag'larning tarkibida moddiy va pul aylanma mablag'larni salmoqlari, korxonalar mablag'larining manbalari tarkibida o'zlik mablag'larining manbalari, majburiyatlarining salmoqlari va boshqa tarkibiy ko'rsatkichlar tahlil etiladi. Muvofiqlashtirish koeffitsientlari to'g'risida gap borar ekan, bu yerda moliyaviy mustahkamlik, balans likvidligi va korxonalar rentabelligi ko'rsatkichlari tahlil etiladi. Demak, bu yerda korxonalar moliyaviy holatining har xil shakllari, yo'nalishlari tahlil qilinadi. Lekin bu ko'rsatkichlar nisbiy ko'rsatkichlar sifatida aniqlanadi.

Masalan, moliyaviy mustahkamlik koeffitsienti — korxonalar moddiy mablag'lari bilan ularni qoplovchi manbalar o'rtasidagi o'zaro nisbat, balans likvidlik koeffitsienti — korxonalar aylanma mablag'lari bilan korxonaning qisqa muddatli majburiyatlari o'rtasidagi nisbat va hokazo.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasiga asosan moliyaviy koeffitsientlar moliyaviy tahlilda keng foydalaniladi. Bir xil mamlakatlarda moliyaviy koeffitsientlar 80 tagacha bo'lishi mumkin.

M. To'laxo'jaevning maqolasida moliyaviy koeffitsientlarning quyidagi tasnifi tavsiya etilgan:

1. Likvidlik koeffitsientlari: joriy likvidlik; muhlatli likvidlik; mutlaq likvidlik; pok aylanma-mablag'lar.

2. Ishchan aktiv koeffitsientlar: aktivlar aylanishi; debitorlik qarzlarning aylanishi; kreditorlik qarzlarning aylanishi; moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining aylanishi; operatsiya davrining uzunligi.

3. Rentabellik koeffitsientlari: aktivlar rentabelligi; realizatsiya rentabelligi; korxonaga tegishli mablag'lar rentabelligi.

4. Kapitalning tarkibiy koeffitsientlari: moliyaviy bog'liqlik koeffitsienti; mulk koeffitsienti; kreditorni muhofaza qilish koeffitsienti; bitta aktsiyaning foydalilik koeffitsienti.

5. Bozorga oid-aktiv koeffitsientlar: baho-foyda nisbati; aktsiyaning daromadligi; aktsiyaning balansdagi qiymati; to'langan dividendlarning salmog'i.

Tavsiya «Qilinayotgan moliyaviy koeffitsientlar tasnifi (klassifikatsiyasi) katta ahamiyatga ega, lekin:

Birinchi, keltirilgan moliyaviy koeffitsientlarda korxonalar moliyaviy holatining hamma yo'nalishlari ifodalangan emas.

Ikkinchi, ma'lumki moliyaviy koeffitsientlar hamma vaqt nisbiy ko'rsatkichlar shaklida ifodalanadi. Muallif esa moliyaviy koeffitsientlar tarkibiga mutlaq ko'rsatkichlarni ham qo'shib yuborgan, masalan, «pok aylanma mablag'lar», «operatsiya davrining uzunligi» va hokazo.

Keltirilgan tasnifda moliyaviy koeffitsientlarning ketma-ket ifodalanishi amalga oshirilmagan. Masalan, korxonalar moliyaviy holatini umumiy tahlildan, bu holatning alohida yo'nalishlarini tahlil qilish, yoki aksincha.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodchilar uyushmasining «Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlarining tarkibi» nomli o'quv materiallarida yuqorida keltirilgan moliyaviy koeffitsientlar tasnifi to'liq qaytarilgan.

1996 yili Toshkentda o'tkazilgan «Raqobatlilik tahlili» mavzusidagi Xalqaro ilmiy seminarda moliyaviy koeffitsientlar - «Moliyaviy koeffitsientlar»ga va «Nisbiy

ko'rsatkichlar»ga bo'lingan. Bu tasnifga e'tibor bersak no nisbiy moliyaviy ko'rsatkichlar ham bo'lishi mumkin degan xulosaga kelinadi.

1996 yili Jahon banki, O'zbekiston Respublikasi Davlat mol-mulk qo'mitasi va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan o'tkazilgan «Korxonalarni xususiylashtirish va qayta qurish» mavzuidagi Xalqaro ilmiy seminarda ham korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun foydalanilgan ko'rsatkichlar tizimi muhokama qilindi. Bu seminarda moliyaviy tahlil uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi tavsiya etildi:

1. Firmalarning rahbariyati uchun: yalpi foyda; sof foyda; operatsion xarajatlar; doimiy, o'zgaras xarajatlarni qoplash uchun ajratilgan mablag'larni korxonada foydasidagi salmog'i; operatsion richag.

2. Firmalarning egalari uchun: korxonaga tegishli kapitalning foyda me'yori; oddiy aksiyalar foyda me'yori; bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foyda; bitta aksiyaga tushgan naqd pullar; bitta aksiyaning narxi o'sishi; aksionerlarning umumiy foydasi.

3. Firmalarning investorlari uchun: qoplash koeffitsienti; «tanqidiy» baholash koeffitsienti; korxonada mulkning to'satdan sotiladigan qiymati.

Yuqorida ko'rilgan moliyaviy tahlil ko'rsatkichlari uzoq xorijiy mamlakatlar - AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyaga taalluqlidir.

Sobiq Ittifoq tarqatilishi bilan Rossiya Federatsiyasi ham biz uchun xorijiy mamlakatga aylanib qoldi. Rossiya Federatsiyasi moliyaviy tahlil bo'yicha boy tajribaga ega. V.V. Petrov va V.V. Kovalevlarning 1993 yili chop etilgan «Balansni qanday o'qish kerak» nomli monografiyasida buxgalteriya hisoboti, buxgalteriya hisobotini tahlil qilish usuli yoritilib, moliyaviy tahlil quyidagi ikki bosqichda o'tkazilishi tavsiya etilgan:

Birinchi bosqichda moliyaviy tahlil quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy holatining dastlabki tahlili, korxonalarining umumiy moliya-xo'jalik faoliyatini baholab, balansdagi «kasal» moddalarni aniqlash.

2. Korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va baholash. Buning uchun korxonada balans ham vertikal, ham gorizontal tahlil qilinib, korxonada mulkning holati, korxonada balansining likvidligi, korxonaning moliyaviy mustahkamligi tahlil etiladi. Bu va bundan keyingi ko'rilgan manbalar Rossiya Federatsiyasida rus tilida chop etilgan.

3. Korxonalarining moliya-xo'jalik yakunlarini tahlil qilish, baholash. Buning uchun korxonalarining bozorga oid aktivligi, rentabelligi, bozor va investitsiya aktivligi tahlil etiladi.

Ikkinchi bosqichda moliyaviy tahlil quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Korxonada mol-mulki tahlili. Buning uchun balans valyutasi, asosiy vositalarning aktiv qismi salmog'i, asosiy vositalarning eskirishi, tiklanish va safdan chiqish koeffitsientlari tahlil etiladi.

2. Korxonada balansining likvidligini baholash. Buning uchun korxonaga tegishli aylanma mablag'lar hajmini qoplash koeffitsienti, balansning tez va mutlaq likvidligi, aylanma mablag'larning butun korxonada aktivlaridagi salmog'i hamda joriy aktivlarda ishlab chiqarish zaxiralarining salmog'i tahlil etiladi.

3. Korxonaning moliyaviy mustahkamligini baholash. Buning uchun korxonaga kapitalni jamlash, moliyaviy erksizlik koeffitsientlari, uzoq muddatga olingan qarzlarning tarkibi, korxonaga tegishli va qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat ko'rsatkichlari tahlil etiladi.

4. Ishchanlik aktivligini baholash. Buning uchun realizatsiya tushumi, balans bo'yicha foyda, mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, ishlab chiqarish zaxiralarini, hisob-kitobdagi mablag'larning aylanishi, operatsiya davrining uzunligi, korxonaga tegishli kapital va asosiy kapital iqtisodiy o'sishining mustahkamlik koeffitsientlari tahlil etiladi.

5. Korxonaga rentabelligini baholash. Buning uchun sof foyda, mahsulot rentabelligi, asosiy kapital, korxonaga tegishli kapital rentabelligi, korxonaga mablag'larini qoplash ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

6. Korxonaning bozorga oid aktivligini baholash. Buning uchun aksiyaga daromad, aksiyalar qiymati, aksiya rentabelligi, dividend daromadi, aksiyaning kotirovka koeffitsientlari aniqlanadi.

Ko'rinib turibdiki, V.V. Petrov va V.V. Kovalev tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlar korxonalarining moliyaviy holatini har tomonlama tahlil etish imkoniyatini beradi, lekin shu bilan birga tavsiya etilgan ko'rsatkichlar tarkibida korxonalar moliyaviy holatini baholashga, tahlil qilishga bevosita taalluqli bo'lmagan ko'rsatkichlar foydalanilgan.

E.A. Markaryan va G.P. Gerasimenkolarning "Moliyaviy tahlil" kitobida uch shakldagi tahlil qurilgan. Bu moliyaviy yakunlar tahlili, moliyaviy holati tahlili, ishchan aktivlik tahlili.

Q. Xoldervikning «Korxonalar moliya-iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish» nomli monografiyasida moliyaviy tahlilni quyidagi bosqichlar orqali o'tkazishni tavsiya qilgan: moliyaviy hisobot; ishchan aktivlik; iqtisodiy jihatlar; moliyaviy jihatlar; iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilish andozasi; iqtisodiy va moliyaviy tahlil.

N.A. Rusak, V.A. Rusaklarning «Moliyaviy tahlil asoslari» kitobida moliyaviy tahlil quyidagi yo'nalishlarda olib borilgan:

- korxonalarining moliyaviy holati tahlili;
- foydani shakllanishi tahlili;
- foydani taqsimlash tahlili;
- mahsulotni realizatsiya qilish va shartnomalarning bajarilish tahlili;
- mahsulot tannarxi tahlili.

V.G. Artemenko va M.V. Bellandirlarning «Moliyaviy tahlil» kitobida korxonalarining moliyaviy holati quyidagi bosqichlarda o'tkazilgan:

1. Korxonalarining moliyaviy faoliyatini umumiy baholash-buxgalteriya balansi valyutasini tahlili, balansni gorizontaal va vertikal tahlili.

2. Moliyaviy mustahkamlik tahlili — moliyaviy mustahkamlikni mutlaq ko'rsatkichlari, moliyaviy mustahkamlik koeffitsientlari.

3. Likvidlik tahlili - balans likvidligi, likvidlik ko'rsatkichlari.

4. Aylanma kapitalni tahlili — aylanma mablag'larning aylanishi, joriy aktivlarning moliyalashtirish manbalari, pul mablag'lari harakatining tahlili, debitorlik qarzlari tahlili, tovar-moddiy resurslarning aylanishini tahlil qilish.

5. Korxonalarining moliyaviy natijalari tahlili — moliyaviy natijalarni

shakllanishi, yalpi foyda tahlili, foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish.

6. Rentabellik ko'rsatkichlari tahlili — rentabellik ko'rsatkichlarini iqtisodiy ifodalash, rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili.

7. Bankrotlik imkoniyatini baholash — bankrotlik holatining paydo bo'lish sabablari, korxonalarining o'z qarzlarini to'lashga qodir emasligi ko'rsatkichlarini va bankrot bo'lish imkoniyatlarining istiqbolini aniqlash.

8. Tadbirkorlik xavfi tahlili — xavf, tavakkalchilikni tahlil qilishning umumiy tamoyillari, tavakkalchilikni tahlil qilish usullari, xavfni, tavakkalchilikni kamaytirish usullari.

9. Inflyatsiya va uni moliya tavsifiga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishga ta'siri — inflyatsiyaning korxonalar moliyaviy holatiga ta'siri, inflyatsiya ta'sirini bartaraf qilish usullari, inflyatsiya paytida moliyaviy qarorlarni qabul qilish.

Rossiya Federatsiyasi korxonalarining iqtisodiy faoliyatini ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazardan tahlil qilish muammolari bo'yicha mashhur iqtisodchi olimlardan A.D. Sheremet va Ye.V. Nechashevlarning 1999 yilda chop etilgan «Moliyaviy tahlil usuli» nomli o'quv qo'llanmasida korxonalarining moliyaviy holati tahlili quyidagi yo'nalishlarda o'tkaziladi.

O'quv qo'llanmaning boshlanish qismida moliyaviy tahlilning maqsadi, mazmuni, moliyaviy va boshqaruv tahlil shakllari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy ko'rsatkichlarni shakllanishi, moliyaviy tahlilning ma'lumotlar bazasi yoritilgan:

Bevosita moliyaviy tahlilni quyidagi yo'nalishlarda o'tkazish tavsiya etilgan:

1. Moliyaviy yakunlar tahlili — foyda, rentabellik tahlili, mahsulotlar tannarxi, korxonalar xarajatlari tahlili.

2. Korxonalar kapitali rentabellik ko'rsatkichining tahlili — rentabellik darajasi omillarining tahlili, asosiy vositalardan, nomoddiy aktivlardan, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari.

3. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili — korxonalar aktiv va passivlari tahlili, moliyaviy mustahkamlik, balans likvidligi tahlili.

4. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini majmua ravishda baholash va reyting baholash muammolari yoritilgan.

A.D. Sheremet va Ye.R. Nechashevlarning bu kitobda moliyaviy tahlil bilan bog'liq bo'lgan yangi muammolar ko'rilgan va mualliflar bozor munosabatlarining talablarini to'liqroq e'tiborga olishgan. Lekin bu nashrda:

- moliyaviy tahlil bosqichlari mantiqiy ravishda ketma-ket yoritilmagan;

- moliyaviy holat va korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlari aralashtirib yuborilgan;

- moliyaviy tahlilning hamda moliyaviy holatning asosiy ko'rsatkichlariga kamroq e'tibor berilgan;

- foyda va rentabellik ko'rsatkichlari o'zaro bog'langan ravishda ko'rilmagan.

Sobiq Ittifoq respublikalararo iqtisodiy, sotsial aloqalarni yangichasiga tashkil qilish, bozor munosabatlarini shakllanishi davrida bizga yetib kelgan xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganib chiqib, tahlilni o'tkazish borasidagi iqtisodiy adabiyotlarini o'rganib chiqib, uni umumlashtirib quyidagi xulosalarga keldik:

- xorijiy mamlakatlarda bu borada bozor munosabatlarining talablariga javob bera borib, keng ravishda ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda;



- shakllanayotgan moliyaviy tahlil usullarida korxonalarining bozor munosabatlari davridagi moliyaviy holatini har tomonlama tahlil qilish uchun kerakli ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqarilmoqda;

- respublikamiz sharoitlariga moslab shakllanayotgan moliyaviy tahlil usulini batafsil ishlab chiqishda xorijiy mamlakatlarning tajribasidan, albatta, foydalanish imkoniyatlari mavjud;

- lekin xorijiy mamlakatlarda foydalanilayotgan tajribadan mexanik ravishda foydalanish maqsadga muvofiq emas. Chunki xorijiy mamlakatlar tajribasida hali oxirgacha yechilmagan muammolar, kamchiliklar bor;

- ko'pchilik xorijiy mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti to'liq shakllangan, respublikamizda esa bozor munosabatlari endi shakllanmoqda. Bu holat moliyaviy tahlil jarayonida e'tiborga olinishi kerak.

- undan tashqari respublikamizda sobiq Ittifoq davridan tortib, hozirgi davrda ham korxonalarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilish borasida bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari, olimlarimizning qo'lga kiritgan yutuqlari kam emas. Ularni inkor qilish va ulardan voz kechish, albatta, noto'g'ri bo'ladi.

Demak, kelgusida moliyaviy tahlil usullarini takomillashtirishda ham o'zimizda mavjud tajribadan, ham xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish lozim.

## **2.2. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida moliyaviy tahlil uslubining ishlab chiqilishi**

Korxonalarining umumiy iqtisodiy, xo'jalik faoliyatini, jumladan, moliyaviy faoliyatini tahlil qilish muammolari odatda ikki yo'nalishda olib boriladi:

Birinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, maqolalar, qo'llanmalar, monografiyalar chop etiladi.

Ikkinchidan, moliya vazirligi va korxonalarining moliyaviy faoliyatidan manfaatdor bo'lgan boshqa organ, tashkilotlar tomonidan moliyaviy tahlilning me'yoriy asoslari, uslubiy ko'rsatmalari barpo etiladi.

Bu odat hozirgi paytda ham respublikada davom etayapdi. Ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilyapti, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilyapti. Bu ishlar bozor munosabatlariga moslangan ravishda respublikada boshlangan bo'lsada, lekin bajarilgan ishlardan moliya tahlil uslubini hali batafsil shakllangan deb bo'lmaydi.

Toshkent Moliya instituti tahlil kafedrasining mudiri iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Akramjon Ibrahimovning o'zbek tilida chop etilgan «Moliyaviy tahlil» nomli risolasida moliyaviy tahlilni o'tkazish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tasnifi tavsiya etilgan:

1. Korxonaning moliyaviy faoliyati tahlili: balans tahlili; mol-mulk tarkibi tahlili; korxonaga mablag'larining manbalari tahlili; moliyaviy mustahkamlik tahlili; qarzlarni qaytib berish qadrining tahlili; korxonaga mablag'lari harakati tahlili.

2. Korxonaga moliyaviy faoliyati yakunlari tahlili: balansdagi foydaning tarkibiy va dinamik tahlili; mahsulot realizatsiyasidan olingan foyda va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili; korxonaning boshqa daromadlari va xarajatlari tahlili; korxonaning yalpi va sof foydasi tahlili; korxonaga rentabelligi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili; korxonaga foydasining taqsimlanishi tahlili. Ko'rinib

turibdiki, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar tasnifida korxonalar moliyaviy holatining hamma yo'nalishlari shakllari ifodalangan emas. Masalan, balans likvidligi va hokazo.

1995 yili Moliya vazirligi tomonidan har oyda chop etiladigan «O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari» to'plamida A.N. Li va S.I. Shevchenkolarning «Korxonalar moliyaviy tahlilining asosiy tamoyillari» nomli maqolasida moliyaviy tahlil uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etilgan:

1. Moliyaviy holatni umumiy baholash.

2. Moliyaviy barqarorlikni (mustahkamlikni) tahlil etish koeffitsientlari, likvidlik koeffitsientlari, korxonalar kapitalining tarkibiy koeffitsientlari, moliyaviy mustahkamlikni baholash mezonlari.

3. Korxonalar faoliyati samaradorligining tahlili korxonalar haqiqiy samaradorligi, rentabellik koeffitsientlari, bozorga oid aktivlik koeffitsientlari, korxonalar potentsial ko'rsatkichlari, ishchanlik-aktivlik koeffitsientlari hamda korxonalar xarajatlariga, foydasiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

Mualliflar tavsiyalarida moliyaviy holatning mustahkamligini barqarorlik bilan, moliyaviy mustahkamlikni balans likvidligi bilan aralashtirgan va korxonalar moliyaviy faoliyatini hamma shakllari emas, bir qism shakllari, yo'nalishlari ifodalangan.

Moliyaviy tahlil muammolari bo'yicha respublikada ko'zga ko'ringan iqtisodchi olimlardan, Samarqand kooperativ institut professori, iqtisod fanlari doktori I.T. Abduraimovning ham rus, ham o'zbek tilida chop etilgan «Moliyaviy hisobotni qanday o'qish va tahlil qilish kerak» nomli monografiyasida moliyaviy tahlil quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Moliyaviy hisobot, uning tavsifi. Bu bosqichda moliyaviy hisobotning mohiyati, mazmuni, tarkibi quriladi, buxgalteriya balansi moliyaviy tahlilning asosiy manbai sifatida ifodalangan, buxgalteriya balansining boshqa moliyaviy hisobot shakllari bilan aloqasi yoritilgan va buxgalteriya balansini haqiqiylikni va balansni tahlil qilishga tayyorlash muammolari yoritilgan.

2. Moliyaviy hisobotga asoslanib, korxonalar moliyaviy faoliyatini tahlil qilish yoritilgan. Bu bosqichda bozor munosabatlari davrida moliyaviy tahlilning tutgan o'rni, korxonalar balansining tarkibini tahlil qilish, korxonalar mablag'larining holati va foydalanish darajasi tahlili, korxonalar mablag'larining manbalari tahlili, qarzlarni qaytib berish qadri, moliyaviy mustahkamlik, debitorlik, kreditorlik qarzlarni tahlil qilish, shaxmat balansini tuzish muammolari, korxonalar faoliyati moliyaviy yakunlarini tahlil qilish masalalari ko'rilgan.

Muallif tavsiyalarida bozor munosabatlari talablari kengroq e'tiborga olingan va moliyaviy tahlil ketma-ket o'tkazilishi ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasi yosh iqtisodchi olimlaridan iqtisod fanlari nomzodlari M.K. Paradaev, B.I. Isroilovlar 1999 yili «Moliyaviy tahlil» nomli uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomini chop etdilar. Bu to'planma uch qismdan iborat.

Birinchi qism, «Moliyaviy tahlilning nazariy asosi»da moliyaviy tahlilning mazmuni, tarkibi, shakllari va maqsadi ko'rilgan.

Ikkinchi qism, «Korxonalar moliyaviy holatining tahlili»da korxonalar iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish, korxonalar mablag'larining alohida

turlari tahlili, korxonalarining o'zlik va tashqaridan olingan mablag'lar tahlili, korxonada barqarorligi, likvidligini, moliyaviy mustahkamligini, bankrotlikni va bozor faoliyatining tahlil qilish ko'rsatkichlari ko'rilgan.

Uchinchi qism, «Moliyaviy natijalar tahlili»da moliyaviy yakunlar tahlili, korxonada foyda tahlili, rentabellikni, savdo, aksiyadorlik jamiyatlarida foyda va rentabellik ko'rsatkichlari tahlil etilgan.

Qo'llanmada berilgan tahlil bosqichlari bo'yicha moliyaviy tahlilda foydalanadigan ko'rsatkichlarning va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tasnifi, ko'rsatkichlarni aniqlash usullari, olingan natijalarni chizma jadvallarda ifodalanishi yaqqol ko'rsatib berilgan.

Respublikada moliyaviy tahlil usulini shakllanishida kerakli uslubiy-me'yoriy materiallarni tayyorlash ham o'z o'rnini topgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan kerakli materiallar ishlab chiqarilmoqda. Yuqorida aytilganidek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o'z buyrug'i bilan 1997 yil 15 yanvarda yangi moliyaviy hisobot tizimini tasdiqladi, 1998 yil 26 iyulda qabul qilingan buyrug'iga binoan korxonalar balansiga ilova bo'lmish "Moliya-iqtisodiyot holati to'g'risida ma'lumotnoma"ni (26-shakl) to'ldirish buyurtnomasi tasdiqlandi.

1997 yil 17 aprelda korxonalar bankrot va sanatsiya masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hukumat komissiyasi tomonidan «Korxonaning moliyaviy tahlili bo'yicha uslubiy tavsiyalar» qabul qilinib, unda quyidagi moliyaviy tahlil shakllari o'tkazilishi ko'zda tutilgan:

1. Moliyaviy holatning tahlili — balans valyutasi dinamikasini, balans passivlari tarkibini, asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlar va moliyaviy natijalar tahlili.

2. Moliyaviy mustahkamlikning tahlili - zaxira va xarajatlarni shakllantirish manbalari bilan ta'minlanganligi, moliyaviy mustaqillik koeffitsientlari, o'z va qarzga olingan mablag'larning o'rtasidagi nisbat, zaxira va xarajatlarni o'z manbalari bilan ta'minlanganligi, qarzlarni qaytib berishga qodirlik koeffitsienti.

3. Korxonalarining iqtisodiy holati tahlili — qarzlarni qaytarib berish qobiliyatini tiklash koeffitsienti, faoliyatni manevrlash koeffitsienti, korxonaning ishlab chiqarish mol-mulkini real qiymati koeffitsienti.

4. Korxonalar rentabelligi tahlili - mahsulotlarni realizatsiya qilishning real koeffitsienti, asosiy vositalarning rentabellik koeffitsienti, permanent kapitalning rentabellik koeffitsienti, kapitalning umumiy aylanishining rentabellik koeffitsienti.

Bu uslubiy ko'rsatmalarda korxonalar moliyaviy faoliyatining shakllari, yo'nalishlari to'liq ravishda o'z ifodasini topmagan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mol-mulk qo'mitasi tomonidan 1996 yili tasdiqlangan «Korxonalar moliyaviy holatining tahliliy uslubi»da moliyaviy holat quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinishi tavsiya etilgan:

1. Moliyaviy holatni umumiy baholash, balans valyutasining dinamikasi, korxonalar mablag'lari va ularning manbalari ko'rsatkichlari.

2. Korxonaning moliyaviy mustahkamligi tahlili — moliyaviy mustahkamlikning mutlaq, me'yoriy, nome'yoriy va inqiroz shakldagi ko'rsatkichlari, korxonaning o'zlik va qarzga olingan mablag'lari o'rtasidagi nisbat, tashqaridan olingan qarzlarni uzoq muddatlik koeffitsienti, o'z mablag'larining

manevrlik koeffitsienti, asosiy vositalar va moddiy aylanma mablag‘lar qiymatining reallik koeffitsienti.

3. Korxonalar tomonidan olingan qarzlarni qaytarish qadri (likvidlik) ko‘rsatkichlari — balans likvidligining mutlaq, o‘tish va umumiy koeffitsientlari, sof foyda koeffitsienti.

Bu yerda ham tavsiya etilgan moliyaviy holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar to‘liq emas.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mol-mulk qo‘mitasi qoshida tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy nochorlik masalalari bo‘yicha qo‘mitaning 1997 yilda tasdiqlangan «Qishloq xo‘jalik korxonalarini moliyaviy holatini tahlil qilishning uslubiy tavsiyalari»da quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanilgan:

1. Moliyaviy holatini tahlili — balansning aktiv va passiv tomonidagi ma‘lumotlar tahlili.

2. Moliyaviy mustahkamlik tahlili — moliyaviy mustahkamlikning mutlaq, me‘yoriy, nome‘yoriy va inqiroz darajasidagi ko‘rsatkichlari.

3. Moliyaviy koeffitsientlar tahlili — qarzlarni qaytarish qadri, o‘zlik va qarzga olingan mablag‘lar o‘rtasidagi nisbat, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsientlari.

4. Moliyaviy yakunlar tahlili — mahsulot va korxonalar aktivlari rentabelligi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlar va topshirish kontseptual asoslari tasdiqlandi, respublikada moliyaviy tahlilga taalluqli bo‘lgan milliy andozalardan «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot», «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan daromadlar», «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot» va boshqa me‘yoriy materiallar qabul qilindi. 1999 yil 27 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi qoshidagi korxonalarining iqtisodiy holatsizligi masalalari bo‘yicha qo‘mita tomonidan «Korxonalarining iqtisodiy noholatsizligini aniqlash mezonlari tizimi» tasdiqlandi.

Yuqorida ko‘rilgan me‘yoriy, uslubiy ko‘rsatkichlar bozor munosabatlarining talablariga javoban ishlab chiqildi. Ular korxonalarini moliyaviy faoliyatini tahlil qilish uslublarini shakllanishida, albatta, katta ahamiyatga ega. Lekin respublika miqyosida bu ishlarni muvofiqlashtirilmaganligi sababli moliyaviy tahlil muammolarini ishlab chiqishda, tadqiqot ishlarini olib borishda yechilmagan masalalar, o‘zaro kelishmovchiliklar hali kam emas. Bu muammolarni muvofiqlashtirish, aniq nazorat o‘tkazish Respublika Moliya vazirligi tomonidan amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Chunki, bu borada Moliya vazirligi tomonidan bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, vazirlik tomonidan har oyda «O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari» nomi bilan materiallar to‘plami chop etilayotir. 1995 yil bu to‘plamga 3-ilova sifatida «Moliyaviy hisob va hisobotning asosiy shakllari va ko‘rsatkichlari bo‘yicha eslatma» chiqarildi. Bu eslatma moliyaviy hisob va hisobot mazmuni bilan birga moliyaviy tahlilda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etilgan:

1. Likvidlik koeffitsientlari: joriy likvidlik; shoshilinch likvidlik; mutlaq likvidlik; sof aylanma mablag‘lar.

2. Ishchanlik-aktivlik koeffitsientlari: aktivlarning aylanib turishi; debitorlik qarzlarning aylanib turishi; kreditorlik qarzlarni aylanib turishi; moddiy ishlab

chiqarish zaxiralarini aylanib turishi; operatsion sikli muddati.

3. Rentabellik koeffitsientlari: aktivlar rentabelligi; realizatsiya rentabelligi; o'zlik kapitali rentabelligi; bir aktsiyaning foydaliligi.

4. Kapitalning tarkibiy koeffitsientlari: moliyaviy nomustaqillik koeffitsienti; mulk koeffitsienti; kreditorlarni himoyalash koeffitsienti;

5. Bozor-aktivlik koeffitsientlari: narx-foyda nisbati; aktsiyaning daromadliligi; aktsiyaning balansdagi narxi; to'langan dividendlarning salmog'i.

1996 yil «O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari» to'plamining 5-ilovasida davlat tasarrufidan chiqarilgan boshqa mulk shakllariga aylantirilgan korxonalar investitsiya loyihalari va kredit resurslarni olish uchun biznes-rejalar tuzish to'g'risidagi tavsiyalar chop etilgan. Bu tavsiyalarda korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish maqsadida quyidagi moliyaviy koeffitsientlar tasdiqlangan:

- joriy likvidlik koeffitsienti;
- moliyaviy nomustaqillik koeffitsienti;
- mulk mustaqillik koeffitsienti;
- moliyaviy mustahkamlik koeffitsienti;
- manevrlik koeffitsienti;
- asosiy fondlarni tiklash koeffitsienti;
- aktivlar rentabelligi;
- realizatsiya rentabelligi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi materiallaridan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarilgan tavsiyalarda bozor munosabatlarining talablari e'tiborga olingan. Demak, respublikada korxonalarini moliyaviy holatini tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy-uslubiy muammolari bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot va me'yoriy materiallarni tayyorlash bo'yicha zaruriy ishlar amalga oshirilyapti. Lekin respublikada shakllanayotgan moliya tahlili uslubi hali to'liq bozor munosabatlarining talablariga javob bormaydi.

Yuqorida tahlil qilingan, umumlashtirilgan, respublikada mavjud iqtisodiy adabiyot va ishlab chiqilgan me'yoriy materiallar bizni quyidagi xulosalarga olib keldi:

- korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish bo'yicha bajarilgan ishlarda har xil yo'nalishlar tavsiya etilgan;

- moliyaviy tahlilni o'tkazish uchun organ va tashkilotlar har xil shaklda bo'lgan ko'rsatkichlarni tavsiya etganlar;

- ko'p qilingan tavsiyalarda korxonalar moliyaviy faoliyatini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birga moliyaviy holatga aloqasi bo'lmagan ko'rsatkichlar ham foydalanilgan;

- tavsiya etilgan ko'rsatkichlar tizimida, tahlil etish bosqichlarida hamma vaqt ham asoslangan ketma-ketlik talablari e'tiborga olinmagan;

- korxonalarining moliyaviy holati tahlili va korxonalarining iqtisodiy noholatsiz yoki iqtisodiy holatning qoniqarsizligi alohida ko'rilmagan, yoritilmagan.

Bu xulosalar shuni tasdiqlaydiki, respublikada moliyaviy tahlil muammolari ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazardan yana tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha bu borada kerakli ishlarni davom ettirishda, bajarishda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

1. Moliyaviy tahlilda hisob va hisobot tizimini bozor munosabatlariga moslab takomillashtirishni, ularni xalqaro andozalarga o'tkazishni e'tiborga olish, chunki bu ishlar moliyaviy tahlil axborot manbalarini boyitadi va foydalanilayotgan ko'rsatkichlar tarkibini o'zgartiradi.

2. O'tkazilayotgan moliyaviy tahlil respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatga bo'ysundirgan, respublikada ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllanishiga yordam berishi kerak.

3. Respublikada bozor munosabatlari tobora shakllanib borar ekan, moliyaviy tahlil usuli ham tobora takomillashib borishi lozim.

4. Respublikada bozor munosabatlari shakllanib borar ekan, korxonalararo raqobat munosabatlari ham rivojlanib boradi. Demak, moliyaviy tahlilda tahlil qilinayotgan korxonaning moliyaviy faoliyati boshqa korxonalar, ayniqsa, raqobatdagi korxonalar moliyaviy holati bilan hamma vaqt taqqoslanib turilishi lozim.

5. Albatta, moliyaviy tahlilning maqsadi korxonalarining moliyaviy faoliyatini yaxshilashdan iborat ekan, moliyaviy tahlil hamma vaqt, demak, kerakli tavsiya va takliflar bilan yakunlanishi maqsadga muvofiq.

6. Bozor munosabatlari shakllanishi davrida korxonalar va umuman xalq xo'jaligining boshqaruv tizimi yangidan barpo etilishi lozim. Moliyaviy tahlil korxonalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishda asosiy qurollardan, omillardan biriga aylanishi kerak.

Kelgusi boblarda xorijiy mamlakatlarning moliyaviy tahlilini o'tkazish tajribasidan foydalanib, respublikada shakllanayotgan moliyaviy tahlil usuliga asoslanib, bozor munosabatlari davrida moliyaviy tahlil oldiga qo'yilgan vazifalarni e'tiborga olib, korxonalar moliyaviy faoliyatini kompleks ravishda tahlil etish usullari qurilgan.

Shu maqsadda moliyaviy tahlilni quyidagi bosqichlarda o'tkazish yoritiladi:

- korxonalarining moliyaviy faoliyatini umumiy baholash;
- korxonalarining moliyaviy mustahkamligi tahlili;
- buxgalteriya balansining likvidlik tahlili;
- aylanma mablag'larning aylanib turishi va korxonalarining moliyaviy holati;
- mahsulotlarning tannarxi va korxonalarining moliyaviy holati.

### **2.3. Korxonalarining moliyaviy holatini umumiy baholash**

Korxonalarining moliyaviy faoliyati kompleks jarayon bo'lib, u ko'rsatkichlar tizimi yordamida ifodalanadi. Korxonalarining moliyaviy faoliyati tahlili korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasi hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, korxonalarini moliyaviy faoliyatini tahlil qilishning birinchi bosqichi moliyaviy holatni umumiy baholash hisoblanadi. Bu bosqichda korxonalar faoliyatini hajmi, umumiy samaradorligi, korxonalarining o'zoq muddatli va aylanma aktivlari, korxonalarining majburiyatlari tahlil etiladi. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Korxonalar faoliyatining umumiy mutlaq ko'rsatkichlari.

2. Korxonalar faoliyatining umumiy nisbiy ko'rsatkichlari.
3. Korxonalar mablag'larining dinamik va tarkibiy ko'rsatkichlari.
4. Korxonalar majburiyatlarining dinamik va tarkibiy ko'rsatkichlari.
5. Korxonalar zaxiralari va xarajatlarining dinamik va tarkibiy ko'rsatkichlari.

Tahlil qilinayotgan korxonalar har xil bo'lishi mumkin jumladan:

- xajmi bo'yicha — mayda, o'rta va yirik korxonalar, bu holat moliyaviy tahlilning yo'nalishlari va chuqurligiga ta'sir ko'rsatadi;
- har xil texnologiyaga ega bo'lib, turli tarmoqlarga tegishli bo'ladi. Bu holat korxonalarni asosiy va aylanma mablag'lar bilan ta'minlanishiga tasir ko'rsatadi;
- korxonalar o'zining mablag'larga bo'lgan ehtiyojini o'zi va majburiyatlar hisobidan har xil darajada qoplashi mumkin.

Ular hammasi korxonalarining umumiy, iqtisodiy, moliyaviy faoliyatiga, albatta, ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli moliyaviy holatni tahlil qilishda umumiy baholash o'tkaziladi.

Har bir tahlilchi, auditor korxonalarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilishdan oldin uning umumiy faoliyatini ko'rib chiqadi. Buning uchun umumiy mutlaq ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

## 2-jadval.

### Korxonalar faoliyatining umumiy mutlaq ko'rsatkichlari (mingso'm)

№		Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika (foiz)
1.	Korxonaning mol-mulki qiymati	27868	30550	109,6
	Shu jumladan;			
	Asosiy fondlar	15833	17687	111,7
	Aylanma fondlar	12035	12863	106,9
2.	Ishlab chiqarish fondlar	3819	4034	105,6
3.	Yalpi mahsulot	678968	611071	90,0
4.	Sotilgan mahsulot	428441	400431	93,5
5.	Soliq to'lanmasdan oldingi foyda	10953	10405	95,0

Jadval ma'lumotlarini tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi:

- tahlil qilinayotgan korxonalar respublika korxonalarining yirik jamoalaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega;
- bozor munosabatlarining og'irligiga qaramasdan korxonaning moddiy resurslari o'sib bormoqda;
- lekin korxonada ishlab chiqarilgan, sotilgan mahsulotning hajmi kamaydi, olinadigan foyda qisqardi, Demak, korxonada umuman moliyaviy holat og'irlashdi;
- tahlil qilinayotgan korxonalar yirik korxonalardan ekan, uning moliyaviy holati boshqa korxonalarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va shu sababli bu korxonaning moliyaviy holati har tomonlama tahlil etilishi lozim.

Moliyaviy tahlilda umumiy nisbiy ko'rsatkichlar korxonalar faoliyatining moliyaviy holatini umuman ifodalashga yordam beradi. Umumiy nisbiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

1. Korxonalar mol-mulki qiymatining har bir so'miga nisbatan ishlab chiqarish yalpi mahsulot va yalpi foyda, ya'ni soliqlar to'lanmasdan oldingi foyda.

2. Korxonalar ishlab chiqarish fondlarining, ya'ni asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarining har bir so'miga nisbatan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot va yalpi foyda.

Korxonalar mol-mulking asosiy qismini ishlab chiqarish fondlari tashkil etadi va ulardan foydalanish darajasi korxonalarining moliyaviy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar korxonalar mol-mulki, ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

### 3-jadval

#### Korxonalar faoliyatining umumiy nisbiy ko'rsatkichlari (ming so'm)

№		Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika (faiz)
1.	Korxonalar mol-mulking o'rtacha qiymati	27868	30550	109,6
2.	Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati	25867	28041	108,4
3.	Yalpi mahsulot	678968	611071	90,0
4.	Yalpi foyda	10953	10405	95,0
5.	Mol-mulk qiymatining har bir so'miga:			
	- ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot;	24,3	20,0	82,3
	- olingan yalpi foyda.	39,0	34,0	87,2
6.	Ishlab chiqarish fondlarining har bir so'miga:			
	- ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot;	26,2	21,8	83,2
	- olingan yalpi foyda.	42,0	37,0	88,1

Joriy davrda o'tgan davrga nisbatan korxonalar faoliyatining umumiy samaradorligi pasaygan. Korxonalar mol-mulking har bir so'miga nisbatan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot 17,7 foizga, olingan yalpi foyda 12,8 foizga kamaygan. Shu davrda korxonalar ishlab chiqarish fondlarining har bir so'miga nisbatan ishlab chiqarilgan: yalpi mahsulot 16,8 foizga, olingan yalpi foyda 11,9 foizga kamaygan, demak, korxonada mol-mulkdan, ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi pasaygan, lekin ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi pasayishi mol-mulkka nisbatan kamroq.

Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholashda ularning mablag'lari dinamikasini va tarkibi o'zgarishini tahlil etish katta ahamiyatga ega, chunki, mablag'larning dinamik va tarkibiy o'zgarishi moliyaviy holatni aniqlovchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shu ko'rinishda korxonalar mablag'lari manbalarining dinamik va tarkibiy o'zgarishlar ko'rsatkichlari, korxonalar tovar-moddiy zaxiralari ya'ni moddiy aylanish mablag'larning dinamik va tarkibiy hamda tahlil natijalariga binoan tegishli xulosalar qilinadi va tavsiyalar beriladi.

### Tayanch iboralar

Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish tajribasi – xorijda va respublikada moliyaviy tahlilni o'tkazish uchun foydalaniladigan usullar.



Moliyaviy koeffitsientlar – xorijiy mamlakatlarda moliyaviy tahlilda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi.

Korxonalar mablag‘lari – buxgalteriya balansida o‘z ifodasini topgan korxonalar uzoq muddatli va joriy aktivlari.

Korxonalar mablag‘larining manbalari – korxonaga tegishli manbalar va korxonalar majburiyatlari uzoq muddatli va joriy majburiyatlar.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Xorijiy mamlakatlarning korxonalarini moliyaviy holatini tahlil qilish uslubiyatining xususiyatlari.

2. O‘zbekistonda korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish usulining o‘ziga xos xususiyatlari.

3. Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishning oldiga qo‘yiladigan talablar va tamoyillar nimalardan iborat.

4. Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish qanday bosqichlarda amalga oshirilishi lozim.

5. Korxonalarining moliyaviy holatini umumiy baholashda qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi va ular qanday aniqlanadi.

### **III BOB. KORXONALARNING MOLIYAVIY MUSTAHKAMLIGI VA BALANS LIKVIDLIGI TAHLILI**

#### **3.1. Korxonalar moliyaviy mustahkamligi tahlili**

Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholashdan keyingi moliyaviy tahlil bosqichi korxonalar moliyaviy mustahkamligi tahlili hisoblanadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishdan oldin moliyaviy mustahkamlikning mazmuni to'g'risida kelishib olishimiz lozim.

Iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlikka va balans likvidligiga bir xil ta'rif berishadi va aniqlanayotgan ko'rsatkichni yoki moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya'ni korxonalar olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy mustahkamlik va balans likvidligi — bu o'z mazmuniga ega bo'lgan ikki xil moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtai nazardan ifodalaydi.

Moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichi kompleks sifatidagi ko'rsatkich bo'lib, u:

- korxonalar moliyaviy mustahkamligi davrida ishlab chiqarishni saqlanib qolish imkoniyatini;
- korxonalar mablag'laridan erkin ravishda foydalanish imkoniyati borligini;
- ishlab chiqarishni to'xtatmasdan, mahsulot sotish imkoniyati borligini;
- korxonalar faoliyatining umumiy mustahkamligini;
- korxonalar faoliyatiga turli boshqaruvlik qilinayotganligini;
- korxonalarda mavjud moliyaviy resurslarni bozor munosabatlarining talablariga javob berishligini;
- korxonalar moliyaviy zaxira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qoplovchi manbalar borligi darajasini ko'rsatadi.

Demak, moliyaviy mustahkamlik korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Moliyaviy mustahkamlikka korxonalar moliyaviy butun xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatining hamma yo'nalishlari ta'sir ko'rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta'sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: korxonada ishlab chiqarishning barqarorligi; ishlab chiqarishni tashkil qilish; ishlab chiqarishni boshqarish; korxonalar moliyaviy fondining hajmi; korxonalar xarajat va daromadlarining nisbati; o'zlik mablag'larining manbalari va korxonalar majburiyatlarining nisbati; korxonalar aylanma mablag'lari tarkibi.

Korxonalar o'z faoliyatida boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lar ekan, korxonalar moliyaviy mustahkamligiga tashqi omillar ham ta'sir etadi, ular tarkibida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- korxonalar moliyaviy tovarlar bozoridagi holati;
- korxonalar moliyaviy eksport va import aloqalari;
- korxonalar moliyaviy boshqa korxonalar, ta'minlovchi va iste'molchi korxonalar bilan aloqalarda bo'lishi, ishga oid aktivligi;
- bank organlari, debitor va kreditorlar bilan aloqalar;
- respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, soliq, narx-navo va moliya, bank siyosati, texnika, texnologiya siyosati.

Shunday qilib, moliyaviy mustahkamlikka korxonada ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatadi ekan, lekin shu bilan birga moliyaviy mustahkamlik darajasi korxonalarining hozirgi va kelgusi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliyaviy mustahkamlikning darajasiga binoan korxonada quyidagi muammolar yechiladi: korxonada xodimlariga o'z vaqtida ish haqi to'lab turish; ta'minlovchi va iste'molchi korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni kerakli darajada olib borish; banklardan olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarib turish; davlat byudjetiga tegishli soliq va to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazib turish; boshqa korxonada va tashkilotlardan olingan qarzlarni o'z vaqtida qaytarib turish; korxonada xodimlarini moddiy rag'batlantirib borish; korxonada jamoasining sotsial rivojlanishini ta'minlash; korxonada texnikaviy darajasini ko'tarib turish.

Demak, moliyaviy mustahkamlik bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta'sirining yakuni bo'lib, u o'z navbatida korxonada faoliyatining ko'p tomonlariga ta'sirini ko'rsatadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishni boshlamasdan oldin yana bir muammoni ko'rib chiqishimiz kerak.

Bu moliyaviy mustahkamlikning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy mustahkamlikni o'lchash, baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimini chegaralab olish lozim.

V.G. Artemenko, M.V. Bellendirlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik korxonada moliyaviy resurslarini shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Lekin ma'lumki, korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligi ularning umuman moliyaviy holati bo'lsa, moliyaviy mustahkamligi korxonalar faoliyatining faqat bir shaklini, yo'nalishini ifodalaydi.

A.D. Sheremet, R.S. Sayfulinlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik va to'lashga qodirlik bir mazmunga ega bo'lib, to'lashga qodirlik moliyaviy mustahkamlikning tashqari ko'rinishini ifodalaydi.

Xuddi shu fikrga A.N. Li va S.I. Shevchenkolar ham ega. Ular o'z maqolalarida moliyaviy mustahkamlik koeffitsientining tahlili to'g'risida to'xtalib, to'lashga qodirlik ko'rsatkichini tahlil etganlar.

Haqiqatda moliyaviy mustahkamlik va to'lashga qodirlik har xil mazmunga ega bo'lib, bu moliyaviy ko'rsatkichlar turli usulda aniqlanadi. Undan tashqari A.N. Li va S.I. Shevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni moliyaviy barqarorlik deb qabul qilishgan. Bu ham noto'g'ri. Moliyaviy barqarorlik bu – korxonalarining moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini, pasaymasligini ifodalaydi.

Moliyaviy mustahkamlik to'g'risida gap borar ekan, yana ikkita narsaga e'tibor berish lozim. Bu moliyaviy mustahkamlikning mezonini va moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. A.N. Li va S.I. Shevchenkolarning fikricha, moliyaviy mustahkamlik mezonini aniqlanishi lozim va bu mezon sifatida korxonalarining bankrot bo'lishi ehtimolligining past darajasi tavsiya etiladi. Avvalambor moliyaviy mustahkamlik darajasiga binoan korxonalarining bankrot bo'lish ehtimolligi aniqlanmaydi.

Fikrimizcha, moliyaviy ko'rsatkichlarni, shu jumladan, moliyaviy mustahkamlik bo'yicha ham mezonlar emas, optimal yoki me'yoriy darajalari tasdiqlanishi kerak.

Iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlik darajasini o'lchash uchun har xil

ko'rsatkich tizimlari tavsiya etiladi. A.N. Li va S.I. Shevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni aniqlash uchun korxonaning kapitalining tarkibiy ko'rsatkichlari, V.G.Artemenko va M.V.Bellendirlar esa moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishda nisbiy ko'rsatkichlar bilan birga mutlaq ko'rsatkichlardan ham foydalanishgan.

Moliyaviy mustahkamlik albatta, nisbiy ko'rsatkichlar, zaxiralar va xarajatlar hamda ularni qoplovchi manbalar nisbati bilan aniqlanishi lozim. Zaxira va xarajatlar bilan ularni qoplovchi manbalar o'rtasidagi farq — mutlaq ko'rsatkichlar moliyaviy mustahkamlikni ko'rsatmaydi. Ulardan faqat moliyaviy mustahkamlikni aniqlash uchun axborot bazasi sifatida foydalaniladi. Shunday qilib, iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishda eng asosiy muammo, uning iqtisodiy mazmuni bo'yicha iqtisodchi olimlar o'rtasida hali kelishuv yo'q. Moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiyati bo'yicha ham iqtisodiy adabiyotda xatoliklarga yo'l quyishgan. Masalan A.N.Li va S.I.Shevchenkolar tomonidan moliyaviy mustahkamlikning bir guruh ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi.

$$1. \text{ Mulkiy mustaqillik} = \frac{\text{Korxonaning kapitali}}{\text{Korxonaning aktivlarining o'rtacha qiymati}} \quad (\text{avtonomiya})$$

ko'effitsienti

$$2. \text{ Moliyaviy mustahkamlik} = \frac{\text{Korxonaning kapitali} + \text{uzoq muddatli majburiyatlar}}{\text{Korxonaning aktivlarining o'rtacha qiymati}}$$

ko'effitsienti

$$3. \text{ Moliyaviy ko'effitsienti} = \frac{\text{Ichki kapital}}{\text{Korxonaning aktivlarining o'rtacha qiymati}}$$

Ma'lumki, dinamik ko'rsatkichlar ikki shaklda bo'lishi mumkin. Bu lahzalik (momentlik) dinamik ko'rsatkichlar va oraliq dinamik ko'rsatkichlar.

Lahzalik dinamik ko'rsatkichlar — aniq kunga keltirilgan ma'lumotlar, ya'ni har oy, har chorakni birinchi kuniga, yilni boshiga, oxiriga keltirilgan ma'lumotlar.

Oraliq dinamik ko'rsatkichlar - har bir davrga aniqlangan o'rtacha miqdor ma'lumotlar, ya'ni o'rtacha bir oyga, bir chorakka, bir yilga.

Hodisalarni miqdoriy ifodalash qonuniyatining talablaridan biri shundan iboratki, lahzalik dinamik ko'rsatkichlar asosan lahzalik dinamik ko'rsatkichlari bilan, oraliq dinamik ko'rsatkichlar intervallik ko'rsatkichlari bilan taqqoslanishi lozim. Ko'rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni aniqlash uslubi bu talabga javob bermaydi.

Ko'rsatkichlarning maxrajida korxonaning aktivlarining o'rtacha qiymati keltirilgan, ya'ni oraliq dinamik ko'rsatkichlar. Bu ko'rsatkichlarning sur'atida esa, o'zlik kapitalning, uzoq muddatli majburiyatlar, ishchi kapitalning qoldiq summalari (davrning boshiga yoki oxiriga), ya'ni lahzalik dinamik ko'rsatkichlar keltirilgan. Demak, foydalanilayotgan ko'rsatkichlar noto'g'ri hisoblangan. Pirovardida, moliyaviy mustahkamlik tahlilini boshlamasdan avval yana bir muammoni qurishga to'g'ri keladi. Bu — moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishda foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimidir. Bu borada ham mualliflarning tavsiyalari turlicha.

A.N.Li, S.I.Shevchenkolar quyidagi ko'rsatkichlar tizimini tavsiya etganlar:

- joriy likvidlik (qo'llash); muhitli likvidlik; mutlaq likvidlik; harakatchan likvidlik; ishchi kapitalning foydalanish samaradorligi; qarzdorlik dinamik omili;

moliyaviy qaramlik: o'zlik-qaramlik; moliyaviy mustahkamlik; monevrganlik; bankrotlik koeffitsienti; asosiy vositalarni yangilash; qarzlarni ta'minlanish; kreditorlarni mudofalanganligi koeffitsienti; debitorlik va kreditorlik qarzlarni o'rtasidagi nisbat; aylanma va aylanmadan tashqari mablag'lar o'rtasidagi nisbat.

Ko'rinib turibdiki, tavsiya qilingan ko'rsatkichlar tizimida moliyaviy mustahkamlik keng ravishda quriladi, moliya mustahkamligiga bog'liq bo'lmagan ko'rsatkichlar ham tavsiya etiladi.

A.D.Sheremet, R.S.Sayfulin «Bozor mustahkamligini baholash» sarlavhasi ostida moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimini tavsiya etganlar:- avtonomiya; o'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat; harakatchan va noharakatchan mablag'lar o'rtasidagi nisbat; chaqqon harakat qilish; o'z mablag'lar bilan ta'minlanish; ishlab chiqarish mol-mulk; uzoq muddatga qarz olish; qisqa muddatga olingan qarzlarni; zaxiralar va xarajatlarning shakllanish manbalari koeffitsienti.

Bu mualliflar ham moliyaviy mustahkamlikni keng ravishda ifoda etganlar. V.G.Artemenko, M.V. Bellendir moliyaviy mustahkamlikni tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishgan: o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti; moddiy zaxiralarni o'z mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsienti; o'z kapitalining chaqqon harakat qilish koeffitsienti; doimiy aktivlar indeksi; uzoq muddatga qarz olish koeffitsienti; eskirish koeffitsienti; kapitalning real qiymati koeffitsienti; avtonomiya koeffitsienti; o'zlik va qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat koeffitsienti.

Bu tavsiya qilingan ko'rsatkichlar tizimida bevosita moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar kam bo'lib (bitta-ikkita), ular moliyaviy mustahkamlik darajasini tahlil etish imkoniyatini bermaydi.

I.T. Abdukarimov o'z monografiyasiga moliyaviy mustaqillikni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalangan: avtonomiya; moliyaviy mustahkamlik; moliyaviy qaramlik; o'z kapitalining chaqqonlik; qarzga olingan mablag'larni yiriklashtirish; qarzga olingan o'zlik kapitallar o'rtasidagi nisbat koeffitsienti.

Fikrimizcha bu ko'rsatkichlar tizimi ham moliyaviy mustahkamlikni har tomonlama tahlil qilish imkoniyatiga ega emas.

Yuqorida keltirilgan mualliflarning tavsiyalarini tahlil qilish ba'zan quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchidan, moliyaviy mustahkamlikni mazmuni mualliflar tomonidan har xil ifodalanyapti.

Ikkinchidan, moliyaviy mustahkamlik moliyaviy holatning boshqa yo'nalishlari, shakllari-moliyaviy barqarorlik, balans likvidligi bilan aralashtirilib yuborilmoqda.

Uchinchidan, moliyaviy mustahkamlikni tahlil etish uchun har xil tizimdagi ko'rsatkichlar tavsiya etilmoqda va bu ko'rsatkichlar tarkibida moliyaviy mustahkamlikka aloqasi bo'lmagan ko'rsatkichlar tavsiya etilmoqda.

To'rtinchidan, tavsiya etilgan ko'rsatkichlar mualliflar tomonidan har xil usulda aniqlanadi va bu borada xatoliklarga ham yo'l qo'yilmoqda.

Beshinchidan, qurilgan tavsiyalarda moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichlari asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarga bo'linmayapti.

Ma'lumki, moliyaviy mustahkamlik korxonalarda foydalanmayotgan ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari yoki moddiy aylanma mablag'lar bilan ularni qoplovchi manbalar o'rtasidagi o'zaro nisbatni ta'riflaydi, baholaydi.

Moliyaviy mustahkamlikning har xil shakllarini, har tomonlama tahlil etish uchun ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish lozim, ya'ni:

1. Asosiy ko'rsatkichlar;
2. Qo'shimcha ko'rsatkichlar.

#### **Asosiy ko'rsatkichlar.**

Ma'lumki, moliyaviy mustahkamlik zaxira va xarajatlar, ularni qoplovchi manbalar o'rtasidagi nisbat bilan aniqlanadi. Bu manbalar uch xil bo'lishi mumkin.

#### **1. O'zlik manbalari.**

Korxonada moddiy mablag'larni qoplash uchun umumiy o'z manbalarining bir qismidan foydalanadi. Qolgan qismidan uzoq muddatli aktivlarni qoplash uchun foydalaniladi. Demak, o'z manbalarini aniqlash uchun korxonada umumiy o'z manbalaridan uzoq muddatli aktivlarning qiymatini ayirib tashlashi lozim.

Birinchi manbaning simvoli  $ye^s$ .

**2. O'zlik manbalari va korxonaning uzoq muddatli majburiyatlari.** Demak, o'z manbalariga korxonaning uzoq muddatli majburiyatlari qo'shiladi.

Ikkinchi manbaning simvoli  $ye^t$ .

**3. Manbalarning hammasi, ya'ni o'z manbalari va korxonaning muddatli majburiyatlari.**

Yuqorida ko'rilgan manbalar, ya'ni  $ye^s$ ,  $ye^t$  va  $ye^E$  bilan avval balans shakli bo'yicha "Zaxiralar va xarajatlar", 2004 yilda kiritilgan balans shakli bo'yicha "tovar – moddiy zaxiralar" ya'ni moddiy aylanma mablag'lar bilan ularni qoplovchi manbalar o'rtasidagi nisbatga binoan moliyaviy mustahkamlik to'rt shaklda bo'lishi mumkin:

1. Mutlaq moliyaviy mustahkamlik;
2. Me'yoriy moliyaviy mustahkamlik;
3. Nome'yoriy moliyaviy mustahkamlik;
4. Inqirozga uchragan moliyaviy holat.

Mutlaq moliyaviy mustahkamlik deb shunday vaziyat tushuniladiki, korxonaning moddiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji o'zlik mablag'lar manbalari bilan to'liq qoplanadi va korxonada yana uzoq va qisqa muddatli majburiyatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Demak, korxonada o'z ehtiyojini qoplash bilan birga ortiqcha manbalarga ega, undan ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa ehtiyojlarga foydalanish mumkin. Xulosa: mutlaq moliyaviy mustahkamlik moliyaviy mustahkamlikning eng yuqori darajasi hisoblanadi.

Me'yoriy moliyaviy mustahkamlik shunday vaziyatki, korxonaning moddiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplash uchun o'z mablag'lari manbalari yetishmaydi va shu sababli korxonada uzoq-qisqa muddatli majburiyatlardan foydalanadi. Demak, korxonaning moddiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji bu manbalar bilan qoplangan, uning ko'p ortiqcha mablag'lari bo'lmasligi mumkin. Lekin korxonada me'yoriy ravishda uz faoliyatini davom ettirishi mumkin.

Nome'yoriy moliyaviy mustahkamlikda korxonada og'ir ahvolga tushib qolgan hisoblanadi, korxonaning moddiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini o'z

mablagʻlari manbalari va uzoq muddatli majburiyatlar qoplamaydi, qoplanmagan qismi faqat qisqa muddatga olingan majburiyatlar hisobidan qoplanadi. Bu majburiyatlarni tez fursatda qaytarish lozim. Agar korxonaga oʻz moliyaviy holatini yaxshilash uchun kerakli tadbirlarni amalga oshirmasa, u moliyaviy inqirozga duchor boʻlish arafasida boʻladi.

Inqirozga uchragan moliyaviy holatda korxonaning zaxira va xarajatlarga boʻlgan ehtiyoji butun mavjud manbalardan foydalanilsa ham toʻliq qoplanmaydi.

Yuqorida koʻrsatilgan moliyaviy mustahkamlikning shakllari har xil moliyaviy vaziyatlarda boʻlishi mumkin. Har bir shakl uch vaziyatga ega. Bu vaziyatlarni aniqlash uchun moliyaviy mustahkamlik shakllari boʻyicha yuqorida keltirilgan manbalar “tovar – moddiy zaxiralar” – TMZ bilan taqqoslanadi.

Endi shu vaziyatlarning shakllanishini koʻrib chiqamiz.

### **1. Mutlaq moliyaviy mustahkamlik.**

Bu moliyaviy mustahkamlik boʻlishi uchun korxonaning moddiy aylanma mablagʻlariga boʻlgan ehtiyoji bilan uni qoplovchi manbalar oʻrtasidagi nisbat quyidagi moliyaviy vaziyatlar talablariga javob berishi lozim:

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
3.  $(E^z : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

Keltirilgan moliyaviy vaziyatlar shuni koʻrsatadiki, korxonalar oʻzining moddiy aylanma mablagʻlarga boʻlgan ehtiyojlarini ham oʻz manbalari, ham korxonaga majburiyatlari — uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlilar bilan qoplashi mumkin.

Lekin yuqorida ifodalangan uchta manbalar bilan korxonaning moddiy aylanma mablagʻlariga boʻlgan ehtiyoji oʻrtasidagi nisbat hamma vaziyatlar boʻyicha 100 foizga barobar yoki undan koʻp boʻlishi lozim. Demak, moliyaviy mustahkamlik mutlaq darajada boʻlishi uchun korxonaga ehtiyoji oʻz manbalari bilan toʻliq qoplanishi kerak. Korxonaga shu vaziyatda ham tashqi majburiyat manbalaridan foydalanishi mumkin.

Koʻrinib turibdiki, korxonaga oʻzining moddiy aylanma mablagʻlariga boʻlgan ehtiyojini toʻliq qoplash bilan ortiqcha manbalarga ega boʻlib, undan ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlarda foydalanishi mumkin.

Mutlaq moliyaviy mustahkamlik — moliyaviy mustahkamlikni eng yuqori darajasi, bozor munosabatlariga oʻtilayotgan murakkab, ogʻir shart-sharoitlarda ham mavjud.

### **2. Meʼyoriy moliyaviy mustahkamlik.**

Bu moliyaviy mustahkamlik boʻlishi uchun korxonaning moddiy aylanma mablagʻlarga boʻlgan ehtiyoji bilan uni qoplovchi manbalar oʻrtasidagi nisbat quyidagi moliyaviy vaziyatlar talablariga javob berishi lozim:

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
3.  $(E^z : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

Koʻrinib turibdiki, korxonaning moddiy aylanma mablagʻlarga boʻlgan ehtiyojini qoplash uchun korxonaning oʻzlik manbalari hamda uzoq muddatga olingan qarzlilar yetishmaydi va korxonaga oʻz ehtiyojini qisqa muddatga olingan qarzlilar hisobidan qoplaydi. Maʼlumki, qisqa muddatli qarzlilar bir yil muddatgacha olinadi,

demak, ular yaqin fursatda qaytarilishi lozim.

Nome'yoriy moliyaviy mustahkamlikka uchragan korxonalarni jonlantirish bo'limiga tushib qolgan kasallar bilan taqqoslash mumkin. Bu korxonalarda moliyaviy holatni yaxshilash uchun kerakli tadbirlar amalga oshirilmasa, ularning faoliyati to'xtab qolishi turgan gap.

Hayot shuni tasdiqlayaptiki, murakkab bozor munosabatlari davrida nome'yoriy moliyaviy mustahkamlikka ega bo'lgan korxonalar ko'proq uchrab turibdi.

#### **4. Inqirozga uchragan moliyaviy holat**

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 < 100\%$ .

2.  $(E^t : TMZ) \times 100 < 100\%$ .

3.  $(E^\Sigma : TMZ) \times 100 < 100\%$ .

Inqirozga uchragan moliyaviy holat shuni ko'rsatadiki, na o'zlik manbalari, na uzoq va qisqa muddatga olingan qarzar korxonani moddiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplamaydi. Demak, korxonada o'z faoliyatini mo'tadil ravishda davom etolmaydi. Korxonada o'z majburiyatlaridan qutilish imkoniyatiga ega emas. Bu sharoitda korxonaga kredit bergan banklar, korxonaning ta'minlovchilari, kreditorlari uning ustidan xo'jalik sudiga arizalar topshirib, korxonani bankrot deb e'lon qilish iltimosini havola etishi mumkin.

Arizalar xo'jalik sudi organlarida ko'rib, natijalari ikki xil shaklda bayon qilinishi mumkin.

1. Inqirozga uchragan moliyaviy holatli korxonada, agar o'ziga mablag'lar bilan yordam beruvchi korxonada va tashkilotlarni, ya'ni homiylarni topsa yoki kerakli organlarning qarorlariga binoan bu korxonani ishlab chiqarish, moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida tashqaridan boshqaruvchi tayinlangan taqdirda, xo'jalik sudi organlari bu korxonani sanoatda 1,5, qishloq xo'jaligida bo'lsa, 2 yil muddatgacha sanatsiyaga o'tkazishi mumkin.

Bu muhlat tamom bo'lishi bilan xo'jalik sudi organlari masalaga yana qaytib, korxonaning moliyaviy holati yaxshilangan bo'lsa, uni ro'yxatdan o'chiradi, biroq korxonaning moliyaviy holati yaxshilangan bo'lmasa, uni bankrot deb e'lon qiladi, mol-mulki kim oshdi savdosida sotilib, korxonada qarzlari egalariga qaytarib beriladi.

2. Inqirozga uchragan moliyaviy holatli korxonada kerakli homiylarni topa olmasa, unga tashqaridan boshqaruvchi tayinlanmasa, korxonada xo'jalik sudi organlarining qaroriga binoan bankrot deb e'lon qilinadi va mol-mulki kim oshdi savdosida sotiladi.

Respublikada bankrot deb e'lon qilingan korxonada va tashkilotlar kam emas. 1999 yili bunday korxonada va tashkilotlarni soni 969 ni tashkil etgan. Shunday qilib, moliyaviy mustahkamlikni shakllanishi moliyaviy vaziyatlari umuman quyidagicha bo'ladi:

#### **1. Mutlaq moliyaviy mustahkamlik:**

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

2.  $(E^t : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

3.  $(E^\Sigma : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

#### **2. Me'yoriy moliyaviy mustahkamlik:**

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 < 100\%$ .

2.  $(E^t : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .



$$3. (E^{\Sigma} : TMZ) \times 100 \geq 100\%.$$

### 3. Nome'yoriy moliyaviy mustahkamlik:

$$1. (E^s : TMZ) \times 100 < 100\%.$$

$$2. (E^t : TMZ) \times 100 < 100\%.$$

$$3. (E^{\Sigma} : TMZ) \times 100 \geq 100\%.$$

### 4. Inqirozga uchragan moliyaviy holat:

$$1. (E^s : TMZ) \times 100 < 100\%.$$

$$2. (E^t : TMZ) \times 100 < 100\%.$$

$$3. (E^{\Sigma} : TMZ) \times 100 < 100\%.$$

Yuqorida ko'rilgan moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichi, uning to'rt turdagi shakllari asosiy ko'rsatkich bo'lib, iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlikni tahlil etish uchun bir qancha boshqa ko'rsatkichlar ham tavsiya etilgan. Fikrimizcha ularni ko'rsatkichlar sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, shunday ko'rsatkichlar sifatida quyidagi moliyaviy koeffitsientlardan foydalanish maqsadga muvofiq; aylanma mablag'larni o'z manbalar bilan ta'minlanganlik; majburiyat va o'zlik manbalarning nisbat; moliyaviy karamlik; o'zlik kapitalning chaqqonlik; moliyalashtirish; kapitalni qarzga olish koeffitsientlari.

Bu qo'shimcha moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichlarini aniqlash uslubi quyidagicha (yangi balans shakli bo'yicha):

1. Aylanma mablag'larni o'z manbalari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti:

$$1. \frac{\text{O'z mablag'larining manbalari} - \text{Uzoq muddatli aktivlar}}{\text{Joriy aktivlar}}$$

$$2. \frac{\text{Uzoq muddatli majburiyatlar} + \text{Joriy majburiyatlar}}{\text{O'z mablag'larining manbalari}}$$

$$3. \frac{\text{Balans valyutasi}}{\text{O'z mablag'larining manbalari}}$$

$$4. \frac{\text{O'z mablag'larining manbalari} - \text{Uzoq muddatli aktivlar}}{\text{O'z mablag'larining manbalari}}$$

$$5. \frac{\text{O'z mablag'larining manbalari}}{\text{Uzoq muddatli majburiyatlar} + \text{Joriy majburiyatlar}}$$

$$6. \frac{\text{Uzoq muddatli majburiyatlar} + \text{Joriy majburiyatlar}}{\text{Balans valyutasi}}$$

Bu koeffitsientlardan har biri o'z mazmuniga ega, moliyaviy mustahkamlikni alohida tomonlarini ifodalaydi va ular amaliyotda keng foydalaniladi. Ularni moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishdagi ahamiyatini ko'zda tutib, iqtisodiy adabiyotda, moliyaviy tahlilda foydalanish uchun bu koeffitsientlarning me'yoriy, optimal darajalari shakllangan. Ular quyidagilardan iborat:

- |  |   |
|--|---|
| 1. Aylanma mablag‘larni o‘z manbalari bilan ta’minlanganlik koeffitsienti. | $\geq 1,0$ yoki 100 foiz, yoki undan yuqori |
| 2. Majburiyat va o‘z manbalari nisbat koeffitsienti                        | $\geq 1,0$ yoki 100 foiz, yoki undan yuqori |
| 3. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti  | $\geq 2,0$ yoki 200 foiz, yoki undan yuqori |
| 4. O‘z kapitalining chaqqonlik koeffitsienti                               | $\geq 0,5$ yoki 50 foiz, yoki undan yuqori  |
| 5. Moliyalashtirish koeffitsienti  | $\geq 1,0$ yoki 100 foiz, yoki undan yuqori |
| 6. Kapitalni qarzga olish koeffitsienti                                    | $\geq 0,5$ yoki 50 foiz, yoki undan yuqori  |

### 3.2. Korxonaning balansining likvidligi tahlili

Ma’lumki, balans aktividagi mablag‘lar naqt pulga aylansa, balans passividagi majburiyatlarni qaytarish mumkin. Balans likvidligi — balansning aktiv tomonidagi bir davrga borib naqt pulga aylanadigan mablag‘lar bilan shu davrda qaytariladigan majburiyatlarni solishtirish demakdir.

Demak, balans likvidligi korxonaning boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalar darajasini ko‘rsatadi. Ko‘rinib turibdiki, balans likvidligi moliyaviy mustahkamlik singari, korxonalar moliyaviy holatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Balans likvidligi tahlilini boshlamasdan oldin quyidagi savollarga javob berishimiz zarur.

1. Balans likvidligini, korxonaning butun majburiyatlarini, uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlarni bo‘yicha aniqlash kerakmi, yoki faqat qisqa muddatga olingan qarzlarni bo‘yicha aniqlash kerakmi?

2. Balans likvidligi va korxonaning qarzlarni to‘lashga, qodirligi bir mazmunga egami, yoki har xil mazmunga egami?

3. Balans likvidligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni chegaralash kerakmi va bu chegaralangan ko‘rsatkichlar nima bilan aniqlanadi?

Xorijiy mamlakatlarda balans likvidligi tahlil etilganda korxonaning butun majburiyatlari va ham uzoq ham qisqa muddatga olingan qarzlarni bo‘yicha hisob-kitob olib boriladi. Iqtisodiy adabiyotimizda, uslubiy ko‘rsatmalarda balans likvidligini tahlil qilishda faqat qisqa muddatga olingan qarzlarni e’tiborga olinadi.

Tashqaridan olingan qarzlarning hammasini — uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlarni qaytarib berish kerak bo‘lgandan keyin balans likvidligi bizni sharoitimizda ham tahlil etilganda qisqa muddatga olingan qarzlarni bilan chegaralanmasdan, uzoq muddatga olingan qarzlarni e’tiborga olinsa korxonalar balansining likvidligi to‘liqroq baholanar edi. Bu holat bizning iqtisodiy adabiyotda o‘z o‘rnini topgan, lekin balans likvidligini umuman korxonaning miqyosida aniqlaganda emas, korxonaning aktivlarini turlari bo‘yicha balans likvidligi tahlil etilganda amalga oshiriladi.

Balans likvidligi va qarzlarni qaytarib berishda qodirligi to‘g‘risida gap borganda, bir guruh iqtisodchilar ularni bir biridan ajratishadi, farqlanadi. Masalan, qarzlarni qaytarib berishga qodirligi, (platejesposobnost’) umuman korxonaning

majburiyatlariga — uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlarga nisbatan, balans likvidligi esa faqat qisqa muddatga olingan qarzlarga nisbatan aniqlanadi.

Bunday chegaralashga asos bor. Chunki uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlarni e'tiborga olinsa, korxonaning umuman potentsial qarzlarni qaytarib berishga qodirligi ko'rsatiladi. Balans likvidligi qisqa muddatga olingan qarzlarni bo'yicha aniqlanar ekan, korxonalar iqtisodiy jihatdan nochor holatga tushib qolganda, ularni bankrot deb e'lon qilish paytida foydalaniladi.

Fikrimizcha, balans likvidligi va qarzlarni qaytarib berishga qodirligi bir xil mazmunga ega. Ikkala ko'rsatkichlarda ham tashqaridan olingan majburiyatlarni qaytarish to'g'risida gap ketyapti. Bozor munosabatlari davrida qisqa muddatga olingan qarzlarni kengroq foydalanilganligi uchun amaliyotda balans likvidligi nomli ko'rsatkichga, ya'ni qisqa muddatga olingan qarzlarga nisbatan aniqlanayotgan ko'rsatkichga ko'proq e'tibor berilmoqda.

Shunday qilib, balans likvidligi kengaytirilgan va qisqa mazmunda aniqlanishi lozim. Kengaytirilgan mazmunda olinadigan bo'lsa, balans likvidligi korxonada ham uzoq, ham qisqa muddatga olingan butun qarzlarni qaytarib berishga qodirligini ko'rsatsa, qisqartirilgan mazmunda olinadigan bo'lsa, balans likvidligi korxonada faqat qisqa muddatga olingan qarzlarni qaytarib berishga qodirlikini ko'rsatib berishi kerak.

Pirovardida, uchinchi muammo — balans likvidligini tahlil etish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi to'g'risida.

Iqtisodiy adabiyotda balans likvidligini tahlil qilish uchun tavsiya qilingan ko'rsatkichlar keng va har xil bo'lib, ular bir tizimga solinmagan, turkumlashmagan, tavsiflanmagan.

Balansning likvidlik xususiyati bozor munosabatlarning asosiy talablaridan biridir. Korxonaning likvidlik xususiyatiga ega bo'lsa, bu korxonaning xalq xo'jaligi majmuasida faoliyat yuritishi mumkin. Agar korxonaning balansi bu xususiyatga ega bo'lmasa, u boshqa korxonaning va tashkilotlar bilan me'yoriy ravishda iqtisodiy aloqalarni olib borolmaydi va faoliyat yuritishi og'irlashib ketadi. Demak, balans likvidligi katta ahamiyatga ega bo'lib, uni tahlil qilib turish ob'yektiv zaruratga aylanadi.

Balans likvidligi uch shaklda ifodalanadi.

1. Balans likvidlik ko'rsatkichlari korxonaning mablag' elementlarini naqt pulga aylanish jarayonini ko'rsatadi.

2. Balans likvidligi korxonalarining olingan qarzlarni qaytarib berishga qodirlik darajasini ko'rsatadi.

3. Balans likvidligi korxonaning aktivlari, aylanma mablag'lari bilan korxonaning umumiy majburiyatlari, qisqa muddatga olingan qarzlarni o'rtasidagi nisbat asosida aniqlanadi.

Balans likvidligining kerakli darajada bo'lishi - bu korxonaning faoliyatini davom etishi, boshqa korxonaning va tashkilotlar — ta'minotchi, kreditor, bank organlari va davlat budjeti bilan me'yoriy iqtisodiy aloqalarni davom ettirish kafolatidir. Bozor munosabatlari murakkab bo'lib, bu vaziyatda korxonaning balansi likvidlik xususiyatiga ega va ega bo'lmasligi mumkin. Balansning likvidligi tasodifan, vaqtincha, uzoq muddatli va doimiy bo'lishi mumkin. Lekin amaliyot talabi — korxonaning balansi

likvidlikka ega bo'lishidir.

Balans likvidligini tahlil qilish korxonalar faoliyatida uchraydigan ko'p muammolarni mavjud ekanligini va ularni tez fursatda yechish zarurligini ko'rsatib beradi. Bunday muammolar tarkibida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- korxonada mablag'larini noto'g'ri joylanishi va uni bartaraf etish yo'llarini topish;

- korxonada aktivlarini realizatsiya qilishni tezlashtirish imkoniyatlarini topish;

- korxonada ortiqcha mablag'lar paydo bo'lgan zamonada bank va ta'minlovchilar bilan hisob-kitoblarni tezlashtirish;

- sotilmagan tovarlar va debitorlik qarzlarning qoldig'i oshib borsa, ularni kamaytirish yo'llarini topib, amalga oshirish;

- korxonalarini bankrotlikka uchrashdan saqlab qolish.

Korxonada balans likvidlik darajasining o'zgarishi quyidagi omillar ta'siri ostida bo'lishi mumkin:

Birinchidan, korxonada aylanma mablag'larining ko'payishi yoki kamayishi.

Ikkinchidan, korxonada majburiyatlari, olingan qarzlarning kamayishi yoki ko'payishi.

Uchinchidan, umumiy aylanma mablag'lar tarkibida moddiy aylanma mablag'lar bilan pul aylanma mablag'lar o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi.

To'rtinchidan, pul aylanma mablag'lar tarkibida naqt pullar bilan debitorlik qarzlari o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi.

Korxonalarda foydalanilayotgan aylanma mablag'larni alohida elementlarini har xil muddatda naqd pul mablag'lariga aylanishi va korxonada majburiyatlarini har xil muddat o'tishi bilan qaytarilishiga ko'ra korxonalar balans likvidligi ikki shaklda aniqlanadi:

1. Umuman mablag'lar va korxonada majburiyatlari bo'yicha, ularni asosiy ko'rsatkichlar deyish mumkin.

2. Korxonada mablag'larini alohida elementlari va majburiyatlarni qaytib berish muhlatiga qarab, ularni qo'shimcha ko'rsatkichlar deb atash mumkin.

Iqtisodiy adabiyotda korxonalar balanslik likvidligini tahlil etish uchun har xil tizimdagi ko'rsatkichlar tavsiya etilgan. A.D. Sheremet va R.S. Sayfulin o'z monografiyasining «Balansning likvidligi tahlili» bo'limida qo'shimcha ko'rsatkichlardan, «Moliyaviy koeffitsientlar tahlili» bo'limida asosiy ko'rsatkichlardan foydalanganlar.

V.G. Artyomenko va M.V. Bellendir ham balans likvidligini tahlil qilishda asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlardan foydalanishgan.

I.T. Abdulkarimov balans likvidligini tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni tavsiya etgan: qoplash koeffitsienti; tez fursatda likvidlik koeffitsienti; mutlaq likvidlik koeffitsienti; pok aylanma mablag'lar; foydalaniladigan kapitalning chaqqonlik koeffitsienti; umumiy kapitalning chaqqonlik koeffitsienti.

A.N. Li va S.I. Shevchenko balans likvidligini tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishgan: joriy likvidlik (qoplash) koeffitsienti; mutlaq likvidlik koeffitsienti; harakatchan likvidlik; ishchi kapitalning samaradorligi; qarzlarning o'sish omili.

A.T. Ibrohimov balans likvidligini tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni

tavsiya etadi: likvidlik darajasi; qoplashning o'tish koeffitsienti; likvidlikning umumiy koeffitsienti; toza tushum koeffitsienti.

Ko'rinib turibdiki, mualliflar har xil tizimdagi ko'rsatkichlardan foydalanishgan. Bir xil ko'rsatkichlarga har xil nomlar berishgan va tavsiyalar tarkibida balans likvidligiga aloqasi bo'lmagan ko'rsatkichlardan foydalanishgan. Masalan, sof tushum koeffitsienti, ishchi kapitalning samaradorligi, pok aylanma mablag'lar va xokazo.

Demak, balans likvidligini tahlil qilishni boshlamasdan oldin likvidlik ko'rsatkichlari tizimini aniqlab, tamoyillarini yoritib olishimiz lozim. Fikrimizcha bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- tanlagan ko'rsatkichlar balans likvidligiga taalluqli bo'lib, uning shakllanishlarini ifodalashi lozim;

- likvidlik ko'rsatkichlari bevosita likvidlik darajasini o'lchashi yoki likvidlikka tasir ko'rsatuvchi omillar ta'sirini aniqlashi kerak.

- likvidlik ko'rsatkichlari korxonalar aktivlarini naqt pulga aylanish jarayonini ifodalashi lozim;

- balans likvidligini aniqlash uchun asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlardan foydalanish lozim.

- balans likvidligiga ta'sir qiluvchi omillarni, shart-sharoitlarning ta'sirini o'lchaydigan omilli ko'rsatkichlarni aniqlash.

Asosiy ko'rsatkichlar korxonaning umuman aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi nisbatni, qo'shimcha ko'rsatkichlar korxonalar aktivlari va majburiyatlarining alohida elementlari o'rtasidagi nisbatni ifodalashi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan tamoyillarga asoslanib, balans likvidlik ko'rsatkichlar tizimini shakllaymiz va balans likvidligini tahlil etamiz.

Balans likvidligi ko'rsatkichlari quyidagi guruhlardan iborat bo'lishi lozim: asosiy ko'rsatkichlar; qo'shimcha ko'rsatkichlar; omilli ko'rsatkichlar.

Asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi, tahlil etiladi:

1. Umumiy likvidlik koeffitsienti.
2. Joriy likvidlik koeffitsienti.
3. Xususiy yoki o'tuv likvidlik koeffitsienti.
4. Mutlaq likvidlik koeffitsienti.

Umumiy likvidlik koeffitsienti korxonaning o'zi butun aktivlaridan foydalanib, majburiyatlarini, tashqaridan uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlarni qaytarib berishga qodirligini ifodalaydi. Demak, bu koeffitsient korxonaning butun imkoniyatlarini, salohiyatini ko'rsatadi hamda bu korxonalar bilan aloqador bo'lgan barcha korxonalar, organ va tashkilotlar uchun katta ahamiyatga ega.

$$\text{Umumiy likvidlik koeffitsienti} = \frac{\text{Korxonalar aktivlari}}{\text{Korxonalar majburiyatlari}}$$

Korxonalar aktivlari uzoq muddatli aktivlardan va joriy aktivlardan, korxonalar majburiyatlari esa uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlardan iborat.

Demak, umumiy likvidlik koeffitsienti korxonalarini butun olingan qarzlarni — ham o'zoq, ham qisqa muddatga olingan qarzlarni o'zining butun aktivlari hisobidan qaytarishiga qodirligini ko'rsatadi. Balans likvidligining boshqa asosiy ko'rsatkichlari faqat qisqa muddatga olingan qarzlarni bo'yicha aniqlanadi. Ulardan

birinchisi joriy likvidlik koeffitsienti. Bu koeffitsient adabiyotda qoplash likvidlik koeffitsienti deb ham ataladi.

Joriy likvidlik koeffitsientining mazmuni quyidagilar bilan ifodalanadi:

- qisqa muddatga olingan qarzlari — bank kreditlari, kreditorlik qarzlari, korxonaning joriy aktivlari bilan qanday ta'minlangan?

- korxonaning joriy majburiyatlarining har bir so'miga nisbatan korxonaning qancha joriy aktivlari to'g'ri kelyapti?

- korxonaning joriy majburiyatlari uning umumiy aylanma mablag'lari bilan qanday qoplanayapti?

- agar joriy likvidlik koeffitsienti haddan tashqari yuqori bo'lsa, Demak, korxonada moddiy aylanma mablag'lar, debitorlik qarzlari talabdan tashqari ko'payib ketgan. Bu demak, aylanma mablag'larni aylanishini susaytiradi, korxonaning moliyaviy holati yomonlashadi;

- agar joriy likvidlik koeffitsienti pasayib boraversa, tavakkallik (risk) kuchayib, korxonada joriy majburiyatlardan qutilish imkoniyatlari kamayib boradi;

- joriy likvidlik koeffitsientiga korxonada mavjud ishlab chiqarish davrining uzunligi ta'sir ko'rsatadi.

Joriy likvidlik koeffitsienti ham umumiy likvidlik koeffitsientiga o'xshab, korxonaning majburiyatlaridan foydalanishdagi uning imkoniyatlari va salohiyatini ko'rsatadi. Umumiy likvidlikda bu salohiyat korxonaning hamma majburiyatlariga nisbatan olinsa, joriy likvidlikda faqat qisqa muddatga olingan qarzlarga nisbatan olinadi.

Nima uchun joriy likvidlik koeffitsienti korxonaning salohiyatini ko'rsatadi, deyilganda shuni e'tiborga olish kerakki, korxonaning o'z joriy majburiyatlaridan qutilish uchun moddiy aylanma mablag'larini tayyor mahsulotga aylantirib, uni sotishi kerak, debitorlik qarzlarni oldin undirish zarur.

Joriy likvidlik koeffitsienti korxonaning aksiyalarining egalari va bu korxonaning bilan aloqadagi korxonalar va tashkilotlar uchun katta ahamiyatga ega.

Joriy likvidlik koeffitsienti korxonadagi butun aylanma mablag'larni, ya'ni moddiy aylanma mablag'larni va pul aylanma mablag'larni qisqa muddatga olingan qarzlarga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni

$$\text{Joriy likvidlik koeffitsienti} = \frac{\text{Joriy aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}}$$

Yuqorida aytilganidek, korxonalarining o'z majburiyatlaridan qutilish imkoniyatlariga ega bo'lishi uchun uning aylanma mablag'lari tez fursatda naqt pulga aylanib turishi kerak.

Joriy likvidlik koeffitsienti butun aylanma mablag'lariga asoslanib aniqlanar ekan, zaxira va xarajatlarni tayyor mahsulotga aylantirib, sotish kerak, debitorlik qarzlarni oldin undirish lozim. Bu koeffitsient korxonalarini qisqa muddatga olingan qarzlardan qutilishdagi salohiyatini, imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Demak, korxonaning balansining amaliy likvidligini aniqlash uchun boshqa likvidlik koeffitsientlarini ham aniqlash lozim.

Xususiyl, tezlik yoki o'ta likvidlik koeffitsient pul aylanma mablag'lari bilan qisqa muddatga olingan qarzlari o'rtasidagi nisbat asosida aniqlanadi va qisqa muddatga olingan qarzlarni pul aylanma mablag'lari bilan qoplanish darajasini

ko'rsatadi, ya'ni:

$$\text{Xususiy likvidlik koeffitsienti} = \frac{\text{Pul mablag'lari}}{\text{Joriy majburiyatlar}}.$$

Amaliyotda xususiy likvidlik koeffitsientning yuqori bo'lishi hamma vaqt ham korxonalar balansining yuqori likvidligini ifodalamaydi, chunki bu vaziyat ko'p debitorlik qarzlarni hisobidan bo'lishi mumkin. Demak, bu koeffitsientdan korxonalar salohiyatini, qarzlarni qaytib berishdagi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bu koeffitsient shunga qaramasdan bank va boshqa tashkilotlar uchun katta ahamiyatga ega. Korxonalar balansini likvidligini tahlil qilishda eng asosiy ko'rsatkich sifatida mutlaq likvidlik koeffitsienti aniqlanadi.

Mutlaq likvidlik koeffitsienti korxonaning naqd pul mablag'lari bilan qisqa muddatli korxonalar majburiyatlarini korxonaning naqd pul mablag'lari bilan qoplanish darajasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich korxonalar naqd pul mablag'larini (kassadagi, hisob-kitob va valyuta schyotlardagi) qisqa muddatga olingan qarzlarga bo'lish yo'li bilan aniqlandi, ya'ni,

$$\text{Mutlaq likvidlik koeffitsienti} = \frac{\text{Naqd pullar}}{\text{Joriy majburiyatlar}}.$$

Shunday qilib, korxonalar aktivlari naqd pulga aylanish nuqtai nazaridan, korxonalar tomonidan o'z majburiyatlaridan qutilish imkoniyatlarini nazarda tutganda balans likvidligini tahlil etish uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientlardan foydalanish mumkin. Amaliyot shuni tasdiqladiki, korxonalar ularning darajasi zaruriy, tasdiqlangan me'yoriy darajada bo'lishi lozim.

Bu darajalar qabul qilingan me'yoriy darajada bo'lishi kerak:

1. Umumiy likvidlik koeffitsienti  $\geq 2,0$  yoki 200 foiz; undan yuqori
2. Joriy likvidlik koeffitsienti  $\geq 2,0$  yoki 200 foiz; undan yuqori
3. Xususiy likvidlik koeffitsienti  $\geq 1,0$  yoki 100 foiz; undan yuqori
4. Mutlaq likvidlik koeffitsienti  $\geq 2,0$  yoki 20 foiz; undan yuqori.

Balans likvidligi murakkab muammo bo'lib, unga bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli balans likvidligini tahlil qilishda asosiy ko'rsatkichlar bilan birga qo'shimcha ko'rsatkichlar ham foydalaniladi.

Shunday qilib, korxonalar balansini likvidligini tahlil etish moliyaviy tahlilning eng asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, korxonalar hayot-momotini, ularni bankrot bo'lish yoki kelgusida faoliyat kechirish muammolarini ochishga yordam beradi.

### **Tayanch iboralar**

Moliyaviy mustahkamlik – korxonalar moddiy aylanma mablag'lar tegishli manbalar bilan qoplanish darajasi.

Moliyaviy barqarorlik – korxonalar faoliyatini pasaytirmasdan bir darajada ushlab turishi yoki rivojlantirish.

Moddiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qoplash manbalari – o'zlik manbalar, uzoq va joriy majburiyatlar.

Buxgalteriya balansini qaytarib berishga qodirlik darajasi.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Korxonaning moliyaviy mustahkamligi deb nimani tushunasiz?
2. Moliyaviy mustahkamlik bilan moliyaviy barqarorlik o'rtasida qanday farq bor?
3. Moliyaviy mustahkamlikka qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilish uchun iqtisodiy adabiyotlarda qanday adabiyotlar tavsiya etilgan?
5. Moliyaviy mustahkamlik darajasi qanday aniqlanadi?
6. Moliyaviy mustahkamlik qaysi shakllarda ifodalanadi?
6. Moliyaviy mustahkamlik shakllari qaysi moliyaviy vaziyatlarda ifodalanadi?
7. Moliyaviy mustahkamlik shakllari qaysi moliyaviy vaziyatlarda ifodalanadi.
8. Buxgalteriya balansini likvidligi deb nimani tushunasiz?
9. Buxgalteriya balansi likvidligi ko'rsatkichlar orqali tahlil etiladi va ular qanday aniqlanadi.



## **IV BOB. AYLANMA MABLAG‘LARNING AYLANISHI, MAHSULOTLAR TANNARXI VA KORXONALARNING MOLIVAVIY HOLATI**

### **4.1. Aylanma mablag‘larning aylanishi va korxonalarining moliyaviy holati**

Ma'lumki, korxonalarining faoliyat ko'rsatishi uchun ular kerakli miqdorda ishlab chiqarishning asosiy va aylanma fondlari, mehnat va boshqa resurslari bilan ta'minlanishi lozim. Ishlab chiqarishning asosiy fondlari o'z tarkibiga bino, inshoot, uskuna, xo'jalik jihozlarini olib, ular ishlab chiqarishning texnikaviy bazasini tashkil etadi va uzoq vaqt, ko'plab ishlab chiqarish sikllarida xizmat qiladi. Ularning qiymati amortizatsiya hisoblash orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tannarxiga o'tkaziladi.

Ishlab chiqarish aylanma fondlari o'z tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralarini, pul mablag‘larini olib, ular ishlab chiqarishning bir siklida foydalaniladi va qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxiga to‘liq o‘tkaziladi. Ishlab chiqarishda ham asosiy, ham aylanma mablag‘larni borligi, holati, ulardan foydalanish darajasi korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, asosiy vositalardan samarali foydalanilsa, mehnat unumdorligi ortadi, tannarx kamayadi, foyda ko'payadi, rentabellik darajasi ko'tariladi. Aylanma mablag‘laridan samarali foydalanilsa, mahsulot tannarxi kamayadi, foyda ko'payadi, rentabellik darajasi ko'tariladi.

Lekin korxonalarini moliyaviy holati tahlil qilinganda, faqat bir muammo — aylanma mablag‘lar aylanishi bilan korxonalarining moliyaviy holati o'rtasidagi aloqa tahlil etiladi, chunki aylanma mablag‘lar aylanishining o'zgarishi korxonalar moliyaviy holatiga bevosita va miqdoran ta'sir ko'rsatadi. Undan tashqari amaliyot shuni ko'rsatadiki, aylanma mablag‘larning aylanishi susaygan vaziyatda ham korxonalar moliyaviy holatining boshqa ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishi mumkin va aksincha, aylanma mablag‘larni aylanishi tezlashgan bo'lsa, korxonalar moliyaviy holatining boshqa ko'rsatkichlari yomonlashgan bo'lishi mumkin.

Demak, aylanma mablag‘larning aylanishi o'zgarishiga qandaydir katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim shart-sharoitlar, omillar ta'sir ko'rsatarkan ekan va bu vaziyatni moliyaviy tahlil paytida ko'ramiz.

Aylanma mablag‘larning aylanishi tezlatilsa, uning bir qismi tejaladi, qo'shimcha foyda barpo bo'ladi, undan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin. Aksincha, aylanma mablag‘larning aylanishi sekinlashtirilsa, korxonaga aylanma mablag‘lar yetmay qoladi va korxonada faoliyatni davom ettirish uchun tashqi manbalardan (bank krediti va hokazo) foydalanib, korxonalar aylanma mablag‘lari to'ldirilishi kerak.

Shu sababli korxonalar aylanma mablag‘larining aylanishini o'zgarishi va uni korxonalarining moliyaviy holatiga ta'siri tahlil etiladi. Bu tahlil ikki yo'nalishda o'tkaziladi:

1. Umuman aylanma mablag‘lari bo'yicha.
2. Aylanma mablag‘larning alohida elementlari bo'yicha.

Umuman aylanma mablag‘lar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar tahlil etiladi:

1. Aylanma mablag‘larni aylanish miqdori.
2. Aylanma mablag‘lar bir marta aylanishi uchun o'rtacha sarf qilingan kalendar kunlar.

3. Aylanma mablag‘larning birkirish ko‘rsatkichi.

4. Aylanma mablag‘larni tejalgan yoki to‘ldirilgan summasi. Aylanma mablag‘larning o‘rtacha 70 foizi ishlab chiqarishda, 30 foizi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish jarayonida foydalaniladi. Demak, aylanma mablag‘larni aylanishiga ishlab chiqarish siklining muhlati va mahsulotni sotish uchun sarf qilingan vaqt ta’sir ko‘rsatadi.

Aylanma mablag‘larning aylanish miqdori sotilgan mahsulotlardan olingan tushumni aylanma mablag‘larni o‘rtacha qiymatiga bo‘lish bilan aniqlanadi. Lekin tushumdan qo‘shilgan qiymatga solingan soliq bilan to‘langan aksiz solig‘i olib tashlanadi, ya’ni:

Sotilgan mahsulotlardan olingan tushum (qo‘shilgan qiymatga solingan va aksiz soliqlarsiz

Joriy aktivlarning o‘rtacha qiymati

Sotilgan mahsulotlardan olingan tushum «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»dan olinadi, aylanma mablag‘larni o‘rtacha qiymati buxgalteriya ma’lumotlariga asosanib hisob-kitob yo‘li bilan aniqlanadi. Aylanma mablag‘lar to‘g‘risidagi buxgalteriya ma’lumotlari ikki shaklda bo‘lishi mumkin: intervalli qatorlar va momentli (lahza) qatorlar.

Intervalli qatorlar — aylanma mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar aniq davrlarda beriladi. Masalan, aylanma mablag‘larni o‘rtacha qiymati oylar bo‘yicha beriladi: yanvar — 500 m.s, fevral — 550 m.s, mart — 540 m.s.

Shunday ma’lumotlar berilgan bo‘lsa, aylanma mablag‘larning chorakdagi o‘rtacha qiymati oddiy o‘rtacha arifmetik yo‘l bilan aniqlanadi, ya’ni:

$$(500 + 550 + 540)/3=1590/3=530 \text{ m.s.}$$

Momentli (lahzalik) qatorlarda aylanma mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bu aniq davrlarning boshlanishiga keltirilishi mumkin. Masalan, 1 yanvarga — 500 m.s, 1 fevralga — 550 m.s, 1 martga — 560 m.s. va 1 aprelga — 580 m.s.

Shunday ma’lumotlar berilgan bo‘lsa, aylanma mablag‘larning birinchi chorakdagi o‘rtacha qiymati xronologik yo‘l bilan aniqlanadi, ya’ni:

$$\frac{\frac{500}{2} + 550 + 560 + \frac{580}{2}}{4-1} = \frac{1650}{3} = 550 \text{ m.s.}$$

Korxonalar faoliyatida mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotishga sarf qilingan vaqt o‘zgarib turishi bilan aylanma mablag‘larni har bir aylanishiga turlicha vaqt sarf qilinishi mumkin. Aylanma mablag‘larning umuman aylanish yo‘nalishini ifodalash uchun yuqorida ko‘rsatilgan ikkinchi ko‘rsatkich aniqlanadi, ya’ni aylanma mablag‘larni bir marta aylanishi uchun sarf qilingan o‘rtacha vaqt. Buning uchun tahlil qilinayotgan kalendar kunlarni soni birinchi ko‘rsatkichga, ya’ni aylanma mablag‘larni aylanish miqdoriga bo‘linadi, ya’ni:

Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar soni

Joriy aktivlarning aylanish miqdori

Oxirgi paytda aylanma mablag‘larni aylanishini tahlil qilishda yangi ko‘rsatkichdan foydalanilayapdi. Bu aylanma mablag‘larni birkirish ko‘rsatkichi. Aylanma mablag‘larni birkirish ko‘rsatkichi yuqorida ko‘rilgan birinchi ko‘rsatkichni — aylanma mablag‘lar aylanish miqdorining aksi bo‘lib, bu ko‘rsatkich aylanma

mablag'larni o'rtacha qiymatini sotilgan mahsulotlardan olingan tushumga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni:

Aylanma mablag'larni birkirish ko'rsatkichi sotilgan mahsulotlarning har bir so'miga nisbatan sarf qilingan aylanma mablag'larni ifodalaydi. Aylanma mablag'larning aylanishi tezlashtirilsa bu sarf kamayadi, aylanma mablag'larni aylanishi susaytirilsa, bu sarf oshib boradi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar aylanma mablag'larning aylanishini ifodalab, korxonalar moliyaviy holatiga ushbu aylanishning o'zgarishi ta'sirini hali ko'rsatmaydi, bu ko'rsatkichlar kerakli, qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'lib, ular yordamida eng asosiy to'rtinchi ko'rsatkich aniqlanadi - ya'ni aylanma mablag'larni tejalgan yoki to'ldirilgan summasi. Bu ko'rsatkich aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish natijasida aylanma mablag'larni tejalish summasini yoki aylanma mablag'larni- aylanishini susaytirish natijasida aylanma mablag'larni to'ldirish summasini ifodalaydi. Ko'rsatkich korxonada buxgalteriyasida mavjud aylanma mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarga qarab ikki yo'l bilan aniqlanadi.

Agar korxonada yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlardan ikkinchisi to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa, ya'ni, aylanma mablag'larni bir marta aylanishi uchun sarf qilgan o'rtacha kalendar kunlar ko'rsatkichi bo'lsa quyidagi yo'l bilan hisoblanadi:

$$(O'O'K_1 - O'KK_0) \cdot \frac{MT}{V}$$

Bu yerda:

$O'KK_1$  va  $O'KK_0$  - joriy va o'tgan davrlarda aylanma mablag'larni bir marta aylanishi uchun sarf qilingan o'rtacha kalendar kunlar;

MT — sotilgan mahsulotlardan olingan tushum.

V — tahlil qilinayotgan vaqt – kalendar kunlar.

Ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'larni bir marta aylanishi uchun joriy va o'tgan davrlarda sarf qilingan o'rtacha kalendar kunlar sonining o'zgarishi bir kunda sotilgan mahsulotlar hajmiga ko'paytiriladi.

Agar korxonalarda yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlardan uchinchisi to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa, ya'ni aylanma mablag'larni birkirish ko'rsatkichlari bo'lsa quyidagi yo'l bilan aniqlansa:

$$(BK_1 - BK_0)MT$$

Bu yerda:

$BK_1$  va  $BK_0$  — joriy va o'tgan davrlarda aylanma mablag'larni birkirish ko'rsatkichlari, ya'ni sotilgan mahsulotlarning bir so'miga nisbatan aylanma mablag'lar sarfi.

Ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'larni joriy va o'tgan davrlardagi ko'rsatkichlarni farqi sotilgan mahsulotlardan olingan tushumga ko'paytiriladi.

## 12-jadval

### Aylanma mablag'larni aylanish ko'rsatkichlari

	Joriy davr	O'tgan davr
1. Sotilgan mahsulotlardan olingan tushum, ming so'm	76330,5	92796,8
2. Aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati, ming so'm	4207,5	7747,8
3. Aylanma mablag'larning aylanish miqdori (1:2), marta	18,1	12,0

4. Aylanma mablag'larni bir marta aylanishiga sarf qilingan kalendar kunlar (365:3), kun	20,2	30,4
5. Aylanma mablag'larning birkirish ko'rsatkichlari (2:1), tiyin	5,5	8,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada aylanma mablag'larning aylanishi tezlashgan. Aylanma mablag'larning aylanish miqdori 12,0 martadan 18,1 martagacha oshgan, aylanma mablag'larni bir marta aylanishi uchun sarf qilingan o'rtacha kalendar kunlar 30,4 dan 20,2 kunlarga qisqartirilgan, aylanma mablag'larni birkirish ko'rsatkichi 8,3 tiyindan 5,5 tiyigacha kamaytirilgan. Demak, korxonada aylanma mablag'lar tejalgan. Aylanma mablag'larni tejalgan summasi:

$$(30,4 - 20,2) \cdot \frac{76330,5}{365} \text{ yoki } (8,6 - 5,5) \cdot 76330,5$$

Aylanma mablag'larning aylanishi o'zgarishini korxonada moliyaviy holatiga ta'sirini chuqurroq tahlil etish uchun aylanma mablag'larning alohida elementlari aylanishini tahlil qilish lozim. Aylanma mablag'larning alohida elementlari aylanishiga korxonaning alohida bo'linmalarining sexlar, ombor xo'jaligi, marketing bo'limining faoliyati ta'sir ko'rsatadi. Demak, aylanma mablag'larning alohida elementlarini tahlil qilish, kelgusida aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishga bag'ishlangan tavsiyalarni aniqlashtirishda korxonada bo'linmalarining faoliyatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

Aylanma mablag'larni alohida elementlari bo'yicha ularning aylanishini tahlil etish quyidagi yo'nalishlarda o'tkazilishi mumkin:

- o'zlik aylanma mablag'larining aylanishi;
- me'yorlangan aylanma mablag'larining aylanishi;
- me'yorlanmagan aylanma mablag'larining aylanishi;
- ishlab chiqarish zaxiralarining aylanishi;
- tugallanmagan ishlab chiqarishning aylanishi;
- tayyor mahsulotning aylanishi;
- jo'natilgan tovarlar va hisob-kitobdagi mablag'larning aylanishi;
- pul mablag'larining aylanishi;
- debitorlik qarzlarni aylanishi.

Aylanma mablag'larning alohida elementlari aylanib turishi o'z xususiyatlariga ega. Masalan, o'zlik me'yorlangan, me'yorlanmagan aylanma mablag'larning aylanib turishi sotilgan mahsulotlarning hajmiga, ishlab chiqarish zaxiralarining umumiy sarfiga ta'sir qiladi; tugallanmagan ishlab chiqarishni aylanib turishi tayyor mahsulotga; tayyor mahsulotlarning ombordagi qoldiqlar aylanib turishi mahsulotlarni iste'molchilarga jo'natish hajmiga; iste'molchilarga jo'natilgan tovarlarning aylanib turishi korxonada hisob-kitob schyotiga, pul tushishiga va hokazo.

Aylanma mablag'larning alohida elementlarini aylanib turish xususiyatlari shuni talab etadiki, ularning aylanib turish ko'rsatkichlari har xil bazalarga nisbatan hisob-kitob qilinishi lozim. Bu holatni e'tiborga olib, aylanma mablag'larni aylanib turishining qo'shimcha ko'rsatkichlari, ya'ni aylanma mablag'larning alohida elementlarining aylanib turish ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

1.	O'zlik aylanma mablag'lari	$= \frac{\text{O'z aylanma mablag'larining o'rtacha qiymati} \times \text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar}}{\text{Sotilgan mahsulotning hajmi}}$
2.	Me'yorlangan aylanma mablag'larning	$= \frac{\text{Me'yorlangan aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati} \times \text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar}}{\text{Sotilgan mahsulotning hajmi}}$
3.	Me'yorlanmagan aylanma mablag'larning	$= \frac{\text{Me'yorlanmagan aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati} \times \text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar}}{\text{Sotilgan mahsulotning hajmi}}$
4.	Ishlab chiqarish zaxiralarning	$= \frac{\text{Ishlab chiqarish zaxiralarning o'rtacha qiymati} \times \text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar}}{\text{Ishlab chiqarish zaxiralarning umumiy sarfi}}$
5.	Tugallanmagan ishlab chiqarishning	$= \frac{\text{Tugallanmagan ishlab chiqarishning o'rtacha qiymati} \times \text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar}}{\text{Ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot}}$
6.	Tayyor mahsulotning	$= \frac{\text{Tayyor mahsulot qoldiqlarining o'rtacha qiymati} \times \text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar}}{\text{Jo'natilgan tovarlar hajmi}}$
7.	Jo'natilgan tovarlarning va hisob-kitobdagi mablag'larning	$= \frac{\text{Jo'natilgan tovarlarning va hisob-kitobdagi mablag'larning o'rtacha qiymati} \times \text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar}}{\text{Hisob-kitob schyotiga tushgan pullar summasi}}$
8.	Naqd pul mablag'larining	$= \frac{\text{Naqd pul mablag'larining o'rtacha qiymati} \times \text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar}}{\text{Sotilgan mahsulotlarning hajmi}}$

Keltirilgan ko'rsatkichlar, aylanma mablag'larning qaysi elementlari bo'yicha ularning aylanishini tezlashtirish uchun kerakli tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatib turibdi.

Bu ko'rsatkichlardan joriy davrni o'tgan davr bilan taqqoslashi, ya'ni dinamikada tahlil etilishi lozim. Bu tahlil aylanma mablag'larning alohida elementlari bo'yicha ham, ularning aylanib turishi o'zgarishi – tezlashtirilishi, susaytirilishi natijasida aylanma mablag'larning tejalganligi yoki aylanma mablag'larni to'ldirilganligi ham aniqlanishi mumkin.

Demak, aylanma mablag'larning alohida elementlari bo'yicha aylanib turish ko'rsatkichlarini tahlil etish aylanma mablag'larni aylanishi bilan korxonada moliyaviy holati o'rtasidagi aloqani tahlil etishni chuqurlashtiradi va aniqlashtiradi.

Aylanma mablag'larning aylanib turishini korxonada moliyaviy holatiga ta'sirini tahlil qilish to'g'risida gap borar ekan, yana quyidagilarni e'tiborga olishni zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, bozor munosabatlariga o'tish bilan korxonalararo iqtisodiy aloqalar murakkablashib bormoqda. Korxonalar faoliyatida aylanma mablag'lar yetishmay

qolyapti. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu sababli 1997 yil 9 iyunda O'zbekistan Respublikasi Prezidentining «Aylanma mablag'larni saqlanishi va ularni to'ldirib turish javobgarligini oshirish to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Ikkinchidan, korxonalarda foydalanayotgan aylanma mablag'larni ustidan nazoratni kuchaytirish va mavjud aylanma mablag'lardan oqilona foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu sababli 1997 yil 25 fevralda O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan korxonalar va tashkilotlar uchun aylanma mablag'larni me'yorlari tasdiqlandi.

Aylanma mablag'larning aylanib turishi tahlili aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirilishi yoki susaytirilishi sababli korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni va olinayotgan foydaning o'zgarishini aniqlash bilan yakunlanishi lozim.

Demak, aylanma mablag'larning aylanish miqdori joriy davrda o'tgan davrga nisbatan o'zgarishiga qarab, korxonalar foydasi ko'payadi yoki kamayadi. Aylanma mablag'lar aylanib turishining korxonalar moliyaviy holatiga ta'sirini tahlil etish aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishga safarbar etiltan taklif va tavsiyalar bilan yakunlanishi kerak.

Aylanma mablag'larning aylanib turishi murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga tashqi va ichki, ob'yektiv va sub'yektiv, ishlab chiqarish, tashkiliy, iqtisodiy shart-sharoitlar, omillar ta'sir ko'rsatadi, lekin umumiy omil va shart-sharoitlar quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning aniq tarmoqqa aloqadorligi;
- ishlab chiqarish siklining muhlati;
- korxonada ishlab chiqarishning hajmi;
- iste'molchilarning joylangan joyi;
- ta'minlovchilarning joylagan joyi;
- qarzlarni to'lashga layoqatligi;
- banklar bilan aloqalar darajasi;
- iste'mol qilinadigan resurslar;
- ta'minlovchi va iste'molchi korxonalar bilan shakllangan aloqalar;
- marketing xizmat darajasi;
- korxonalar menedjerlar xizmati;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish darajasi;
- mehnatni tashkil qilish darajasi.

Shunday qilib, aylanma mablag'larning aylanib turishini tahlil qilish — moliyaviy tahlilning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, u hamma vaqt korxonalar raxbariyatini, tahlilchilar, auditorlarning e'tibor markazida bo'lishi lozim.

#### **4.2. Mahsulotlar tannarxi va korxonalarining moliyaviy holati**

Mahsulot tannarxi korxonalar faoliyatining asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biridir. Korxonalarda o'tkazilayotgan barcha tadbirlar: texnikaviy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning hammasi korxonalar xarajatlariga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxiga ta'sir ko'rsatadi. Tannarxning o'zgarishi, albatta, korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir etadi.

Ilgari tannarning tahlili, korxonalarining umumiy faoliyatini tahlil qilish paytida, oldinroq ko‘rib, moliyaviy tahlil o‘tkazilayotgan vaqtda tannarx to‘g‘risida gap bo‘lmasdi. Lekin, bozor munosabatlariga o‘tish bilan, yuqorida tasdiqlanganidek asosiy e‘tibor korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishga qaratilmoqda. Shu sababli oxirgi yillarda moliyaviy tahlil bo‘yicha gap borar ekan, iqtisodiy adabiyotda mahsulot tannarxini tahlil qilish, korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etish bilan birga yoritilmoqda. Ma‘ruza matnida ham tannarxni tahlil qilish muammolari yoritiladi, chunki:

- bozor munosabatlari davrida korxonalar faoliyatining sifat ko‘rsatkichlari ahamiyati, shu jumladan, tannarx ko‘rsatkichining ahamiyati ham oshib boradi;

- ma‘muriy boshqaruv tizimidan voz kechilishi munosabati bilan korxonalar faoliyatida nimagadir tannarxni qisqartirish muammolariga keraklicha e‘tibor berilmayapti;

- respublikada xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizomda korxonalar ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va hisoboti chambarchas bog‘langan, demak, korxonalarining moliyaviy holati tahlili tannarx muammolarini ham o‘z tarkibiga olishi kerak.

Tannarxni tahlil qilish to‘g‘risida gap ketganda shuni e‘tiborga olishimiz kerakki, sobiq Ittifoq davrida bu borada ko‘p nazariy va amaliy, ilmiy tekshiruv ishlari bajarilgan edi va ma‘muriy tizimga moslangan tannarx hisobi hamda hisoboti tizimi yaratilgandi. Bu tizim o‘z tarkibiga quyidagilarni olgan edi:

- tannarx ishlab chiqarishning muhim iqtisodiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdagi iqtisodiy munosabatlarni ifodaladi;

- tannarx ko‘rsatkichi korxonalar faoliyatining sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, tannarxni kamaytirib turish xalq xo‘jaligi miqyosida ko‘tarilgan vazifalardan biri shaklida tasdiqlangan edi;

- tannarx ko‘rsatkichlarining asoslangan aniq tizimi shakllangan edi. Bu tizim o‘z tarkibiga o‘rta tarmoq va alohida tannarx ko‘rsatkichlarini, fabrika-zavod va to‘liq tannarxni, yalpi, tovar va sotilgan mahsulotlarning tannarxini, bir so‘mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun sarf qilingan xarajatlar ko‘rsatkichini olar edi;

- korxonalar xarajatlari asosiy va qo‘shimcha, to‘g‘ri va egri, tahminan o‘zgaruvchan va tahminan o‘zgarmas xarajatlarga, elementlarga va moddalarga turkumlanib, ular xarajatlar tarkibi tahlilida keng foydalanilar edi;

- alohida ishlab chiqarish tarmoqlarining xususiyatlarini to‘liq e‘tiborga olib, bu tarmoqlar bo‘yicha alohida mahsulotlarning tannarxini aniqlash tizimi — kalkulyatsiya tizimi ishlab chiqilgan edi;

- tannarx ko‘rsatkichlari bo‘yicha davlat hisoboti shakllangan edi. Bu 5-shakl «Ishlab chiqarishga xarajatlar», 6-shakl «Tovar mahsuloti tannarxi». Bu hisobotlar tannarx ko‘rsatkichlarini har tomonlama tahlil qilish imkoniyatini berardi;

- tannarx ko‘rsatkichlari tarkibida asosiy ko‘rsatkich sifatida bir so‘mlik tovar mahsulotini ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlar qabul qilingan edi.

Respublikada bozor munosabatlariga moslangan hisob va hisobot tizimi ham shakllanmoqda. Bu borada tannarx bo‘yicha bir qancha tadbirlar amalga oshirilayapti. Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom 1995 yili qabul qilindi. 1999 yili qaytadan ko‘rib chiqildi. Xarajatlar to‘g‘risida andozalar qabul qilindi. Lekin, afsuski, bu borada ilgari bajarilgan ishlarning muhim tomonlari e‘tiborga olinmadi.

Tannarxni kamaytirib turish hamma korxonalar va tashkilotlar oldida turadigan doimiy vazifadir. Demak, tannarxni kamaytirish katta ahamiyatga ega, chunki:

- tannarxni pasaytirish korxonalar foydasini ko'paytiradi, korxonaning moliyaviy holatini yaxshilovchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi;

- tannarxni pasaytirish orqali tejalgan mablag'lar hisobidan korxonalar xodimlariga mukofotlar beriladi, demak, bu holat korxonalar xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yordam beradi;

- tannarx pasayishi hisobidan korxonalar jamoasi ijtimoiy nuqtai nazaridan rivojlantiriladi, ya'ni korxonalar xodimlarining ijtimoiy xiyoylari qondiriladi;

- korxonaning texnikaviy darajasini ko'tarib turish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish uchun ham tannarxni pasaytirish hisobidan olingan mablag'lardan foydalaniladi;

- ma'lumki, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga narx-navo tasdiqlanayotganda, shakllanayotganda mahsulotlarning tannarxi e'tiborga olinadi. Demak, tannarxni pasaytirish — narx-navolarni kamaytirishdagi asosiy shart-sharoitlardan biridir. Narx-navolarni kamaytirish xodimlarning real ish haqqisini oshirish, ularning turmush darajasini ko'tarish omillaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotda, bozor munosabatlariga o'tish davrida, deyarli hamma korxonalar, tashkilotlarda tannarx o'sib bormoqda va bu sharoitda tannarxni pasaytirish vazifasi kun tartibidan olindi, deb hisoblanadi.

Fikrimizcha bozor munosabatlari shakllanishi bilan bu vazifa kun tartibiga qo'yiladi deb hisoblaymiz. Undan tashqari bozor munosabatlari davrida korxonalararo raqobat rivojlanar ekan. Korxonalar, tashkilotlar o'z mahsulotlarini kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishga intilishlari, ob'yektiv zaruriyatdir. Demak, tannarxni pasaytirib borish lozim.

Tannarx hisobi va hisobot tizimi hamma vaqt korxonalar faoliyatiga boshqaruvlik qilishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Sobiq Ittifoq davrida bu tizim orqali davlat boshqaruv organlari kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlangan, davlatning mulkdorlik vazifasini bajarishga yordam bergan.

Lekin bu davrda tannarx hisobi va hisobot tizimi bozor munosabatlarining talablariga moslanmagan, korxonalar soliqqa tortish muammolari bilan bog'lanmagan edi.

Respublika xalq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazilishi bilan respublikada, yuqorida qayd etilganidek buxgalteriya hisobi, hisobotini tashkil qilish borasida ham kerakli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Buxgalteriya hisobi, audit to'g'risidagi respublika qonunlari qabul qilindi, buxgalteriya hisob andozalari, buxgalteriya hisobi schyot rejalari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Hisobot tizimi ham takomillashtirilmoqda.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti islohotlari tarkibida tannarx hisobi va hisobotini isloh qilish alohida o'rin tutadi. Bu borada 1995 yilda tasdiqlangan va amaliyotga kiritilgan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» tannarx hisobi va hisobot tizimini bozor munosabatlariga moslashtirishda alohida ahamiyatga ega.

Bu Nizom tannarx hisobi va hisobotiga quyidagi yangiliklarni kiritdi:



1. Korxonalar xarajatlarini yangichasiga hisobga olib, bozor munosabatlariga moslab, xalqaro andozalarga javob beradigan darajada ishlab chiqildi.

2. Korxonalar xarajatlarining shakllanishi uning moliyaviy holati bilan, korxonalar moliyaviy natijalarini soliqqa tortish bilan bog'landi.

3. Tannarx ko'rsatkichlar tizimi takomillashtirildi, ilgari qabul qilingan fabrikazavod va to'liq tannarx ko'rsatkichlari o'rniga bitta ko'rsatkich tavsiya etildi. Bu ishlab chiqarish tannarxi, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisi.

Ilgarigi qo'shimcha xarajatlar «davr xarajatlari» nomi bilan mahsulot tannarxiga kiritilmasdan korxonalar foydasi hisobidan qoplanadi.

4. Korxonalar xarajatlarini turkumlashtirish ham takomillashtirildi.

Avvalambor korxonadagi barcha xarajatlar quyidagilarga guruhlanadi: sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi; davr xarajatlari; moliyaviy xarajatlar; favqulot xarajatlari.

Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga quyidagi xarajatlar kiritilgan:

- bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar; bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari; boshqa, bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiradigan xarajatlar quyidagi guruhlariga bo'lingan: sotish; boshqarish (ma'muriy sarf-xarajatlar); boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari quyidagicha turkumlangan: foizlar bo'yicha xarajatlar; xorijiy valyuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari; qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash; moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratilgan: ishlab chiqarish moddiy xarajatlar; ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga xaq to'lash xarajatlari; ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'ortaga ajratmalar; asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi; ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Ko'rinib turibdiki, korxonalar xarajatlari har xil nuqtai nazardan olinib, turkumlashtirilgan va xarajatlarni turkumlashtirish chuqurlashtirilgan, detallashtirilgan, ular bo'yicha korxonalar xarajatlarining tarkibi tahlil etilishi mumkin.

Shunday qilib, respublikada 1995 yilda qabul qilingan, 1999 yili qaytadan ko'rib chiqilgan xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom bozor munosabatlariga moslangan mahsulot tannarxi hisobi va hisoboti tizimi shakllanishida, albatta, katta ahamiyatga ega.

Lekin bozor munosabatlariga to'liq javob beradigan tannarx hisobi va hisoboti shakllanishiga xali erta. Yuqorida ko'rilgan Nizomni o'zida ham kamchiliklar, yechilmagan muammolar oz emas.

Fikrimizcha ular quyidagilardan iborat:

1. Nizomda avvalambor tannarx ko'rsatkichlari tizimi juda chegaralangan. Unda asosiy tannarx ko'rsatkichi — har bir so'mlik tovar mahsuloti uchun sarf qilingan

xarajatlar, yalpi va tovar mahsuloti tannarxi to'g'risidagi ko'rsatmalar keltirilmagan. Mahsulotni to'liq tannarxi aniqlanmaydi. Bu ko'rsatkichlar tiklansa tannarxini tahlil etish chegaralanmagan bo'lib, uning tahlili to'liq bo'lardi.

2. Tannarx ko'rsatkichlari bo'yicha ilgari foydalanilgan 5-shakl «Ishlab chiqarish xarajatlari» va 6-shakl «Tovar mahsuloti tannarxi» hisobotlardan voz kechilishi munosabati bilan tannarxning elementlar va moddalar bo'yicha tahlili hamda undan tashqari tannarxga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish imkoniyatlari barataraf etilgan. Saqlangan davlat statistika hisoboti 5-E\*shakl «Korxonalar xarajatlari to'g'risida»gi hisobotda kerakli ma'lumotlar haddan tashqari chegaralangan.

3. Nizomda korxonalar xarajatlarini turkumlashtirishda takomillashtirish bilan birgalikda xarajatlarni asosiy va qo'shimcha xarajatlarga turkumlashdan voz kechilgan. «Qo'shimcha xarajatlar» atamasi o'rniga «Davr xarajatlari» qabul qilingan, natijada qo'shimcha xarajatlarni tahlil qilish imkoniyati yo'q qilingan, chunki «Davr xarajatlari» tarkibida bir guruh asosiy xarajatlar ham hisoblanadi.

4. Ma'lumki, 1958 yildan boshlab mamlakatda mahsulotlar tannarxi bo'yicha asosiy ko'rsatkich qabul qilingan bo'lib, bu har bir so'mlik tovar mahsulotini ishlab chiqarish uchun xarajatlar ko'rsatkichi edi. Bu ko'rsatkich ilgari foydalanilgan solishtirishga ega bo'lgan tovar mahsuloti tannarxi o'rniga tasdiqlangandi. Yangi ko'rsatkich butun ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti bo'yicha aniqlanib, haqiqatan ham korxonalarining tovar mahsuloti uchun ketgan xarajatlarning xohlagan davrda o'zgarishini ko'rsatib beradi. Afsuski Nizomda bu ko'rsatkich to'g'risida gap ham yuritilmaydi.

5. Ilgari korxonalar xarajatlarini turkumlashda xarajatlar «asosiy va qo'shimcha», «to'g'ri va egri» xarajatlarga bo'linardi. Nizomda bu turkumlashlar saqlanilgan. Lekin, almashtirib yuborilgan. «Asosiy va qo'shimcha» xarajatlar to'g'risida gap borar ekan, mazmunda egri va to'g'ri xarajatlar faraz etilgan hamda aksincha. Bu turkumlashlar o'z mazmuniga ega bo'lib, har biri o'ziga xos vazifani bajaradi. Xarajatlarni «asosiy va qo'shimcha» xarajatlarga turkumlash hamma korxonalarda mavjud. Asosiy xarajatlar bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'langan bo'lib, qo'shimcha xarajatlar esa boshqaruv bilan bog'langan xarajatlarni ifodalaydi. xarajatlarni «to'g'ri va egri» xarajatlarga bo'lish hamma korxonalarda bo'lmasdan, faqat bir xil mahsulot emas, balki ko'plab xildagi mahsulotlar ishlab chiqarilsa, korxonalar xarajatlari shu ishlab chiqarilgan turli xil mahsulotlarning tannarxiga egri yo'llar (proporsional) bilan kiritilsa, natijada xarajatlar «to'g'ri va egriga» bo'linadi.

6. Mahsulotlar tannarxi tarkibini tahlil etishda xarajatlarning element va moddalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Nizomda buning uchun imkoniyatlar yuq. Bu tahlilni o'tkazish uchun buxgalteriyaning birlamchi ma'lumotlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Buning uchun haddan tashqari ko'p vaqt sarflanadi.

7. Provardida yana bir narsani aytish kerakki, Nizomda ilgari asoslanib qabul qilingan bir qancha atamalardan asossiz voz kechilgan. Masalan, balansdagi foyda «Soliq to'lashdan oldingi foyda», «Mahsulot sotishdan foyda», «Mahsulot sotishdan yalpi foyda» bilan almashtirilgan va hokazo.

Mahsulotlar tannarxi tahlili to'g'risida gap borar ekan shuni ta'kidlash kerakki, tasdiqlangan 1, 2, 2a, 3, 4, va 5 shakllardagi moliyaviy hisobotlarda tahlil uchun zarur

bo'lgan ko'p ma'lumotlar keltirilmaydi. Lekin korxonalar xukumat tomonidan tasdiqlangan 5-E-shaklidagi «Korxonalar xarajatlari to'g'risidagi pochta-yillik choraklik davlat statistik hisobotini tuzib topshirishadi. Bu hisobot ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

Ma'lumki, xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomda korxonalar xarajatlari quyidagicha turkumlanadi:

1. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, shu jumladan:

a). To'g'ri va egri moddiy xarajatlar.

b). To'g'ri va egri mehnat xarajatlar.

v). Boshqa to'g'ri va egri xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan davr xarajatlari:

a). Mahsulotlarni sotish xarajatlari.

b). Boshqaruv xarajatlari.

v). Boshqa operativ xarajatlar va zararlar.

3. Korxonalarining moliyaviy faoliyati xarajatlari, shu jumladan:

a). Foizlar bo'yicha xarajatlar.

b). Xorijiy valyutalar operatsiyalari bo'yicha salbiy kurs farqlari.

v). Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar.

Bu ma'lumotlarga asoslanib korxonalar xarajatlari, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini umumiy o'zgarish yo'nalishlarini tahlil qilish mumkin. Avvalambor quyidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilishimiz mumkin.

#### 14-jadval

##### Korxonalar umumiy xarajatlari dinamik o'zgarishi (ming so'm)

	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika, %
Hamma xarajatlar, shu jumladan:	23500	23600	120,8
Ishlab chiqarilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	21400	17500	122,3
Davr xarajatlari	5700	5300	107,5
Moliyaviy faoliyat xarajatlari	1200	500	240,0
Favqulodda xarajatlar	200	300	33,3

Jadval ma'lumotlari korxonalar umumiy xarajatlari o'zgarishi bilan birga korxonaning bozor munosabatlari davrida moliyaviy aloqalarini ham tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Ko'rinib turibdiki, moliyaviy faoliyatni olib borish uchun korxonalar xarajatlari joriy yillarda 2,4 marta ko'paygan, Demak, korxonada moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish yaxshi rivojlanayapti.

Korxonalarining umumiy xarajatlari tahlili ularda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xajmining o'zgarishi bilan bog'langan holda o'tkazilishi lozim. Buning uchun har bir so'mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlar ko'rsatkichlari tahlil qilinishi kerak.

Endi, 5-E davlat statistika hisoboti ma'lumotlaridan foydalanib, korxonalar xarajatlari tarkibiy o'zgarishi tahlil etiladi.

## Korxonalar xarajatlari tarkibi

	Ming so'm		Xarajatlar tarkibi, foiz	
	joriy davr	o'tgan davr	joriy davr	o'tgan davr
Jami xarajatlar shu jumladan:	28500	23600	100,0	100,0
1. Ishlab chiqarilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi undan:	21400	17500	75,0	74,2
Moddiy xarajatlar	5500	5000	30,4	28,6
Ishlab chiqarish qabilidagi ish haqi to'lov xarajatlari	9000	8000	40,1	45,7
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	5400	4000	25,2	22,9
Ishlab chiqarishning boshqa xarajatlari	500	500	2,3	2,3
2. Davr xarajatlari undan:	5700	5300	20,0	22,5
Boshqaruv xodimlariga ish haqi to'lash xarajatlari	600	500	10,4	3,4
Asosiy ma'muriy vositalarga amortizatsiya ajratmalari	1000	900	18,0	17,0
Boshqaruv xodimlarining xizmat sarfi xarajatlari	100	80	1,8	1,6
Ishlab chiqarishni o'zlashtirish va rivojlantirish xarajatlari	-	-	-	-
Bank xizmatlariga to'lovlar	400	500	7,4	9,4
Ijtimoiy to'lovlar	-	-	-	-
Nomoddiy xizmatlar to'lovi	100	90	1,8	1,7
Budjetga majburiy to'lovlar, soliq va yig'imlar	150	330	2,5	6,2
Nobudjet jamg'armalariga ajratmalar	350	400	6,0	7,5
Mahsulotlarni sotish xarajatlari	3000	2500	52,2	47,2
Boshqa muomala xarajatlari	-	-	-	-
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar undan:	1200	500	4,2	2,0
Qaram va uyushmalashtirilgan korxonalar berilgan qarzlarni bo'yicha foizlar.	200	100	16,5	20,0
Banklarning kreditlari bo'yicha to'lovlar	300	120	25,0	24,0
Erdan foydalanganlik uchun ijara to'lovi	200	10	16,5	20,0
Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish xarajatlari	400	130	33,2	26,0
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	100	50	8,0	10,0
4. Favqulodda zararlar	200	300	0,8	1,3

Jadval ma'lumotlariga binoan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- korxonalar xarajatlarini asosiy qismini ishlab chiqarish tannarxi tashkil etib, o'tgan davrda uning salmog'i deyarli o'zgarmagan;

- davr xarajatlarining ko'pchiligi qo'shimcha xarajatlar bo'lib, ularning salmog'i umumiy xarajatlar tarkibida 1/5 qismini tashkil etadi. Qo'shimcha xarajatlarning salmog'i 2,5 foizga qisqartirilgan. Demak, korxonada ishlab chiqarishga boshqaruvchilik qilish takomillashtirilmoqda va natijada qo'shimcha xarajatlar

qisqarmoqda;

- korxonada moliyaviy faoliyat kuchaytirilyapti, bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar salmog'i ko'payyapti va mazkur holat korxonaning moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- ishlab chiqarish tannarxi tarkibida ish haqi to'lovlari 40 foizdan oshig'ini tashkil etadi. Demak, tannarxni pasaytirishda mehnat xarajatlarini qisqartirishga ko'proq e'tibor safarbar etilishi lozim. Bu muammo korxonada yechilyapti, tannarx tarkibida bu xarajatlar 45,7 foizdan 42,1 foizgacha qisqartirildi.

- mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar davr xarajatlarining deyarli yarmini tashkil etib, ularning salmog'i 5,3 foizga ko'tarilgan. Bu holatni tabiiy deb hisoblasak ham bo'ladi, chunki bozor munosabatlari shakllanishi davrida mahsulotlarni sotish muammolari og'irlashadi, sotish xarajatlari oshib borishiga olib keladi;

- moliyaviy faoliyat bilan bog'liq xarajatlar ham o'sgan. Ularning ayniqsa qimmatli qog'ozlar bilan bo'lgan operatsiyalar bo'yicha salmog'i ko'tarilgan. Demak, korxonaning moliya bozoridagi faolligi oshib bormoqda.

Yuqorida to'rt guruh xarajatlar bo'yicha ularning tarkibiy o'zgarishi ko'rib chiqildi. 5-E statistika hisobotidan foydalanib, korxonada xarajatlari elementlari va moddalari bo'yicha ham ularning tarkibiy o'zgarishini tahlil qilishimiz mumkin.

Lekin bu xarajatlar to'g'risidagi Nizomda, statistika hisobotida korxonada xarajatlarining elementlari va moddalari bo'yicha aniq tasnifi keltirilmagan. Bu holat tannarxni tahlil qilishni og'irlashtiradi.

Xarajatlar to'g'risidagi Nizomga va 5-E statistika hisobotiga asoslanib, korxonada xarajatlarining elementlari va moddalari bo'yicha quyidagi tasniflarni, turkumlashni tavsiya etish mumkin.

Korxonada xarajatlarining elementlari bo'yicha tasnifi:

1. Xomashyo va materiallar.

a). Xomashyo va asosiy materiallar.

b). Yoqilg'i va energiya.

v). Tabiiy xom ashyo.

g). Boshqa material xarajatlar.

2. Korxonada xodimlarining ish haqi to'lovlari.

a). Ishlab chiqarish qabilidagi ish haqi to'lovlari.

b). Ishlab chiqarish xodimlari bo'yicha ijtimoiy chegirmalar.

v). Ishlab chiqarish xodimlari bo'yicha operatsiya xarajatlari.

g). Boshqaruv xodimlarga ish xaqi to'lovlari.

d). Boshqaruv xodimlari bo'yicha ijtimoiy chegirmalar.

e). Boshqaruv xodimlari bo'yicha operatsiya xarajatlari.

3. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amartizatsiyasi.

a). Asosiy vositalar va ishlab chiqarish qabilidagi nomoddiy aktivlarning amartizatsiyasi.

b). Ishlab chiqarish qabilida bo'lmagan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amartizatsiyasi.

4. Boshqa xarajatlar.

a). Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.

- b). Favqulodda xarajatlar.
- v). Boshqa moddiy va mehnat xarajatlari.

Bu tasnif ma'lumotlaridan foydalanib, korxonalar xarajatlarining alohida elementlari va ularning tarkibiy o'zgarishini tahlil qilish bilan birga korxonalar faoliyatidagi moddiy sig'imni, xomashyo sig'imini, energiya va yoqilg'i sig'imini, fond sig'imini, mahsulot sig'imini tahlil qilishimiz mumkin.

Korxonalar xarajatlarining moddalari bo'yicha tasnifi:

1. Xomashyo va asosiy materiallar.
2. Ishlab chiqarish qabilidagi ish haqi.
3. Ishlab-chiqarish xodimlari bo'yicha ijtimoiy chegirmalar.
4. Ishlab chiqarish xodimlari bo'yicha operatsiya xarajatlari.
5. Ishlab chiqarish qabilidagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi.

6. Sex xarajatlari.

- a). Moddiy xarajatlar.
- b). sex ma'muriy asosiy vositalar amortizatsiyasi.
- v). sex ma'muriy xodimlari ish haqi.
- g). sex ma'muriy xodimlari ish haqi bo'yicha ijtimoiy chigirmalar.
- d). Ma'muriy xodimlar bo'yicha operatsiya xarajatlari.

6.6. Boshqa sex xarajatlari.

7. Umumzavod xarajatlari.

- a). Moddiy xarajatlar.
- b). Umumzavod ma'muriy asosiy vositalar amortizatsiyasi.
- v). Umumzavod ma'muriy xodimlari ish haqi.
- g). Umumzavod ma'muriy xodimlari ish haqi bo'yicha ijtimoiy chigirmalar.
- d). Umumzavod ma'muriy xodimlari bo'yicha operatsiya xarajatlari.
- e). Boshqa umumzavod xarajatlari.

Ma'lumki, xarajatlar elementlari bo'yicha yalpi mahsulot tannarxi, xarajatlar moddalari bo'yicha tovar mahsuloti tannarxi aniqlanadi. Xarajatlar moddalari ma'lumotlariga binoan korxonaning ishlab chiqarish (p.p. 1-5) va noishlab chiqarish (p.p.6-7) xarajatlarini yoki asosiy va qo'shimcha xarajatlarning tarkibini, ular o'rtasidagi nisbatni tahlil etish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, qabul qilingan Nizom xalqaro standartlarga javob bersada, tannarx ko'rsatkichlarini tahlil qilishni birmuncha murakkablashtiryapti. Nizom asosida tasdiqlangan moliyaviy hisobotlar, tavsiya etilgan tasniflar ma'lumotlaridan foydalanib, tannarxni tahlil qilish quyidagi yo'nalishlarda o'tkazilishi mumkin:

- korxonalar xarajatlari tarkibini tahlil qilish;
- tannarx ko'rsatkichlari darajasini va dinamikasini tahlil qilish;
- mahsulotlar tannarxiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish.

Ma'lumki, fan-texnikaning rivojlanishi, ishlab chiqarishni takomillashtirish natijasida ishlab chiqilgan mahsulotning tannarxi tarkibida asosiy xarajatlarning salmog'i oshib, qo'shimcha xarajatlarning salmog'a pasayib borishi lozim. Nizomda korxonalar xarajatlari asosiy va qo'shimcha xarajatlarga turkumlashtirilmagan bo'lsada, ularning o'zgarishini tahlil qilish zarur. «Qushimcha xarajatlar», «Davr xarajatlari» tarkibida bo'lsada, ularni kamaytirish vazifasi mavjudir, Demak, bu tahlil etilishi

kerak.

Xarajatlar tarkibini tahlil qilish tannarxining alohida ko'rsatkichlari tahlil bilan birgalikda o'tkazilishi lozim. Bu ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarning tannarxi ko'rsatkichlari hamda har bir so'mlik tovar mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlardir.

Tannarx ko'rsatkichlari tarkibida asosiy ko'rsatkich har bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajatlar hisoblanadi va bu ko'rsatkich tovar mahsulotining tannarxini tovar mahsulotining ulgurji narxda olingan hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Tovar mahsulotining hajmi ulgurji narxda aniqlaganda qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq va aktsiz soliqlar hisobidan chiqarib tashlanadi. Tahlil qilinayotgan korxonamiz bo'yicha tannarx ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz.

## 16-jadval

### Mahsulot tannarxi ko'rsatkichlari (ming so'm)

	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika, foiz
1. YAlpi mahsulot tannarxi	65500	63500	103,1
2. Tovar mahsulotning to'liq tannarxi	65500	63500	103,1
3. Tovar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	63100	62400	101,1
4. Sotilgan mahsulot tannarxi	58500	57400	101,9
5. Ulgurji narxdagi tovar mahsuloti	68500	67400	101,6
Bir so'mlik tovar mahsulot uchun ketgan xarajat (2:5), tiyin	91,2	90,9	101,6

Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada tannarx ko'rsatkichlarining hammasi ko'tarilgan. Demak, tannarxni o'zgarishi korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Yalpi mahsulot tannarxi ko'tarilishi tovar mahsuloti tannarxi ko'tarilishidan yuqori bo'lganligining sababi shundaki, tahlil qilinayotgan davrda yalpi mahsulotning o'sish sur'ati tovar mahsulotining o'sish sur'atidan ko'proq bo'lgan. Tovar mahsulotining to'liq tannarxi ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan ko'proq qimmatlashgani - korxonada qo'shimcha xarajatlarning ko'payganligini ko'rsatadi.

Mahsulot tannarxini tahlil qilish tannarxga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tahlili bilan yakunlanishi lozim.

### Tayanch iboralar

Korxonalarining joriy aktivlari moddiy – tovar zaxiralar, ular ishlab chiqarishning bir siklida foydalaniladi.

Aylanma mablag'larning aylanishi – yil, yarim yil, chorakda joriy aktivlarni qayta ishlab chiqarilish miqdori.

Mahsulotlar tannarxi – korxonalarda mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish uchun xarajatlar summasi.

Ishlab chiqarish tannarxi – mahsulot ishlab chiqarish uchun xarajatlar.

Davr xarajatlari – korxonada foydasi hisobidan qoplanadigan qo'shimcha xarajatlar.

## **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Aylanma mablag‘lar – joriy aktivlar deb nimani tushunasiz?
2. Nima uchun aylanma mablag‘lar aylanishining o‘zgarishi korxonalarining moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatadi?
3. Aylanma mablag‘lar aylanishining o‘zgarishi korxonalar moliyaviy holatiga ta’siri qanday ko‘rsatkichlar orqali tahlil etiladi va ular qanday aniqlanadi?
4. Korxonalar aylanma mablag‘larining aylanishini o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
5. Tannarx deb nimani tushunasiz.
6. Korxonalar xarajatlarining tarkibi qanday tahlil etiladi.
7. Mahsulotlar tannarxi ko‘rsatkichlari nimalardan iborat va ular qanday tahlil etiladi?



## V BOB. KORXONANING ISHCHANLIK VA BOZORGA OID FAOLLIGI TAHLILI

### 5.1. Korxonalarining ishchanlik faolligi tahlili

Oldindan aytilganidek, xalq xo'jaligini bozor munosabatlariga o'tkazilishi korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish va o'tkazishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida korxonalar faoliyatini tahlil qilishda tahlilchilarning asosiy e'tibori korxonalar faoliyatida davlat tomonidan tasdiqlangan mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha rejalarni bajarishni aniqlashga safarbar etilardi. Bozor munosabatlari shart-sharoitida korxonalar faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish o'rtasidagi o'zaro nisbat, asosan, mahsulotga bo'lgan talab va taklif bilan aniqlanadi. Demak, ishlab chiqarilgan mahsulot ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarga moslangan bo'lib, bu mahsulotlarning iste'molchilarini aniqlash lozim.

Shu munosabat bilan korxonalar faoliyatida ishchanlik va bozorga oidlikni tashkil etish - ularni rivojlantirishni talab qiladi va bu vaziyat o'z navbatida korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, korxonalarini ishchanlik va bozorga oidligini tahlil qilishning ob'yektiv zarurligini tasdiqlaydi. Ishchanlik va bozorga oidlik korxonalarining iqtisodiy mustahkamligi, qabul qilingan rejalarni o'z vaqtida bajarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bozor talablariga mosligi, raqobatdoshligi, korxonalarining asoslangan istiqboli mavjudligi bilan bog'liq.

Korxonalarining ishchanligi quyidagi o'zaro nisbat bog'lanishga to'g'ri kelishi lozim:

$$\text{Korxonalar foydasining} > \text{Mahsulot sotishning} > \text{Korxonalar mol-mulki} \\ \text{dinamika indeksi} > \text{dinamika indeksi} > \text{qiymatining indeksi}$$

Ya'ni, korxonalar foydasining ko'payish sur'ati mahsulot sotishning ko'payishi sur'atidan yuqori bo'lishi lozim va bu oxirgi ko'rsatkich korxonalar mol-mulki qiymatini ko'payish sur'atidan yuqori bo'lishi lozim, masalan:

$$120 \text{ foiz} > 110 \text{ foiz} > 105 \text{ foiz.}$$

Bu o'zaro bog'lanish, nisbat jahon tajribasida «korxonalar iqtisodiyotining oltin qoidasi» deb ataladi. Bu qoidaga rioya qilish uchun korxonada ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, mahsulotlar sifatini oshirib borish, ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini ko'tarish talab etadi. Korxonalar ishchanligi uning iqtisodiy mustahkamligi va boshqa korxonalar, tashkilotlar bilan bo'lgan aloqalarining intensivligi bilan aniqlanadi.

Korxonalar ishchanligi ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvoffaq:

1. Korxonalar aktivining aylanish ko'rsatkichi =  $\frac{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}{\text{Korxonalar aktivlarining o'rtacha qiymati}}$
2. Uzoq muddatli aktivlarning aylanish ko'rsatkichi =  $\frac{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}{\text{Uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha qiymati}}$
3. Umumiy aylanma mablag'larning aylanish ko'rsatkichi =  $\frac{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}$

		$\frac{\text{Umumiy aylanma mablag'larining o'rtacha qiymati}}{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}$
4.	Zaxira va xarajatlarning aylanish ko'rsatkichi	$= \frac{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}{\text{Zaxira va xarajatlarning o'rtacha qiymati}}$
5.	Korxonaga tegishli kapitalning aylanish ko'rsatkichi	$= \frac{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$
6.	Tayyor mahsulotning aylanish ko'rsatkichi	$= \frac{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}{\text{Tayyor mahsulot qoldiqlarining o'rtacha qiymati}}$
7.	Debitorlik qarzlarning aylanish ko'rsatkichi	$= \frac{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}{\text{Debitorlik qarzlarning o'rtacha hajmi}}$
8.	Debitorlik qarzlarni o'rtacha muhlati (yillik)	$= \frac{365 \text{ kun}}{\text{Debitorlik qarzlarning aylanish ko'rsatkichi}}$
9.	Kreditorlik qarzlarning aylanish ko'rsatkichi	$= \frac{\text{Sotilgan mahsulot tushumi}}{\text{Kreditorlik qarzlarning o'rtacha hajmi}}$
10.	Kreditorlik qarzlarning o'rtacha muhlati (yillik)	$= \frac{365 \text{ kun}}{\text{Kreditorlik qarzlarning aylanish ko'rsatkichi}}$
11.	Pul aylanma mablag'larining aylanish ko'rsatkichi	$= \frac{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}{\text{Pul aylanma mablag'larining o'rtacha hajmi}}$
12.	Sotilgan mahsulotlarning har bir so'miga aylanma mablag'lar sarfi	$= \frac{\text{Umumiy aylanma mablag'larining o'rtacha qiymati}}{\text{Sotilgan mahsulotlar tushumi}}$

Yuqorida ko'rilgan ko'rsatkichlarni aniqlash usuli to'g'risida gap borar ekan, quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

Birinchidan, agar tahlil qilinayotgan korxonaga qo'shilgan qiymatga solinadigan soliqqa va aktsiz soliqqa tortilsa, sotilgan mahsulotlar tushumidan ular chiqarib tashlanishi lozim.

Ikkinchidan, ishchanlik ko'rsatkichlari o'zaro bog'langan bo'lishligi uchun yuqorida berilgandek, ishchanlik ko'rsatkichlari yagona sotilgan mahsulotlar tushumiga asoslangan holda aniqlanishi lozim.

Keltirilgan ko'rsatkichlardan ayonki, ishchanlik darajasini tahlil qilish — korxonalar umumiy aktivlari, ularning alohida elementlaridan foydalanishni ifodalaydi. Masalan, korxonalar umumiy aktivlari aylanishi ko'rsatkichi korxonalarda mavjud asosiy va aylanma mablag'lardan ishlab chiqarish jarayonida qanday foydalanayotganligini ifodalaydi. Korxonalarda foydalanayotgan aktivlarning

alohida elementlari har xil aylanishga ega bo'lganligi sababli, ularning aylanishi alohida tahlil etiladi.

Ma'lumki, korxonalar o'zlik va tashqaridan qarzga olingan mablag'lardan foydalanadilar, Demak, ularning aylanishi alohida tahlil etilishi lozim. Ishchanlikni tahlil qilish korxonalarda aktivlardan yanada samarali foydalanish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Hammasi bo'lib ishchanlik ko'rsatkichlari 12 ta bo'lib, yuqorida ulardan 9 tasi bo'yicha hisoblash usullari berilgan, qolganlarini aniqlash uchun 8,10, 12 va boshqa hisoblangan ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Quyidagi jadvalda bu ko'rsatkichlarning amaliy materiallarda hisoblash natijalari berilgan:

**17-jadval.**

**Korxonaning ishchanlik ko'rsatkichlari (ming so'm)**

Ma'lumotlar bazasi (ming.so'm)	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika, foiz
1. Sotilgan mahsulotlar tushumi	76330	72500	105,6
2. Korxonona aktivlarining o'rtacha qiymati	30550	27868	109,6
3. Korxonona kapitalining o'rtacha qiymati	20120	18500	108,7
4. Uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha qiymati	8500	7800	108,9
5. Umumiy aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati	22050	19968	110,4
6. Zaxira va xarajatlarning o'rtacha qiymati	18500	16600	111,4
7. Pul aylayama mablag'larining o'rtacha qiymati	3550	3367	105,4
3. Tayyor mahsulotning o'rtacha qiymati	9300	7500	124,0
9. Debitorlik qarzlarning o'rtacha qiymati	2500	2000	125,0
10. Kreditor qarzlarning o'rtacha qiymati	4500	4000	112,5
Ko'rsatkichlar (marta hisobida)			
1. Korxonona aktivlarining aylanishi	2,5	2,6	96,1
2. O'zoq muddatli aktivlarning aylanishi	8,9	9,3	95,7
3. Umumiy aylanma mablag'larning aylanishi	3,5	3,6	97,2
4. Zaxira va xarajatlarning aylanishi	4,1	4,4	93,2
5. Korxonona kapitalining aylanishi	3,5	3,5	97,4
6. Tayyor mahsulotning aylanishi	8,2	9,7	84,5
7. Debitorlik qarzlarning aylanishi	30,5	36,2	84,3
8. Debitorlik qarzlarning o'rtacha muhlati (kunlar)	12	10	120
9. Kreditorlik qarzlarning aylanishi	16,9	13,1	93,3
10. Kreditorlik qarzlarning o'rtacha muhlati (kunlar)	19,9	18,1	109,9
1. Pul mablag'larining aylanishi	21,5	21,6	99,5
12. Sotilgan mahsulotlar har so'miga aylanma mablag'lar sarfi (tiyin)	28,0	27,5	101,8

Ko'rinib turibdiki, o'tgan davrda korxonada ishchanlik faolligi susaygan. Buni sotilgan mahsulotlarning o'sish sur'ati korxonona aktivlarini o'sish sur'atidan kamchiligi ko'rsatib turibdi. Boshqa korxonalar bilan aloqalar ham murakkablashgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- korxonona moliyaviy resurslaridan foydalanish darajasi pasaydi;
- korxonona aktivlarining deyarli hamma elementlari aylanishi sekinlashdi;
- operatsion sikl muhlati uzunlashdi.

Demak, korxonada hali foydalanilmagan imkoniyatlar ko'p. Korxonalarining alohida elementlari aylanishi to'g'risida gap borar ekan, ularning hammasi bo'yicha bir aylanish uchun sarf qilingan kalendar kunlar va bu aylanishning o'zgarishi natijasida aktivlarning alohida elementlariga nisbatan ularni tejalganligi yoki to'ldirilganligi to'g'risidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilishimiz mumkin.

Bu ko'rsatkichlar korxonalarining ishchanlik aktivligini yanada chuqurroq tahlil etib, kelgusida korxonalarining ishchanligini ko'tarish uchun kerakli tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishni yengillashtiradi.

## 5.2. Korxonalarining bozorga oidligi tahlili

Korxonalar bozor munosabatlari shart-sharoitida ishchanlik darajasini ko'tarish bilan birga, bozorga oidlik darajasini ham ko'tarib turishi lozim. Iqtisodiy adabiyotda korxonalarining bozorga oidligini ularning aksiyalarini jozibadorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lashadi. Fikrimizcha, korxonalarining bozorga oidligi aksiyalarni jozibadorligiga qaraganda keng mazmunda bo'lib, ulardan tashqari yana korxonalarining pul mablag'lari harakati va ulardan oqilona foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan korxonalarining bozorga oidligini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilish lozim:

**1. Korxonalarining aksiyalarini jozibadorlik ko'rsatkichlari.** Bu ko'rsatkichlar korxonalarini bozor iqtisodiyotiga kirishini, bozor tizimlarida qatnashishini, tashqaridan investorlarni, aktsiya oluvchilarni o'z faoliyatiga jalb qilinishini ifodalaydi. Buning uchun korxonalar o'z aksiyalariga dividend berish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Undan tashqari korxonalar aksiyalarining bozor narxi ularning nominal narxidan baland bo'lishini ta'minlash kerak. Bularning hammasini e'tiborga olish uchun quyidagi bozorga oidlik ko'rsatkichlarini tahlil etish maqsadga muvofiq

1. Bitta aktsiyaning potentsial, daromadlilikigi  $= \frac{\text{Korxonaning bir aktsiyasiga sof foyda}}{\text{Bitta aktsiyaning bozor narxi}}$
2. Bitta aktsiyaning haqiqiy daromadlilikigi  $= \frac{\text{Bitta aktsiyaga dividend summasi}}{\text{Bitta aktsiyaning nominal narxi}}$
3. Bitta aktsiya kurs bahosining o'zgarish koeffitsienti  $= \frac{\text{Aktsiyaning sotuv bahosi} - \text{Aktsiyaning sotib olish bahosi}}{\text{Bitta aktsiyaning nominal narxi}}$
4. Aktsiyalar bo'yicha to'langan dividendlarning salmog'i  $= \frac{\text{Barcha to'langan dividendlar summasi}}{\text{Korxonaning sof foydasi}}$

Aktsiya egalari korxonaning sof foydasidan dividendlar uchun ajratilgan qismi, aksiyalarining biror bahosini oshib borishi, dividend stavkalari bilan qiziqadilar. Bu savollarni hammasiga yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar to'liq javob beradi. Bu ko'rsatkichlarning darajasi va ularning o'zgarishi 18-jadvalda berilgan.

Ko'rinib turibdiki, korxonalar aksiyalari jozibadorligi yuqori darajada. Korxonalar 100 ming so'mlik aksiyalarni chiqargan. Bitta aktsiyaning ham potentsial, ham

haqiqiy daromadlilik darajasi va aktsiyalarning bozordagi bahosi oshib bormoqda, taqsimlash uchun ajratilgan foyda ko'paymoqda.

Demak, korxonada aktsiyalarining jozibadorligi uning moliyaviy holatni yaxshilashda asosiy omillardan biriga aylangan. Korxonalarda ishlab chiqarish to'g'ri tashkil qilinsa, yuqorida ko'rilgan ko'rsatkichlarning hammasi oshib boradi. Lekin amaliyotda ular yoki oshadi, yoki kamayadi, ba'zi birlari oshsa, boshqalari kamayadi. Shu sababli korxonada aktsiyalarining jozibadorligi tahlil etilganda, asosiy vazifa bu ko'rsatkichlarni o'zgarishida umumiy yo'nalishni aniqlashdan iborat va shunga qarab bu ko'rsatkichlarni kelgusida ko'tarish yo'llarini aniqlash kerak.

**18-jadval.**

**Korxonada aktsiyalarining jozibadorlik ko'rsatkichlari**

	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika, foiz
Ma'lumotlar bazasi:			
1. Bitta aktsiyaning nominal bahosi (so'm)	1000	1000	100
2. Bitta aktsiyaning bozor bahosi (so'm)	1500	1300	115,4
3. Bitta aktsiyaga sof foyda (so'm)	300	250	120
4. Bitta aktsiyaga dividend summasi (so'm)	100	80	125
5. Umumiy to'langan dividendlar hajmi (ming so'm)	10	8	125
6. Korxonaning sof foydasi (ming so'm)	30	25	120
Ko'rsatkichlar:			
1. Bitta aktsiyaning potentsial daromadlilik (so'm)	20	19,3	103,8
2. Bitta aktsiyaning haqiqiy daromadlilik (so'm)	10	3	125
3. Bitta aktsiya kurs bahosining o'zgarish koeffitsienti	50	30	166,6
4. Aktsiyalarga to'langan dividendlarning salmog'i	33,3	32,0	104,1

**2. Korxonada pul mablag'larining aylanish ko'rsatkichlari.** Bu ko'rsatkichlar korxonada pul mablag'larining holatini, harakatini, shakllanishini va foydalanish darajasini aniqlashga yordam berish kerak. Pul harakatlari to'g'risidagi 4-shakl, hisobotiga asoslanib, pul mablag'larning aylanishini tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tavsifiya etiladi:

1. Xo'jalik faoliyatidagi pul mablag'lar oqimlari.
2. Sarmoyalardan olingan foyda va moliyaviy xizmatlar.
3. Soliqqa tortilish.
4. Sarmoya faoliyati.
5. Moliyaviy faoliyat.
6. Ijara bo'yicha to'lovlar va tushumlar.
7. Valyuta mablag'lari oqimlari.

Korxonaning pul mablag'lari xazinada, hisob-kitob va valyuta schyotlarida saqlanadi. Pul mablag'larining ko'payib borishi, albatta, korxonalar faoliyatining ijobiy natijasi bo'lib hisoblanadi, lekin bozor munosabatlari davrida pul mablag'lari bekorga yig'ilib yotishi kerak emas. Ortiqcha pul mablag'lari ishlab chiqarishni kengaytirishga, ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini ko'tarishga, aktsiyalar sotib olishga va boshqa maqsadlarda foydalanishga sarflanishi lozim.

Korxonalar faoliyatidagi pul mablag'lari oqimlari — iste'molchilardan olingan, ta'minotchilarga hamda xodimlarga to'langan pullar. Sarmoyalar moliyaviy xizmatlar

bilan bog‘liq bo‘lgan foyda va xarajatlar bu depozitlarga, aktsiyalarga olingan foizlar, dividendlar, va kreditlarga to‘langan foizlar, aktsiyalarga berilgan dividendlardan iboratdir.

Sarmoyalik faoliyati nomoddiy aktivlarni hamda uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olishni, ularni sotishni, uzoqqa, qisqa muddatli sarmoyalarni ifodalaydi. Bu ko‘rsatkichlar korxonalarni kelgusi faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishini, istiqbolini ko‘rsatadi.

Moliyaviy faoliyati ko‘rsatkichlari ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular aktsiyalar chiqarishni, o‘zoq va qisqa muddatga olingan majburiyatlarni. Ijara aloqalar bo‘yicha daromad va xarajatlarni ifodalaydi.

Valyuta mablag‘lari oqimlari — valyuta tushish yo‘nalishlarini va ulardan foydalanish yo‘nalishlarini tahlil qilishga yordam beradi.

Pul mablag‘larning aylanish ko‘rsatkichlarini quyidagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin:

### 19-jadval.

#### Korxonalarining pul mablag‘larini aylanish ko‘rsatkichlari (ming so‘m)

	Joriy davrda	O‘tgan davrda	Dinamika, foiz
1	2	3	4
<b>I. Xo‘jalik faoliyatidagi pul mablag‘lari oqimlari:</b>			
1. Iste‘molchilardan olingan pullar	50300	45200	111,3
2. Ta‘minotchilarga to‘langan pullar	21300	19500	109,2
3. Xodimlarga to‘langan pullar	15000	13000	115,4
4. Boshqa tushgan va sarf qilingan pul mablag‘lar	-	-	-
<b>II. Sarmoya va maliyaviy xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lgan foyda:</b>			
1. Olingan foizlar	300	280	111,1
2. To‘langan foizlar	30	25	120
3. Olingan dividendlar	500	450	111,1
4. To‘langan dividendlar	60	50	120
<b>III. Soliqqa tortilish:</b>			
1. Foydadan olinadigan soliq	10500	9800	107,1
2. Boshqa soliqlar	1500	1490	100,6
<b>IV. Sarmoya faoliyati:</b>			
1. Nomoddiy aktivlarni sotib olish, sotish	100	90	111,1
2. Uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, sotish	5000	4800	104,1
3. Uzoq va qisqa muddatli sarmoyalar	12000	11000	109,1
<b>V. Moliyaviy faoliyat:</b>			
1. Aktsiyalardan tushumlar	500	500	100
2. Uzoq va qisqa muddatli zayomlardan tushumlar	-	-	-
3. Ijara bo‘yicha tushumlar va sarflar	50	50	100
<b>VI. Valyuta mablag‘lari oqimlari:</b>			
Valyuta tushumlari:			
1. Mahsulot sotishdan	50300	43000	111,3
2. Olingan kredit	12000	11000	120
3. Boshqa tushumlar	-	-	-
<b>Valyuta sarflari:</b>			
1. Ishlab chiqarishga	20000	18000	111,1

2. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga	5000	5000	100
3. Ta'minotchilarga	21300	19500	109,2
4. Kreditlarga va boshqa sarflar	1000	2000	50

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ilgari moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilmas edi. Yangi moliyaviy hisobot bozor munosabatlariga moslangan bo'lib, yangi ma'lumotlar korxonalarining bozorga oidligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, korxonada:

- bozorga oid faoliyat kuchaytirilyapti;
- pul oqimlari ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha rivojlanmoqda;
- moliyaviy faoliyat ijobiy natijalarga ega;
- byudjet bilan aloqalar rivojlanib bormoqda;
- tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanmoqda. Valyuta tushumlari ko'paymoqda;
- ta'minotchilar bilan aloqalar jadallashtirilyapti.

### **3. Debitorlik, kreditorlik qarzlari ko'rsatkichlari.**

Bozor munosabatlari davrida debitorlik va kreditorlik qarzlarning tutgan o'rnidan tubdan o'zgaradi. Sobiq Ittifoq davrida korxonalarining faoliyati markazlashtirilgan bo'lib, butun korxonalarining faoliyat muammolari markazlashtirilgan boshqaruv orqali yechilar edi.

Korxonalarini resurslar bilan ta'minlash davlat limitlari bilan, mahsulot ishlab chiqarishga xalq xo'jalik rejalari bilan, mahsulotlarni sotish davlat tomonidan tasdiqlangan mintaqalararo, respublikalararo, tarmoqlararo kooperatsiyalashtirish rejalari bilan aniqlanardi. Natijada debitorlik va kreditorlik qarzlari alohida korxonalar faoliyati bilan bog'liq bo'lmay, tashqi, xalq xo'jaligi aloqalari va muammolari bilan aniqlanar edi.

Bozor munosabatlari davrida korxonalariga formal emas, real iqtisodiy mustaqillik beriladi. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonunida ta'kidlanganki, bozor munosabatlari shakllanish paytida «Davlat korxonalariga javob bermaydi», «Korxonalar davlatga javob bermaydi». Korxonalar o'z vaqtida tasdiqlangan soliq va to'lovlarni berib turishi kerak. Davlat esa ilgari dotatsiya va subsidiyalarni kamaytirib, korxonalar ustidan umumiy boshqaruvni saqlaydi.

Bu vaziyatda debitorlik va kreditorlik qarzlari korxonalarining bozorga oidligini ifodalovchi katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlarga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o'zining maxsus buyrug'i bilan debitorlik va kreditorlik to'g'risidagi hisobotni moliyaviy tahlilning asosiy moliyaviy manbalaridan biri sifatida tasdiqlagani tasodifan emas.

Debitorlik qarz — «boshqalarning menga qarzi», kreditorlik qarz — «mening boshqalarga qarzim» deb ifodalash mumkin. Debitorlik va kreditorlik qarzlari korxonalararo iqtisodiy aloqalarni, o'zaro hisob-kitoblarni ifodalab, ular bozor munosabatlari davrida korxonalarining ishlab chiqarishga, moliyaviy holatiga, bozorga oidligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biriga aylanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida ilgari shakllangan korxonalararo iqtisodiy aloqalar tarqalib ketdi. Bu aloqalarni yangi shart-sharoitlarda yangichasiga tubdan

o'zgartirib shakllantirish zaruriyati paydo bo'ldi. Natijada korxonalararo aloqalar murakkablashdi va debitorlik-kreditorlik qarzlari ko'payib boshladi, ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammoga aylandi.

Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holatini yaxshilash, xalq xo'jaligidagi iqtisodiy hisob-kitoblarni tezlashtirish, bu borada korxonalar va tashkilotlar rahbarlari javobgarligini oshirish maqsadida 1994 yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq xo'jalikida hisob-kitoblarni o'z vaqtida olib borishda korxonalar va tashkilot rahbarlarining javobgarligini oshirish to'g'risida», 1996 yil 24 yanvarda «To'lov intizomini va o'zaro hisob-kitoblarni mustahkamlash to'g'risida», 1997 yil 11 martda «Qishloq xo'jaligida hisob-kitob tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonlari qabul qilindi.

Demak, korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishda debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlil etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Debitorlik qarzlari — korxonalar mablag'laridan bir qismini ularning faoliyatidan chetga chiqarish, ularning moliyaviy holatini og'irlashtirish hisoblanadi. Debitorlik qarzlari korxonalar naqt pulga va moddiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini chegaralaydi. Bu ehtiyojlarni qoplash uchun korxonalar tashqi mablag'larni safarbar etishga majbur bo'ladilar. Debitorlik qarzlarning ko'payib borishi korxonalar aylanma mablag'larining aylanishini sekinlashtiradi. Demak, moliyaviy holatini og'irlashtiradi.

Respublikada 1997 yildan boshlab qabul qilingan buxgalteriya balansiga binoan debitorlik qarzlari o'z tarkibiga quyidagilarni oladi: sotib oluvchilar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar; avans (bo'nak) to'lovlar; byudjet bilan hisob-kitoblar; korxonalar xodimlari bilan hisob-kitoblar; shu'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar; assotsiatsiya qilingan korxonalar bilan hisob-kitoblar; ta'sis etuvchilar bilan hisob-kitoblar; boshqa debitorlik qarzlari.

Kreditorlik qarzlari tarkibiga qabul qilingan buxgalteriya balansida ko'rsatilganidek quyidagilar kiradi: mol yetkazib beruvchilarga qarzlari; byudjet bo'yicha qarzlari; mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari; ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlari; mulkiy va shaxsiy sug'urtalar bo'yicha qarzlari; byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlari; shu'ba korxonalariga qarzlari; uyushma korxonalariga qarzlari; boshqa kreditorlarga qarzlari.

Kreditorlik qarzlari ham korxonalararo hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazmaslik natijasida paydo bo'ladi. Lekin kreditorlik qarzlari mablag'larni korxonalar faoliyatidan tashqariga chiqarish emas, aksincha, korxonalar faoliyatiga boshqa korxonalar va tashkilotlarning mablag'larini jalb qilish demakdir.

Kreditorlik qarzlari — «boshqa korxonalar hisobidan faoliyat ko'rsatish» desa ham bo'ladi. Chunki ko'p korxonalar mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplash uchun bank kreditlaridan emas, kreditorlik qarzlariidan foydalanmoqdalar.

Demak, kreditorlik qarzlari ko'payishi boshqa korxonalar moliyaviy holatiga olib kelsa, debitorlik qarzlari ko'payishi korxonalar o'z majburiyatlaridan qutilish imkoniyatlarini kamaytiradi, aylanma mablag'larning aylanishini susaytiradi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlil etilganda ular hajmining o'zgarishi-dinamikasi va o'zaro nisbati aniqlanadi. Bu qarzlarning dinamikasi aniqlaganda ham



debitorlik ham kreditorlik qarzlari bo'yicha muhlatli va muhlati o'tgan qarzlari alohida tahlil etiladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari o'rtasidagi nisbat har xil, ularning hajmi esa bir xil bo'lishi mumkin. Debitorlik qarzlari kreditorlik qarzlariidan, kreditorlik qarzlari esa debitorlik qarzlariidan ko'p bo'lishi mumkin.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari optimallashtirish muammosi katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1998 yil 4 avgustda «Debitorlik va kreditorlik qarzlari solishtirishni o'tkazish to'g'risida»gi qarorida tasdiqlangan. Bu qarorda debitorlik va kreditorlik qarzlari solishtirish yo'llari va ularni tahlil qilish uchun foydalanadigan ko'rsatkichlar tizimi berilgan.

«Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida dalolatnoma» (2a-shakl) va moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanib, bu qarzlari quyidagicha tahlil qilinishi mumkin:

## 20-jadval

### Debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy ko'rsatkichlari (ming so'm)

	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika, %
1. Umumiy qarzlari:			
Debitorlik	800	700	114,3
Kreditorlik	1000	800	125,0
Shu jumldan, respublikadan tashqarida:			
Debitorlik			
Hajmi	200	150	133,3
Salmog'i, foiz	25	21,4	116,8
Kreditorlik			
Hajmi	300	250	120,0
Salmog'i, foiz	20	31,3	95,8
2. Umumiy qarzlardan muhlati o'tgan qarzlari:			
Debitorlik			
Hajmi	500	400	125,0
Salmog'i, foiz	62,5	57,1	109,5
Kreditorlik			
Hajmi	700	600	116,7
Salmog'i, foiz	70,0	75,0	93,3
Shu jumladan, respublikadan tashqarida:			
Debitorlik			
Hajmi	300	200	150
Salmog'i, foiz	60	50	120,0
Kreditorlik			
Hajmi	500	400	125
Salmog'i, foiz	71,4	66,7	107

Jadval ma'lumotlariga binoan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Korxonada ham debitorlik ham kreditorlik qarzlari ko'paygan.
2. Debitorlik va kreditorlik qarzlari ham respublikada, ham respublikadan tashqarida ko'paygan. Debitorlik qarzlari tarkibida respublikadan tashqarida bo'lgan qarzlari salmog'i oshgan, kreditorlik qarzlari bo'yicha bu ko'rsatkich bir oz kamaygan.

3. Ham debitorlik ham kreditorlik qarzlari tarkibida muxlati o'tgan qarzlarning salmog'i yuqori bo'lib, debitorlik qarzlari bu ko'rsatkich bo'yicha o'sgan, kreditorlik qarzlari bo'yicha bir oz pasaygan.

4. Muddati o'tgan debitorlik, kreditorlik qarzlari asosan respublikadan tashqarida joylashgan va bu holat ularni kamaytirishni og'irlashtiradi.

Ko'rinib turibdiki, debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha korxonada past darajada bozorga oiddir. Demak, bu borada korxonada kerakli tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 4 avgustida qabul qilingan qaroriga binoan debitorlik va kreditorlik qarzlari doimo, har tomonlama tahlil qilib turish vazifasi qo'yilgan. Buning uchun yana quyidagi jadvalda berilgan ko'rsatkichlardan foydalanish lozim.

**21-jadval.**

**Debitorlik qarzlari ko'rsatkichlari (ming so'm)**

	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika, foiz
1. Qarzlarning umumiy hajmi	800	700	114,3
Shu jumladan:			
Muddatli, 60 kungacha			
Hajmi	300	300	100,0
Salmog'i, foiz	37,5	42,9	88,0
Muxlati o'tgan			
Hajmi	500	400	125,0
Salmog'i, foiz	62,5	51,9	122,3
Ulardan:			
60 kundan 1 yilgacha			
Hajmi	200	150	133,3
Salmog'i, foiz	40,0	37,5	106,6
1 yildan 3 yilgacha			
Hajmi	200	150	133,3
Salmog'i, foiz	40,0	37,5	106,6
3 yildan oshgan			
Hajmi	100	100	100
Salmog'i, foiz	20,0	25,0	80,0
2. Umumiy qarzlardan:			
Sotib oluvchilar bilan hisob-kitoblar			
Hajmi	500	400	125,0
Salmog'i, foiz	62,5	57,1	109,9
Avans to'lovchilar			
Hajmi	200	150	133,3
Salmog'i, foiz	25,0	21,4	116,8
Xodimlar bilan hisob-kitoblar			
Hajmi	60	100	60,0
Salmog'i, foiz	7,5	14,3	48,0
Boshqa qarzlari			
Hajmi	40	50	80
Salmog'i, foiz	5,0	7,1	70,4

Jadval ma'lumotlariga ko'ra:

- debitorlik qarzlari muhlatlari e'tiborga olinadi. Qarzlarning muxlati 3 yildan oshsa, bu qarzlari umidsiz hisoblanadi;

- debitorlik qarzlari alohida turlar bo'yicha tahlil etiladi;

- korxonada muxlati o'tgan qarzlarning salmog'i umuman ko'tarilgan. Lekin shu bilan birga muxlati 3 yildan oshgan qarzlarning salmog'i 5 % ga kamaygan;

- debitorlik qarzlarning asosiy qismi mahsulot sotib oluvchilarga to'g'ri keladi va ularning salmog'i 57,1 % dan 62,5 % gacha ko'tarilgan.

Demak, korxonada debitorlik qarzlarni kamaytirish, ularning tarkibini takomillashtirish va shu yo'l bilan uning moliyaviy holatini yaxshilash korxonada faoliyatida kun tartibiga qo'yilgan masalalardan biridir.

Endi, xuddi shu tarzda kreditorlik qarzlari ko'rsatkichlarini qarab chiqamiz.

## 22-jadval.

### Kreditorlik qarzlari ko'rsatkichlari (ming so'm)

	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika, fanz
1. Qarzlarning umumiy hajmi:	1000	800	125,0
Shu jumladan:			
Muxlatli, 60 kungacha			
Hajmi	600	500	120,0
Salmog'i, foiz	60,0	62,5	96,0
Muxlati o'tgan			
Hajmi	400	300	133,3
Salmog'i, foiz	40,0	37,5	106,7
Ulardan:			
60 kundan 1 yilgacha			
Xajmi	100	100	100
Salmog'i, foiz	25,0	33,3	75,0
1 yildan 3 yilgacha			
Xajmi	200	150	133,3
Salmog'i, foiz	50,0	50,0	100,0
3 yildan oshgan			
Hajmi	100	50	200,0
Salmog'i, foiz	25,0	16,7	149,7
2. Umumiy qarzlardan:			
Ta'minotchilar bilan hisob-kitoblar			
Hajmi	600	500	120,0
Salmog'i, foiz	60,0	62,5	96,0
Olingan avanslar (bo'naklar)			
Hajmi	100	100	100
Salmog'i, foiz	10,0	12,5	89,3
Mehnatga to'lov bo'yicha			
Hajmi	250	150	166,6
Salmog'i, foiz	25,0	18,7	133,7
Boshqa qarzlari			
Hajmi	50	50	100
Salmog'i, foiz	5,0	6,3	79,4

Jadval ma'lumotlariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- kreditorlik qarzlarning ko'payib borishi ham muhlatli, ham muhlatdan o'tgan qarzlarning hisobidan bo'lgan, lekin muhlati o'tgan qarzlarning ko'payishi yuqoriroq sur'atda bo'lgan;

- muhlati o'tgan qarzlarning tarkibida bir yildan o'tgan qarzlarning ko'payishi korxonada muammoga aylangan. Ayniqsa, shuni ta'kidlash kerakki, muhlati 3 yildan oshgan qarzlarning 49,9 % ga ko'paygan. Ma'lumki, kreditorlik qarzlarning tasdiqlangan qaytarib berish muddati 3 yil hisoblanadi. Demak, bu korxonada boshqa korxonalarga nisbatan, iqtisodiy aloqalarni biroz bo'lsa ham (50 ming so'm, 100 ming so'm) adolatsizlikka olib boryapti va u korxonalarni moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti;

- kreditorlik qarzlarning asosiy qismi ta'minlovchilarga to'g'ri keladi. Bu qarzlarning salmog'i 62,5 % dan 60,0 % ga kamaygan bo'lsa-da, ular qarzlarning yarmidan ko'pini tashkil etmoqda. Ta'minotchilar bilan aloqalar yaxshilanmasa, korxonada og'ir ahvolga tushib qolishi mumkin, chunki ta'minotchilar mahsulot bermay qo'yadi;

- korxonada mehnatga to'lov va ijtimoiy sug'urta bo'yicha ham vaziyat yaxshi emas. Bu qarzlarning 33,7 % ga ko'paygan. Demak, o'z vaqtida ish haqi berilmayapti.

Ko'rinib turibdiki, korxonada bozorga oidlikni ko'tarish maqsadida kerakli tadbirlar amalga oshirilishi lozim. 1995 yil 2 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlarning rahbarlari javobgarligini ko'tarish to'g'risida»gi farmoniga binoan, hamma mulk shakllaridagi xo'jalik sub'yektlarida o'z mahsulotlarini iste'molchilarga oldindan 15 % ni to'lovlarsiz jo'natish man qilinganligiga qaramasdan iste'molchilarga mahsulot jo'natilishi davom etayapti. Shu sababli debitorlik qarzlarni alohida sabablar bo'yicha tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Kreditorlik qarzlarni ham alohida sabablari bo'yicha tahlil etishning ahamiyati kattadir.

Shunday qilib, korxonalarining ishchanligini va bozorga oidligini tahlil etish bozor munosabatlari talablariga javob berib, uni o'tkazish moliyaviy tahlilning alohida bosqichiga aylanishi qonuniy zaruriyat bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holati tahlilini chuqurlashtirishga va uni har tomonlama ifodalashga yordam beradi.

### **Tayanch iboralar**

Korxonaning ishchanligi – uning aktivlarining aylanish darajasi.

Korxonalarining bozorga oidligi – ularni moliyaviy resurslarining holati va foydalanish darajasi.

Korxonalar aktsiyalarini jozibadorligi – investorlarni jalb qilish shart-sharoitlari.

Korxonalarining pul mablag'lari – ularning debitorlik qarzlari va kassadagi hisob-kitob va valyuta shchotidagi naqt pullar.

Debitorlik qarzlarning – korxonadan boshqalarning qarzlari.

Kreditorlik qarzlarning – korxonaning boshqalardan qarzlari.

## **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Korxonalarining ishchanligi deb nimani tushunasiz va uning bozor munosabatlaridagi roli nimadan iborat?
2. Korxonalarining ishchanligi qanday ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilinadi, ular qanday aniqlanadi?
3. Korxonalarining bozorga oidligi deb nimani tushunasiz va uning bozor munosabatlaridagi roli nimadan iborat?
4. Korxonalarining bozorga oidligi qanday ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilinadi va ular qanday aniqlanadi?
5. Korxonalarining aksiyalarini jozibadorligi nima va u qanday ko'rsatkichlar orqali tahlil qilinadi?
6. Korxonada pul mablag'larining aylanish ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslublari.
7. Debitorlik, kreditorlik qarzlari deb nimani tushunasiz va ular qanday aniqlanadi?

## VI BOB. KORXONALAR FAOLIYATINING MOLİYAVIY NATIJALARI TAHLILI

### 6.1. Korxonalar foydasi tahlili

Yuqorida korxonalar moliyaviy holatini alohida tomonlari va yoʻnalishlarini tahlil qilish masalalari koʻrib chiqildi. Moliyaviy tahlilning yakuniy bosqichi boʻlib, korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari tahlili hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari foyda va rentabellik koʻrsatkichlari hisoblanadi.

Foyda ijtimoiy ishlab chiqarish hamma bosqichlarining iqtisodiy toifasidir.

Qayerda ijtimoiy ishlab chiqarish barpo etilgan boʻlsa, unda qatnashuvchilarning mehnati ikkiga boʻlinadi — birinchi qismi ishlab chiqarish qatnashchilarini shaxsiy ehtiyojlarini taʼminlash, qoplash uchun foydalaniladi, ikkinchi qismi esa mulkdorlarni, davlat va ijtimoiy ehtiyojlarni qoplashga safarbar etiladi.

Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida oʻzining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti davrida koʻtariladi. Foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qiymat qonunini va xoʻjalik yuritish usuli sifatida foydalanadigan xoʻjalik hisobotining obʻyektiv talabidir.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam koʻtarib turishni talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanish lozim.

Qiymat qonuni alohida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar — ijtimoiy-zaruriy xarajatlar darajasida yoki undan kam boʻlishini talab etadi. Bu talabni amalga oshirish uchun korxonalar foydaga ega boʻladilar va ularning rentabellik darajasi oʻrtacha yoki undan yuqori boʻlishi kerak.

Maʼlumki, xoʻjalik hisobining asosiy talabi - korxonalar faoliyati rentabelli boʻlishi, yaʼni korxonalar oʻz faoliyatini foyda olish bilan yakunlashlaridir. Foyda — mutlaq koʻrsatkich boʻlib, u korxonalar faoliyati samarasini ifodalaydi. Foyda korxonalar faoliyatining har xil yoʻnalishlarini moliyaviy yakunidir. Shu sababli foyda turli shaklda boʻlishi mumkin.

Respublikamizda «Mahsulot (ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi toʻgʻrisidagi Nizom» qabul qilinmasdan oldin korxonalar foydasi quyidagi shakllarda hisobga olinar edi: balans boʻyicha; sotilgan mahsulotlardan; boshqa sotuv operatsiyalar; noishlab chiqarish; sof foydalar.

Yuqorida koʻrsatilgan Nizomga binoan korxonalar va tashkilotlar foydasi quyidagi, shakllarda hisobga olinadi:

- **mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda.** Bu sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini olish bilan aniqlanadi;

- **asosiy faoliyatdan olingan foyda** — asosiy faoliyatdan koʻrilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari oʻrtasidagi tafovut va plyus, asosiy faoliyatdan koʻrilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi;

- **xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda** (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi, plus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida aniqlanadi;

- **soliq to‘lagungacha olingan foyda**, u umum xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda, plus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi.

- **yilning sof foydasi**, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi sub‘yekt ixtiyorida qoladi.

Demak, xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda hisoblanayotganda moliya faoliyatidan ko‘rilgan foyda hamda soliq to‘lagungacha olingan foyda hisoblanayotganda favqulot vaziyatlardan ko‘rilgan foyda aniqlanadi, e‘tiborga olinadi.

Ko‘rinib turibdiki, qabul qilingan Nizomga ko‘ra, foyda shakllari tarkibi kengaytirildi va foyda shakllari bozor munosabatlariga moslashtirildi. Korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari buxgalteriya balansi va «Moliyaviy faoliyat to‘g‘risidagi hisobot»ga asoslanib tahlil qilinadi va bu tahlil yuqorida ko‘rilgan foydaning butun shakllari bo‘yicha o‘tkazilishi lozim. Shu sababli ana shu foyda shakllari ustida to‘xtalamiz.

Sotilgan mahsulotlardan olingan yalpi foyda foydaning asosiy shakli bo‘lib, u sotishdan olingan tushumdan sotilgan mahsulotlar tannarxini ayirish bilan aniqlanadi. Sotilgan mahsulotlardan olingan sof tushumni aniqlash uchun sotilgan mahsulotlardan olingan yalpi tushumdan davlat byudjetiga o‘tkazilgan qo‘shilgan qiymatga solinadigan soliq aksiz soliqlari va eksport-bojxona poshlinalari olib tashlanadi.

Asosiy faoliyatdan olingan foyda sotilgan mahsulotlardan olingan foydadan davr xarajatlarini olib tashlash va asosiy faoliyat bilan aloqador boshqa daromadlar, zararlarni e‘tiborga olish yo‘li bilan aniqlanadi.

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan borliq bo‘lmagan xarajatlar va sarflar tushiriladi va o‘z tarkibiga boshqarish xarajatlarini, mahsulotni sotish xarajatlarini va umumxo‘jalik – ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlarni oladi.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga — qarzdorlardan olingan jarima, penyalar, hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi foyda, sotilgan asosiy va aylanma mablag‘lardan olingan daromadlar, davlat subsidiyalari, xolisona moliyaviy yordam, oshxona, yordamchi xizmatlardan olingan daromadlar kiritiladi. Asosiy ishlab chiqarish faoliyati, mahsulot sotishdan tashqari, korxonalar xarajatlari tarkibida konservatsiya qilingan ishlab chiqarish kuchlari bilan bog‘liq bo‘lgan sarflar, tara bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalardan zararlar, sud va arbitraj xarajatlari, to‘langan jarimalar va penyalar, voz kechilgan debitorlik qarzlari bilan bog‘liq ziyonlar, valyuta operatsiyalari bo‘yicha salbiy farqlar, o‘tgan yillarda o‘tkazilgan operatsiyalar bo‘yicha ziyonlar va hokazo bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari moliyaviy natijalarni ham e‘tiborga olish yo‘li bilan aniqlanadi. Buning uchun korxonalar moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar va xarajatlar hisobga olinadi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar — aktsiyalarga olingan dividendlar, shu'ba va assosatsiya qilingan korxonalaridan olingan dividend va xarajatlar, xorijiy mamlakatlarning valyutalari bo'yicha ijobiy kurs, qimmatli qog'ozlarga sarf qilingan sarmoyalarni qaytadan baholashdan olingan daromadlar, uzoq muddatga ijaraga berilgan mol-mulkdan tushgan daromadlar va hokazo.

Moliyaviy faoliyat xarajatlari — uzoq muddatga ijaraga olingan mol-mulklarga to'lovlar, chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlar va zararlar, qimmatli qog'ozlarga sarflangan mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar va hokazo.

Soliq to'langungacha olingan foyda ishlab chiqarish, noishlab chiqarish moliyaviy faoliyat yakunlaridan tashqari ko'zda tutilmagan vaziyatlardan kelib chiqqan daromad va zararlarni e'tiborga olish yo'li bilan hisoblanadi. Ko'zda tutilmagan vaziyatlar bilan bog'langan daromad va xarajatlar korxonalarining odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emasligi, bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak. Boshqaruv xodimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq bo'lmasligi lozim.

Sof foyda — korxonalarining o'zida qoladigan daromad bo'lib, u korxonalarining ehtiyojlari uchun foydalanadigan daromadlardir. Yuqorida ko'rilgan korxonalarining foyda shakllari moliyaviy holatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega, lekin nizomda yana bir foyda shakli ko'rilgan — bu soliqqa tortiladigan foyda.

Soliqqa tortiladigan foydani aniqlash uchun soliqqa tortilgungacha bo'lgan foydaga:

- nizomda keltirilgan birinchi ilovaga asosan chegirilmaydigan xarajatlar yoki doimiy tafovutlar qo'shiladi;

- Nizomda keltirilgan ikkinchi ilovaga binoan vaqtlar bo'yicha tafovutlar qo'shiladi yoki ayirib tashlanadi;

- qabul qilingan soliqlar bo'yicha qonunlarga binoan korxonalarda soliqlar bo'yicha tasdiqlangan imtiyozlar ayirib tashlanadi.

Ko'rinib turibdiki, soliqqa tortiladigan foydani hisoblash murakkab bo'lib, u soliqlarni fiskal funksiyasini yanada kuchaytirish bilan bog'langan. Shu sababli moliyaviy tahlil davrida bu foyda shaklini aniqlash, uni tahlil etish korxonalarining moliyaviy holatini baholashda o'z o'rnini topishi lozim. Yuqorida ko'rilgan hamma foyda shakllari moliyaviy tahlilda foydalaniladi, lekin korxonalarining moliyaviy holatini baholashda alohida e'tibor soliq olingungacha olingan foyda va sotilgan mahsulotlardan olingan foyda ko'rsatkichlarga safarbar etiladi. Chunki soliq olingungacha olingan foyda korxonalarining butun xo'jalik moliyaviy holatini ifodalaydi. Sof foyda esa korxonalarining jamiyat oldidagi burchini oqlagandan so'ng o'zlarining kelgusida rivojlanish imkoniyatlarini ifodalaydi. Moliyaviy tahlilda foyda ko'rsatkichlarining hajmi, ularning tahlil qilayotgan davr mobaynida o'zgarish dinamikasi va korxonalar foydasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarini tahlil qilinishi lozim:

Foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichki va tashqi, ob'yektiv va sub'yektiv, tashkiliy va iqtisodiy, ishlab chiqarish va texnikaviy bo'lishi mumkin. Moliyaviy tahlilda asosiy e'tibor, iqtisodiy, analitik hamda moliyaviy holatga bevosita va miqdoran ta'sir ko'rsatuvchi omillarga yo'naltirilishi lozim.



Sotilgan mahsulotlardan olingan yalpi foydani tahlil etishda quyidagilar bunday omillar bo‘lib hisoblanadi: Sotilgan mahsulotlarning hajmini o‘zgarishi; sotilgan mahsulotlarning tannarxini o‘zgarishi; sotilgan mahsulotlarning narx-navolarini o‘zgarishi; sotilgan mahsulotlarning tarkibiy, assortiment o‘zgarishi.

Omili tahlil korxonalar faoliyatini moliyaviy yakuni natijasi foyda tahlilining zaruriy qismidir. Korxonalar faoliyatining samarasiga baho berilganda olingan foydaning ko‘payishi yoki kamayishi, qaysi omillar ta’sirida bo‘lganligini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Foyda hajmini o‘zgarishi-ko‘payishi mahsulotlarni ko‘p sotish, tannarxni pasaytirish, tasdiqlangan assortimentni o‘zgartirish va narx-navoni ko‘tarish natijasi bo‘lishi mumkin va aksincha.

Tannarxni pasaytirish, mahsulotlar hajmini ko‘paytirish ijobiy omillar sifatida qabul qilinsa, narx-navoni ko‘tarish va mahsulotlarning assortimentini o‘zgartirish — salbiy omillar hisoblanadi. Chunki, narx-navoni ko‘tarilishi bozorda yakka hukmronlikdan foydalanish natijasi bo‘lishi mumkin. Assortimentning o‘zgarishiga kelsak, korxonalar ham xo‘jalik va aholi ehtiyojini e’tiborga olmasdan ko‘p foyda beradigan mahsulotlardan ko‘proq ishlab chiqqan bo‘lishi mumkin.

Endi, iqtisodiy adabiyotda keng foydalanilayotgan indeks usulidan foydalanib, korxonalar foydasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilamiz.

Korxonalarda sotilgan mahsulotlardan olingan yalpi foydaning umumiy o‘zgarishi - bu dinamika indeksidir.

$$\frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda}}{\text{O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narxlarida}} = \frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy tannarxda}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda}}$$

$$= \frac{\sum K_1 S_1 - \sum K_1 C_1}{\sum K_0 S_0 - \sum K_0 C_0}$$

Bu indeks sxema sifatida:

$K_1$  va  $K_0$  - joriy va o‘tgan davrlarda sotilgan mahsulotlarning soni.

$TS_1$  va  $S_0$  - joriy va o‘tgan davrlarda sotilgan mahsulotlarga qo‘yilgan narxlar.

$S_1$  va  $S_0$  - joriy va o‘tgan davrlarda sotilgan mahsulotlarning tannarxi.

Indeksning suratida joriy davrda olingan foyda ko‘rsatiladi, chunki sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda ( $K_1 S_1$ ) ifodalangan bo‘lib, undan joriy davrda sotilgan mahsulotlarni joriy tannarxi ( $K_1 S_1$ ) olib tashlangan.

Indeksning maxrajida esa o‘tgan davrda olingan foyda ko‘rsatiladi, chunki unda o‘tgan davrda sotilgan mahsulotlardan olingan tushumdan ( $\sum K_0 TS_0$ ) bu mahsulotning tannarxi olib tashlanadi ( $\sum K_0 S_0$ ).

Foydaning joriy davrda o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishiga — dinamikasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni indekslar yordamida aniqlaymiz.

### 1. Sotilgan mahsulotlar hajmining o‘zgarishi ta’sirni aniqlovchi indeks:

$$\frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida}}{\text{O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr}} \times \frac{\text{O'tgan davrdagi rentabellik koeffitsienti}}{\text{O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida}}$$

Bu indeks quyidagi shakl sifatida yoziladi:

$$= \frac{(\sum K_1 C_0) \cdot R_0}{\sum K_0 \ddot{O}_0 - \sum K_0 \tilde{N}_0}$$

O'tgan davrdagi rentabellik koeffitsienti o'sha davrda mahsulot sotuvidan olingan foydani shu mahsulotning tannarxiga bo'lish yo'li bilan aniqlangan. Indeks suratida joriy davrda olingan foyda ko'rsatiladi, lekin bu hisob-kitobda mahsulotlarning narxi va tannarxi o'zgarish deb olingan, faqat sotilgan mahsulotlar hajmi o'zgarishi e'tiborga olingan. Indeks maxrajida, yuqorida ko'rsatilgandek o'tgan davrda sotilgan mahsulotlardan olingan foyda aniqlangan. Demak, bu indeks faqat sotilgan mahsulotlarning hajmi ta'sirini ko'rsatadi. Iqtisodiy adabiyotda bu omilning ta'siri odatda, boshqa yo'l bilan aniqlanadi.

O'tgan davrda olingan foyda joriy davrda o'tgan davrga nisbatan sotilgan mahsulotlar dinamika ko'rsatkichiga ko'paytiriladi va natija o'tgan davrda olingan foyda bilan solishtiriladi. Olingan natija mualliflar fikricha foydaga sotilgan mahsulotlarda hajmining ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, o'tgan davrda olingan foyda 500 ming so'm, sotilgan mahsulotlarning joriy davrda o'tgan davridagiga nisbatan dinamikasi 110 foiz. Demak,  $(500 \cdot 110) / 100 = 550$  ming s. - 500 ming s. = 50 ming s.

Ko'rinib turibdiki, korxonada foydasi sotilgan mahsulotlar hajmining o'zgarishi natijasida 50 ming so'mga ko'paygan.

Fikrimizcha, bu hisob-kitobda sotilgan mahsulotlar hajmining o'zgarishidan tashqari, ularning tarkibiy-assortiment o'zgarishi ta'sirini ham o'z ichiga oladi. Demak, bu yo'l bilan aniqlanayotgan omil ta'sirini hisoblash asossiz va noto'g'ridir.

**Sotilgan mahsulotlar tannarxining ta'siri indeksi:**

$$\frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda}} \quad \frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy tannarxda}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida}}$$

Bu quyidagi shakl sifatida yoziladi:

$$= \frac{\sum K_1 \ddot{O}_1 - \sum K_1 \tilde{N}_1}{\sum K_1 \ddot{O}_1 - \sum K_1 \tilde{N}_0}$$

Ko'rinib turibdiki, indeks suratida joriy davrda olingan foyda ko'rsatilgan, maxrajda ham joriy davrda mahsulot sotishdan olingan foyda, lekin bu hisob-kitobda joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'zgarish, o'tgan davr tannarxida ( $S_0$ ) olingan. Demak, bu indeks korxonada foydasiga mahsulotlar tannarxining o'zgarish ta'sirini aniqlaydi.

**1. Sotilgan mahsulotlarga quyilgan narx-navolarning ta'siri indeksi:**

$$\frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda}}{\text{O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narxlarida}} \quad \frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida}}$$

Bu indeks sxema sifatida:

$$= \frac{\sum K_1 S_1 - \sum K_1 C_0}{\sum K_1 S_0 - \sum K_1 C_0}.$$

Ko‘rinib turibdiki, ham suratda, ham maxrajda joriy davrda sotilgan mahsulotlardan olingan foyda aniqlanyapdi. Lekin bajarilgan hisob-kitoblarda sotilgan mahsulotlarning tannarxi ( $S_0$ ) o‘zgarish sifatida, ya’ni o‘tgan davr darajasida olingan. Sotilgan mahsulotga quyilgan narx-navolar o‘zgaruvchan. Demak, bu indeks korxonaga foydasiga narxlar ta’sirini aniqlaydi.

### Sotilgan mahsulotlar tarkibiy, assortiment o‘zgarishining ta’sir indeksi:

Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o‘tgan davr narxlarida	–	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o‘tgan davr tannarxida
Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o‘tgan davr tannarxida	x	O‘tgan davrdagi rentabellik koeffitsienti

Bu indeks quyidagi shakl sifatida yoziladi:

$$y = \frac{\sum K_1 S_0 - \sum K_1 C_0}{(\sum K_1 C_0) \cdot R_0}.$$

Bu gal ham indeksning suratida va maxrajda joriy davrda sotilgan mahsulotlardan olingan foyda ifodalangan. Lekin ko‘rinib turibdiki, suratda aniqlangan foyda joriy davrda sotilgan mahsulotlarni hajmiga, o‘tgan davr narx-navo va tannarxlariga asoslangan. Maxrajda esa sotilgan mahsulotdan olingan foyda o‘tgan davr rentabellik koeffitsientiga asoslangan bo‘lib, u o‘tgan davrda sotilgan mahsulotlar o‘tgan davrdagi tarkibini, assortimentini hisobga olgan.

Shunday qilib, indeksning surati sotilgan mahsulotlardan olingan foyda mahsulotlarning joriy tarkibiga, maxrajda aniqlangan foyda sotilgan mahsulotlardan olingan foyda mahsulotlarning o‘tgan davrdagi tarkibiga asoslangan, demak bu indeks mahsulotlarni tarkibiy o‘zgarishini korxonaga, foydasiga ta’sirini aniqlab beradi.

Yuqorida keltirilgan omil indekslari bir-biri bilan bog‘liq va ularning ko‘paytmasi umumiy indeksga barobar. Ya’ni:

$$= \frac{\sum K_1 S_1 - \sum K_1 C_1}{\sum K_0 S_0 - \sum K_0 C_0} = \frac{(\sum K_1 S_0) \cdot R_0}{\sum K_0 S_0 - \sum K_0 C_0} \times \frac{\sum K_1 S_1 - \sum K_1 C_1}{\sum K_1 S_1 - \sum K_1 C_0} \times \frac{\sum K_1 S_0 - \sum K_1 C_0}{(\sum K_1 C_0) \cdot R_0}$$

Yuqorida ko‘rilgan omilli tahlilni o‘tkazish uchun moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan tashqari birlamchi buxgalteriya ma’lumotlaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi, lekin bu qo‘shimcha mehnat moliyaviy tahlilda, albatta, o‘zini oqlaydi. Chunki korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlarini baholashda yuqorida keltirilgan omillar ta’sirini miqdoran aniqlash katta ahamiyatga ega.

Omilli tahlilning murakkab emasligi quyidagi 23-jadval materiallaridan ko‘rinib turibdi:

**Omllarning sotilgan mahsulotlardan olingan foydaga ta'sirini aniqlash  
uslubiyati (ming so'm)**

N		Ma'lumatlar	Hisob-kitob usuli	Natija
	Ma'lumotlar bazasa			
1	Joriy dvrdada sotilgan mahsulotlar, joriy narxlarda ( $\sum K_1 S_1$ )	40000	-	-
2	Joriy davrda sotilgan mahsulotlarning joriy tannarxi ( $\sum K_1 C_1$ )	30000	-	-
3	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narxlarida ( $\sum K_1 S_0$ )	35000	-	-
4	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida ( $\sum K_1 C_0$ )	33000	-	-
5	O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narxlarida ( $\sum K_0 S_0$ )	25000	-	-
6	O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida ( $\sum K_0 C_0$ )	20000	-	-
7	O'tgan davrda rentabellik koeffitsienti ( $R_0$ ).	-	$\frac{25000 - 20000}{20000}$	0,25 yoki 25 %
	Omllar ta'sirining hisob-kitobi			
1	Sotilgan mahsulotlardan olingan foydanngi umumny dinamikasi, umumiy indeks	-	$\frac{40000 - 30000}{25000 - 20000}$	Foydanng o'sishi 5 ming so'm dinamikasi 200 %
2	Mahsulot hajmining o'zgarishi ta'siri, mahsulot hajmi indeksi	-	$\frac{33000 \times 0,25}{25000 - 20000}$	Foydaning o'sishi 3,25 ming so'm, dinamikasi 165 %
3	Mahsulot tannarxining o'zgarishi ta'siri, tannarx indeksi	-	$\frac{40000 - 30000}{40000 - 33000}$	Foydaning o'sishi 3,0 ming so'm, dinamikasi 143 %
4	Mahsulotlarga qo'yilgan narxlarning o'zgarishi ta'siri, narx indeksi	-	$\frac{40000 - 33000}{35000 - 33000}$	Foydaning o'sishi 5,0 ming so'm, dinamikasi 350 %
5	Mahsulotning tarkibiy o'zgarishi ta'siri, assortiment indeksi	-	$\frac{35000 - 33000}{33000 \times 0,25}$	Foydaning kamayishi 6,25 ming so'm, dinamikasi 24%

Ko'rinib turibdiki, joriy davrda o'tgan davrga nisbatan korxonada sotilgan mahsulotlardan olingan foyda ikki marotaba ko'paydi — 5 ming so'mdan 10 ming so'mga yetdi. Demak, o'sish hajmi 5 ming so'mni tashkil qildi.

Bu o'sish quyidagi omllarning ta'siridir:

- mahsulot hajmi + 3,25 ming so'm yoki 165 %;

- mahsulot tannarxi + 3,0 ming so‘m yoki 143 %;
- mahsulot narxlari + 5,0 ming so‘m yoki 350 %;
- mahsulot tarkibi - 6,25 ming so‘m yoki 24 %

Jami o‘shir + 5,0 ming so‘m yoki 200 %.

Yoki omil indekslarni ko‘paytmasi umumiy foyda dinamikasi indeksga barobar,

$$\frac{165}{100} \cdot \frac{143}{100} \cdot \frac{350}{100} \cdot \frac{24}{100} = 200 \% .$$

Demak, korxonalar faoliyatida sotilgan-mahsulotlardan olinadigan foydani 2 marta ko‘paytirishda — sotilgan mahsulotlarning ko‘payishi, ularning tannarxini kamayishi, mahsulotlarga quyilgan narxlarni oshirilishi ijobiy ahamiyatga ega bo‘ladi. lekin mahsulotlarning tarkibiy o‘zgarishi foyda ko‘rishda salbiy bo‘lgan.

Bir xil sabablarga ko‘ra joriy davrda o‘tgan davrga nisbatan ko‘p foyda keltiradigan mahsulotlar kam ishlab chiqarilgan, sotilgan, ularning salmog‘i butun sotilgan mahsulotlar tarkibida qisqartirilgan, natijada sotilgan mahsulotlardan olinadigan foyda 6,25 ming so‘mga kamaygan.

Shunday qilib, korxonalar foydasini tahlil qilish katta ahamiyatga ega bo‘lib, korxonalar faoliyati moliyaviy yakunlarining birinchi, oldingi bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari tahlili rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili bilan yakunlanadi.

## 6.2. Korxonalar rentabelligi tahlili

Korxonaning rentabelligi nisbiy ko‘rsatkich bo‘lib, korxonalar faoliyati samaradorlik darajasini ifodalaydi. Demak, korxonalar faoliyatini baholashda asosiy, sifatli ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Rentabellik darajasi korxonalar faoliyatida bajarishayotgan vazifalarni oldindan aniqlaydi. Bunday vazifalar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- rentabellik ko‘rsatkichi korxonalar faoliyatiga sarflangan sarmoyalarni, o‘zini o‘zi qoplashini aniqlaydi. Sobiq Ittifoq davrida xalq-xo‘jalik miqyosida o‘rtacha o‘zini o‘zi qoplash muhlati sifatida 7-9 yil qabul qilingan edi. Demak, korxonalar o‘zini o‘zi qoplash uchun ularning faoliyatida rentabellik 12-14 % dan kam bo‘lmasligi kerak.

- Hozirgi paytda hamma korxonalar faoliyatida kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish amalga oshirilishi, moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari kerak, ya‘ni olingan foyda hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirib, uning texnikaviy darajasini ko‘tarib borish lozim. Buning uchun, ya‘ni o‘zini o‘zi moliyalashtirish uchun, korxonalarining rentabellik darajasi 20-25 % dan kam bo‘lishi kerak emas.

- Ma‘lumki, korxonalar o‘zlarining mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z manbalaridan, ya‘ni korxonalariga tegishli manbalardan hamda tashqaridan olinadigan uzoq va qisqa muddatli qarzlardan foydalanishi mumkin. Lekin, bu qarzlarni o‘z vaqtida qaytarib berish kerak. Buning uchun ham korxonalarining rentabelligi kerakli darajada bo‘lishi lozim.

- Respublikada ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti ko‘rilyapti. Buning uchun respublikada kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilyapti. Bu siyosat ham xalq xo‘jaligida, ham alohida korxonalar miqyosida o‘tkazilyapti. Korxonalarda bu masalani yechish uchun ular kerakli darajada rentabellikka ega bo‘lishlari lozim.

Shunday qilib, rentabellik katta ahamiyatga ega bo'lib, uni tahlil etish moliyaviy tahlilda o'z o'rnini topishi lozim. Rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishdan oldin ikki narsani aniqlab olish lozim:

**Birinchi**dan, rentabellik qanday shakllarda bo'lishi mumkin?

**Ikkinchi**dan, rentabellik nisbiy ko'rsatkich ekan, uning darajasi qanday aniqlanishi, nimaga nisbat hisoblanishi lozim?

Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, rentabellik iqtisodiy toifa, atama bo'lib, sotsializm bilan bog'liq sobiq sotsialistik korxonalar samaradorligini o'lchash uchun o'ylab chiqilgan va shakllantirilgandi. Sho'ro davrida korxonalarining rentabellik ko'rsatkichi kapitalizm tizimiga taalluqli foyda me'yoriga qarshi, uning o'rniga o'ylab chiqilgandi.

Ma'lumki, kapitalizm davrida foyda me'yori ikki shaklda aniqlangan:

- kapitalistik foydani kapitalistik ishlab chiqarish joriy xarajatlarga bo'lish yo'li bilan, bizning terminamoliyamiz bo'yicha bu foydani sotilgan mahsulotlarning tannarxiga bo'lish bilan;

- kapitalistik foydani kapitalistik korxonalarda avanslashtirilgan fondlarga — doimiy kapitalga, bizning terminlarimiz bo'yicha ishlab chiqish asosiy va aylanma fondlarga va o'zgaruvchan kapitalga, bizning terminalogiyamiz bo'yicha ish haqiga sarflangan kapital-mablag'larga bo'lish yo'li bilan aniqlangan.

Respublika bozor munosabatlariga o'tar ekan, korxonalarining moliyaviy holatini baholashda yuqorida ko'rsatilgan foyda me'yori ko'rsatkichlariga o'tishi kerak edi, lekin bozor munosabatlariga o'tish davrida rentabellik ko'rsatkichlari saqlab qolinmoqda. Rentabellik ko'p qirrali, murakkab iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u o'z shakllanish ta'rifi ega.

Sho'ro davrining birinchi yillarida sotsializm tizimiga moslashtirilgan butun iqtisodiy muammolar, ko'rsatkichlar shakllana boshladi, jumladan, rentabellik ko'rsatkichi ham. Sho'ro davrida faoliyat kechirayotgan, yangidan tashkil qilinayotgan korxonalar ishiga baho berib, trotskichilar foyda keltirmayotgan, demak, davlat budjetiga hech narsa o'tkazmayotgan korxonalarni yopishni, tugatishni talab qildilar. Bunga qarshi sotsializm tizimiga moslashgan rentabellik ko'rsatkichni asoslash lozim edi. Shu maqsadda sotsializm tizimi davrida 1928 yildan boshlab, korxonalarining rentabelligi ikki shaklda ifodalanishi tasdiqlangan: **joriy rentabellik va xalq xo'jaligi rentabelligi**.

Joriy rentabellik foyda bilan bog'liq bo'lib, u korxonalar foyda ko'rsa, demak, ularda joriy rentabellik mavjud. Joriy rentabellikda korxonalar faoliyati pul jamg'armalarini ishlab chiqarish, foyda keltirish nuqtai nazaridan baholanadi. Korxonalarda foyda bo'lmasa, joriy rentabellik yo'q, demakdir.

Lekin foyda keltirmaydigan korxonalar xalq xo'jaligiga, aholiga kerakli mahsulotlar ishlab chiqarishi mumkin. Bu vaziyat e'tiborga olingan holda xalq xo'jaligi rentabelligi aniqlangan. Xalq xo'jaligi rentabelligi — korxonalar faoliyatini xalq xo'jalik nuqtai nazaridan baholashdir. Korxonalar foyda keltirmasa ham, agarda ular xalq xo'jaligi, aholi ehtiyojlarini ta'minlayotgan bo'lsa, bu korxonalar joriy rentabellikka ega emas, lekin xalq xo'jaligi rentabelligiga ega.

Joriy va xalq xo'jaligi rentabelliklarining tasdiqlanishi, qabul qilinishi, mamlakatda byudjet ehtiyojlari nuqtai nazaridan zarar keltiruvchi, lekin xalq

xo'jaligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni saqlab qolish imkoniyatini berdi. Rentabellik nazariyasi, amaliyoti yanada takomillasha bordi.

Birinchi rentabellik shakli joriy rentabellik deyilsa, ikkinchi shaklini istiqbollik rentabellik deb atash kerak edi. Bu holatda hozir joriy rentabellikka ega bo'lmagan korxonalarni kelgusida bu rentabellikka yetishishi hisob-kitob qilinsa, unda istiqbol rentabelligi kelib chiqishi mumkin edi. Bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida joriy va xalq xo'jaligi rentabellik shakllari o'rniga biznesning ilmiy tadqiqotlarimizda 1955-1956 yillarda **xo'jalik hisobi va xalq xo'jaligi rentabelligi tavsiya etildi.**

Xo'jalik hisobi rentabelligi xo'jalik yuritish uslubi sifatida qabul qilingan xo'jalik hisobi bilan bog'liq. Ma'lumki, xo'jalik hisobining eng asosiy talabi - korxonalar faoliyatida foyda keltirish, rentabellik faoliyatini ta'minlashdan iborat.

Demak, xo'jalik hisobi rentabelligi bu korxonalar faoliyatini xo'jalik hisobi talablari nuqtai nazardan baholash, xalq xo'jaligi rentabelligi — korxonalar faoliyatini xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish, ta'minlash nuqtai nazaridan baholashdir.

60-yillardan boshlab iqtisodiy adabiyot va amaliyotda joriy rentabellik atamasi kam ishlatilib, keyinchalik umuman ishlatilmay qo'ydi, uning o'rniga xo'jalik hisobi rentabelligi iborasi ishlatilyapti. Xalq xo'jaligi rentabelligi hozirgi paytda ham o'z kuchini, ahamiyatini yo'qotmagani yo'q.

1965 yili qabul qilingan, amalga oshirilgan xo'jalik islohoti ~ «Yangi rejalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish tizimi» xo'jalik hisobi rentabelligi ko'rsatkichlarini yanada takomillastirdi, umumiy va hisob-kitob rentabelligi ko'rsatkichlari tavsiya etildi. Umumiy rentabellik korxonalar faoliyatining moliyaviy holatini baholash uchun foydalanilib, bu ko'rsatkich korxonada foydasini, uning ishlab chiqish fondlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Hisob-kitob rentabelligi 1965 yil xo'jalik islohoti tomonidan tasdiqlangan uchta rag'batlantirish fondlarini shakllantirish: ishlab chiqarishni rivojlantirish, korxonani ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish fondlariga mablag' ajratish bazasi sifatida qabul qilishi.

Bu rentabellik ko'rsatkichini aniqlash uchun korxonaning umumiy foydasidan fondlar uchun to'lovlarni, bank kreditlari uchun to'langan foizlarni, qayd qilingan to'lovlarni to'lab, qolgan korxonada foydasini ishlab chiqish fondlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, rentabellik ko'rsatkichining mohiyati va shakllari yillar davomida o'zgarib, takomillasha bordi. Rentabellik nisbiy ko'rsatkich ekan, uning darajasini aniqlash ham katta ahamiyatga ega.

1965 yilgacha mamlakatda barcha korxonalar rentabelligi quyidagicha aniqlangan:

$$\frac{\text{Korxonada foydasi}}{\text{Sotilgan mahsulotning tannarxi}}$$

Ko'rinib turibdiki, u paytda qabul qilingan rentabellik ko'rsatkichi korxonaning joriy xarajatlari samaradorligini ifodalagan, chunki- rentabellik foydani sotilgan mahsulotlarni tannarxiga bo'lish yo'li bilan aniqlangan.

Rejalashtirish tizimida mahsulotlarga narx-navolar, asosan, davlat tomonidan tasdiqlangan, davlat tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning assortimenti

ham tasdiqlanar edi. Demak, korxonalar narx-navo va mahsulot assortimentini o'zgartirib, ular hisobidan foydani ko'paytirish imkoniyatiga ega emas edilar. Korxonalar olinadigan foydaning sotiladigan mahsulotlar hajmini ko'paytirish va bu mahsulotlarning tannarxini pasaytirish yo'li bilan ko'paytirardi.

Ma'lumki, rentabellik darajasiga har xil omillar ta'sir ko'rsatadi: texnikaviy, texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, ichki va tashqi omillar va hokazo. Korxonalar ulardan keng foydalanib, ularni safarbar etishardi.

Lekin qabul qilingan rentabellikni aniqlash usuli korxonalarni joriy xarajatlarini pasaytirishga safarbar etib, ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni rag'batlantirmas edi. Natijada korxonalarda milliard-milliard so'mlik asosiy va aylanma fondlar ishlab chiqarishga kiritilmasdan, ishlatilmasdan yotardi. Qabul qilingan xo'jalik yuritish usullari korxonalarni ulardan oqilona foydalanishga safarbar etmasdi.

1965 yili qabul qilingan xo'jalik islohoti ishlab chiqarishda asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanish vazifasini ikki yo'nalishda yechadi.

Birinchiidan, korxonalar va tashkilotlarga ortiqcha, kerak bo'lmagan moddiy resurslarni sotish huquqini berdi.

Ikkinchiidan, rentabellik ko'rsatkichini hisoblash usulini takomillashtirib, rentabellikni aniqlash orqali korxonalarining asosiy va aylanma mablag'lardan samarali foydalanishini rag'batlantirdi.

1965 yildan boshlab korxonalar va tashkilotlarning rentabellik darajasi quyidagi yo'l bilan hisoblanadigan bo'ldi:

$$\frac{\text{Korxonalar foydasi}}{\text{Ishlab chiqarishning asosiy va me'yorlashtirilgan aylanma mablag'larini o'rtacha qiymati}}$$

Tavsiya etilgan yangi rentabellik ko'rsatkichi ilgari foydalanilgan rentabellik ko'rsatkichini inkor qilmaydi. Bu ko'rsatkichlar bir-birini boyitadi, bir-birini to'ldiradi shu sababli amaliyotda ham eski, ham yangi rentabellik ko'rsatkichlardan foydalanilmoqda, chunki ular mustaqil iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lib, ilgari foydalanilgan ko'rsatkichlar korxonalarining joriy xarajatlari samaradorligini ifodalasa, yangi rentabellik ko'rsatkichi korxonalarining ishlab chiqish asosiy va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Rentabellik ko'rsatkichi korxonalar faoliyatining asosiy moliyaviy natijasi hisoblanar ekan, uni tahlil etishga korxonalarining moliyaviy holati tahlilida kerakli o'rin ajratish lozim. Shu munosabat bilan savol tug'iladi, bozor munosabatlari sharoitlarida rentabellik darajasi qanday aniqlanishi kerak va rentabellikni o'lchash uchun qanday ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq?

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining hozirgi davrda professori, iqtisod fanlari doktori M. Tulaxo'jaeva xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanib, rentabellikni tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni tavsiya etgan.

$$\text{Hamma aktivlarning rentabellik ko'effitsienti} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Balans valyutasining o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Mahsulot sotish rentabellik ko'effitsienti} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Mahsulot sotishdan tushum}}$$



$$\text{Korxonaga tegishli kapitalning rentabellik koeffitsienti} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Bitta aktsiyaning rentabellik koeffitsienti} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Muomaladagi aktsiyalar soni}}$$

Respublika iqtisodchilaridan A.N. Li S.I. Shevchenko quyidagi rentabellik koeffitsientlarini tavsiya qilganlar:

$$\text{Aktivlar rentabelligi} = \frac{\text{Operatsiya yoki sof foyda}}{\text{Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati}}$$

$$\text{Mahsulot sotish rentabelligi} = \frac{\text{Yalpi yoki sof foyda}}{\text{Mahsulot sotishdan sof tushum}}$$

$$\text{Korxonaga tegishli kapital rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Qarzga olingan kapitalning foydalanish samaradorligi} = \frac{\text{Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi}}{\text{Qarzga olingan mablag'larning o'rtacha foiz stavkasi}}$$

$$\text{Mahsulot rentabelligi darajasi} = \frac{\text{Yalpi yoki sof foyda}}{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}}$$

$$\text{Moddiy ishlab chiqarish zaxiralarning birlashtirish koeffitsienti} = \frac{\text{Moddiy ishlab chiqarish zaxiralari}}{\text{Mahsulot sotishdan sof tushum}}$$

$$\text{Bitta aktsiyaning foydaliligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Muomaladagi aktsiyalar soni}}$$

$$\text{Fond sig'imi koeffitsienti} = \frac{\text{Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulotlar sotishdan sof tushum}}$$

$$\text{Kumulyativ foyda koeffitsienti} = \frac{\text{Taqsimlangan foyda}}{\text{Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati}}$$

O.R. Yefimova quyidagi rentabeyalik ko'rsatkichlardan foydalangan:

$$\text{Aktivlar rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Balans valyutasining o'rtacha yillik qiymati}}$$

$$\text{Joriy aktivlar rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Joriy aktivlarning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Investitsiya rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning umumiy foydasi}}{\text{Asosiy mablag'lar, aylanmadan tashqari aktivlar, uzoq muddatli qarzarlar, kreditlarni o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Sotuv rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Sotilgan mahsulotlardan tushum}}$$

A.D. Sheremet va R.S. Sayfulin Rentabellikni tahlil qilish uchun quyidagi rentabellik koeffitsientlarni tavsiya etishgan:

$$\text{Sotuv rentabelligi} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan foyda}}{\text{Sotilgan mahsulotdan tushum}}$$

$$\text{Jami kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaga balansi bo'yicha foyda}}{\text{Balans valyutasining o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlar rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaga balansi bo'yicha sof foyda}}{\text{asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlarning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Permanent kapitali rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaga balansi bo'yicha sof foyda}}{\text{Korxonaga tegishli kapital va uzoq muddatga solingan qarzlar, kreditlarning o'rtacha qiymati}}$$

V.G. Artemenko va M.V. Bellendirlar quyidagi rentabellik ko'rsatkichlardan foydalanishgan.

$$\text{Mol-mulk rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Balans valyutasining o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Joriy aktivlar rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Joriy aktivlarning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Investitsiya rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaga yalpi foydasi}}{\text{Korxonaning tegishli kapitali va uzoq muddatga olingan qarzlarining o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Korxonaga tegishli kapital rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaning tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Asosiy faoliyat rentabelligi} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan foyda}}{\text{Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar}}$$

$$\text{Ishlab chiqarish fondlar rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning yalpi foydasi}}{\text{Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati}}$$

Korxonalar bankrotligi va sanatsiyasi masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumat hay'ati tomonidan 1997 yil 17 aprelda qabul qilingan

«Moliya tahlili bo'yicha uslubiy tavsiyalarda» quyidagi rentabellik ko'rsatkichlari foydalanilgan:

$$\begin{aligned} \text{Mahsulot sotish rentabellik koeffitsienti} &= \frac{\text{Sotilgan mahsulotdan foyda}}{\text{Sotilgan mahsulotdan tushum}} \\ \text{Asosiy vositalar rentabellik koeffitsienti} &= \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha qiymati}} \\ \text{Korxonaga tegishli kapitalning rentabellik koeffitsienti} &= \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}} \\ \text{Permanent kapitalning rentabellik koeffitsienti} &= \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga qarashli kapitalning hamda uzoq olingan qarzarlar va kreditlarning o'rtacha qiymati}} \\ \text{Kapitalning umumiy aylanish rentabellik koeffitsienti} &= \frac{\text{Sotilgan mahsulotdan tushum}}{\text{Balans valyutasining o'rtacha qiymati}} \end{aligned}$$

O'zbekiston Respublikasi korxonalarini iqtisodiy nomutanosiblik ishlari bo'yicha Qo'mitasi tomonidan 1997 yil 10 dekabrda qabul qilingan «Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy tahlili bo'yicha uslubiy tavsiyalar» va «Qishloq xo'jalik korxonalarini iqtisodiy nomutanosib deb hisoblashning vaqtincha tartibi»da rentabellik darajasini o'lchash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tavsiya etilgan:

$$\begin{aligned} \text{Mahsulot rentabellik koeffitsienti} &= \frac{\text{Mahsulot sotishdan foyda}}{\text{Sotilgan mahsulotning tannarxi}} \\ \text{Aktsialar rentabellik koeffitsienti} &= \frac{\text{Korxonaning umumiy foydasi}}{\text{Balans valyutasining o'rtacha qiymati}} \end{aligned}$$

Samarqand kooperativ institutining professori, iqtisod fanlari doktori I.T. Abdukarimov rentabellikni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalangan:

$$\begin{aligned} \text{Mahsulot sotish rentabelligi} &= \frac{\text{Korxonaning yalpi foydasi}}{\text{Mahsulot sotishdan sof tushum}} \\ \text{Korxonaga tegishli kapital rentabelligi} &= \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}} \\ \text{Xarajatlar rentabelligi} &= \frac{\text{Korxonaning asosiy faoliyatidan foyda}}{\text{Asosiy faoliyat xarajatlari}} \end{aligned}$$

Rentabellikni tahlil qilish uchun yuqorida keltirilgan tavsiyalariga e'tiborimizni jalb qilishimizning sabablari:

1. Rentabellikni o'lchash uchun adabiyotda har xil ko'rsatkichlar tizimlari tavsiya etilgan, demak mualliflar tomonidan rentabellik mazmuni har xil tushuniladi.
2. Rentabellik ko'rsatkichlari shakllanishiga mualliflar har xil qarashadi,

natijada rentabellikni baholash uchun ikkitadan yettitagacha ko'rsatkichlar tavsiya etildi.

3. Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalardan ko'rinib turibdiki, ko'pchilik mualliflar korxonalar rentabelligini sof foydaga asoslanib aniqlaydilar. Fikrimizcha bu noto'g'ri, asoslanmagan tavsiya. Rentabellikni o'lchashdan maqsad — korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlash ekan, rentabellikni hisoblashda sof foyda emas, yalpi foyda yoki sotilgan mahsulotlardan olingan foyda e'tiborga olinishi lozim.

4. Mualliflar rentabellikka taalluqli bo'lmagan ko'rsatkichlarni tavsiya etishgan. Masalan, bitta aktsiya rentabelligi, ishlab chiqarish zaxiralarini birkiritish koeffitsientlari fond hajmi koeffitsienti, kapitalning umumiy aylanish rentabelligi.

5. Aniq bir rentabellik ko'rsatkichiga har xil nom berishadi. Masalan: sotuv rentabelligi, realizatsiya rentabelligi, sotilgan mahsulot rentabelligi va bu ko'rsatkich har xil usul bilan aniqlanadi. Masalan: yalpi yoki sof foydani sotilgan mahsulotlar tannaxiga, sof foydani sotilgan mahsulotdan olingan tushumga, sotilgan mahsulotlardan olingan foydani sotilgan mahsulot tushumiga bo'lish yo'llari bilan aniqlanadi.

6. Ma'lumki, rentabellik korxonalar faoliyatini, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini umuman ifodalashi lozim.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkich tizimlaridan ko'rinib turibdiki, mualliflar korxonalar resurslarining alohida elementlari rentabelligini aniqlashni tavsiya etganlar. Masalan: asosiy vositalarni, permanent kapitalni, investitsiyalarni, qarzga olingan kapitalni, korxonaga tegishli kapitalni, asosiy va moddiy aylanma mablag'larni rentabellik ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar samaradorlik ko'rsatkichlari bo'lib, mazmunan rentabellikka to'g'ri kelmaydi.

Shunday qilib, umuman moliyaviy tahlilga o'xshab, rentabellik darajasini o'lchashda ham umumiy qabul qilingan uslub, ko'rsatkichlar tuzilmasi hali shakllanmagan.

Rentabellik darajasini o'lchash uslubi, rentabellik ko'rsatkichlari tizimining shakllanishi quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- rentabellik ko'rsatkichlari asosiy va qo'shimcha shakllarda bo'lishi kerak. Asosiy ko'rsatkichlar korxonalar faoliyatining umumiy natijasi samaradorligini ifodalab bersa, qo'shimcha rentabellik ko'rsatkichlari esa korxonalar resurslarining alohida elementlari samaradorligini ifodalaydi;

- rentabellik ko'rsatkichi korxonalar faoliyatini umumiy-moliyaviy natijasini ifodalay ekan, rentabellik ko'rsatkichi, avvalambor, korxonaning yalpi yoki uning asosiy faoliyatidan olingan foyda asosida aniqlanishi lozim, lekin ba'zi paytlarda rentabellikni o'lchash oldiga qo'yilgan maqsadga binoan rentabellik ko'rsatkichi sotilgan mahsulotdan olingan foydaga asosan ham aniqlanadi.

Bu tamoyillarga binoan korxonalar rentabelligini tahlil etishda, fikrimizga, quyidagi rentabellik ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq

#### **1. Rentabellikning asosiy ko'rsatkichlari:**

- korxonalar aktivlarining yoki mol-mulkining rentabelligi;
- ishlab chiqarish rentabelligi yoki ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlarining rentabelligi;
- korxonalar joriy xarajatlarining rentabelligi;

- mahsulot rentabelligi.
- 2. Rentabellikning qo‘shimcha ko‘rsatkichlari:
  - korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi;
  - asosiy kapitalning rentabelligi;
  - aylanma kapitalning rentabelligi;
  - investitsiyalarning rentabelligi;
  - permanent kapitalining rentabelligi ;
  - qarzga olingan kapitalning rentabelligi.

Ko‘rinib turibdiki, tavsiya qilinayotgan rentabellik ko‘rsatkichlar tizimi aniq bir tartibga solinib, unda yuqorida keltirilgan mualliflarning fikrlari ham e‘tiborga olingan. Bu ko‘rsatkichlarning aniqlash uslubiyatlari quyidagicha bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

### 1. Rentabelliing asosiy ko‘rsatkichlari:

$$\text{Mol-mulkning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to‘lanishdan oldingi foyda}}{\text{Korxonaga mol-mulkining o‘rtacha qiymati}}$$

Bu ko‘rsatkich butun korxonaga mol-mulki samaradorligini ifodalaydi. Mol-mulk korxonaning butun ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyati uchun xizmat qiladi. Shu sababli bu ko‘rsatkich korxonaning yalpi foydasi soliqlar to‘lanishdan oldingi foydaga asosan aniqlanishi lozim.

**Ishlab chiqarish rentabelligi** korxonalarda ishlatilayotgan ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Ishlab chiqarish fondlar korxonaga faoliyatini moddiy bazasini tashkil etib, ishlab chiqarishning asosiy omili bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli bu ko‘rsatkich ham korxonaning soliq to‘lashdan oldingi foydasi asosida aniqlanishi lozim.

$$\text{Ishlab chiqarish rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to‘lashdan oldingi foyda}}{\text{Ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha qiymati}}$$

Moliyaviy hisobotlarga binoan aniqlasak soliq to‘lashdan oldingi foyda hisoboti 2-shaklidan, ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlarning o‘rtacha qiymati buxgalteriya balansi yoki buxgalteriya birlamchi hisobot ma‘lumotlariga binoan aniqlanadi.

**Joriy xarajatlar rentabelligi** ilgari foydalanadigan rentabellik ko‘rsatkichi bo‘lib, u korxonaga xarajatlarini mahsulotni ishlab chiqarib, uni sotishga ketgan xarajatlar samaradorligini ifodalaydi. Demak, bu ko‘rsatkich mahsulot sotish bilan bog‘langan bo‘lib, mahsulot sotishdan olingan foydaga asosan aniqlanadi.

$$\text{Joriy xarajatlar rentabelligi} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan foyda}}{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}}$$

**Mahsulot rentabelligi**, odatda, savdo tashkilotlarida keng foydalanib, hozirgi paytda foydalanish uchun boshqa tarmoqlarga ham tavsiya etilyapti. Bu ko‘rsatkich sotilgan mahsulotni har bir so‘miga nisbatan qancha foyda olinganligini ifodalaydi va demak, u sotilgan mahsulotdan olingan foyda asosida aniqlanishi lozim.

$$\text{Mahsulot rentabelligi} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan olingan foyda}}{\text{Mahsulot sotishdan tushum}}$$

Sotilgan mahsulotdan olingan tushum sof bo'lishi lozim. Ya'ni yalpi tushumdan qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq va aktsiz soliqlar olib tashlanishi kerak.

## 2. Qo'shimcha rentabellik ko'rsatkichlari:

Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi. Ma'lumki, korxonalar o'zlik va tashqaridan safarbar etilgan mablag'lardan foydalanadilar. Ularning samaradorligini alohida aniqlash, moliyaviy tahlilni chuqurlashtirishga yordam beradi.

$$\text{Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

Qarzga olingan kapitalning rentabelligi uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlarning samaradorligini ko'rsatadi. Bu qarzlarning ham korxonaning butun ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyatiga xizmat qiladi va shu sababli ular samaradorligi korxonaning yalpi foydasi asosida aniqlanadi.

$$\text{Qarzga olingan kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Qarzga olingan kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

Asosiy kapitalning rentabelligi ham korxonaning yalpi foydasi asosida aniqlanishi lozim. Chunki asosiy kapital korxonaning butun faoliyatiga xizmat qiladi va uning rentabelligi asosiy fondlarni korxonaning foydasi asosida aniqlangan fondlar qaytimidir.

$$\text{Asosiy kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

Aylanma kapitalning rentabelligi ham korxonaning yalpi foydasi asosida aniqlanishi lozim. Chunki aylanma mablag'lar ham korxonaning butun faoliyatiga xizmat qiladi. Bu ko'rsatkich korxonaning moddiy va pul aylanma mablag'lari samaradorligini ifodalaydi.

$$\text{Aylanma kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Aylanma kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

Investitsiyalar rentabelligi ham korxonaning yalpi foydasi asosida aniqlanib, bu ko'rsatkich korxonaning asosiy kapitalini hamda uzoq muddatga olingan kredit va qarzlarning samaradorligini ifodalaydi.

$$\text{Investitsiya rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Asosiy kapital va uzoq muddatga olingan kredit qarzlarning o'rtacha qiymati}}$$

Shunday qilib, korxonalarining moliyaviy holatiga moliyaviy resurslarning alohida elementlari ta'sir ko'rsatmay ekan, demak, bu elementlarning ham rentabelligini

tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, korxonalar resurslarining alohida elementlari korxonalarining moliyaviy holatini umumiy darajasiga ta'sir ko'rsatar ekan, bu resurslarni rentabelligi aniqlanganda, soliq to'lashdan oldingi, ya'ni yalpi foyda e'tiborga olinishi lozim.

Endi yuqorida ko'rilgan rentabellikning asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarini korxonamiz misolida ko'ramiz.

## 24-jadval

### Rentabellik ko'rsatkichlari hisob-kitobi (ming so'm)

	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika
1. Ma'lumotlar bazasi			
1. Korxonalar aktivlarining o'rtacha qiymati	7622,7	6901,1	110,5
2. Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati	4311,9	3133,0	137,4
3. Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati	5972,2	4537,8	137,6
4. Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati	5535,2	3799,3	145,7
5. Aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati	2087,7	3101,0	67,3
6. Uzoq muddatli qarzlarning o'rtacha qiymati	1065,7	-	-
7. Mahsulotlar sotishdan tushum	9536,0	3279,6	103,8
3. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	5273,4	6017,1	87,0
9. Soliq to'lashdan olingan foyda	4550,0	3622,4	125,6
10. Mahsulotlar sotishdan olingan foyda	4362,6	3262,9	133,7
2. Rentabellik ko'rsatkichlari			
A) Asosiy ko'rsatkichlar, foiz			
1. Korxonalar aktivlarining rentabelligi (9:1)	59,7	52,5	113,7
2. Ishlab chiqarish rentabelligi (9:2)	105,5	115,3	91,5
3. Korxonalar joriy xarajatlarining rentabelligi (10:8)	86,2	54,2	159,0
4. Mahsulot rentabelligi (10:7)	47,3	35,2	134,1
B) Qo'shimcha ko'rsatkichlar, foiz			
1. Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi (9:3)	76,2	79,8	95,5
2. Qarzga olingan kapitalning rentabelligi (9:6)	426,8	-	-
3. Asosiy kapitalning rentabelligi (9:4)	32,2	95,3	86,3
4. Aylanma kapitalning rentabelligi (9:5)	217,9	116,8	186,9
5. Investitsiyalarning rentabelligi 9:(3 + 6)	61,2	79,8	76,7

Jadval ma'lumotlariga va aniqlangan rentabellik ko'rsatkichlariga binoan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- rentabellik ko'rsatkichlari joriy davrda o'tgan davrga nisbatan umuman ko'tarilgan. Demak, korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari yaxshilangan;

- lekin rentabellik ko'rsatkichlari har xil o'zgargan. Demak, ularning o'zgarishiga har xil omillar ta'sir ko'rsatgan;

- eng yuqori sur'atlarda ko'tarilgan ko'rsatkichlar — bu joriy xarajatlarning va aylanma mablag'larning rentabellik ko'rsatkichlaridir;

- joriy xarajatlarning rentabelligini oshishi - sotilgan mahsulotlarning tannarxini

pasaytirish yo‘li bilan qo‘lga kiritilgan;

- aylanma mablag‘lar rentabelligining ko‘tarilishi, fikrimizcha, korxonada me‘yordan yuqori aylanma mablag‘larni yo‘q qilish natijasi bo‘lsa kerak.

- sotilgan mahsulotlarning rentabelligi - sotilgan mahsulotlar tannarxining pasaytirishi natijasidir. Ko‘rinib turibdiki, sotilgan mahsulotlarning hajmi 3,8 % ga ko‘paygan, sotilgan mahsulotlar tannarxi shu davrda 12,4 % ga pasaygan;

- korxonada aktivlarining rentabelligi ko‘tarilgan, lekin shu davrda ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi pasaygan. Bunga sabab o‘rganilayotgan davrda korxonada ishlab chiqarish fondlari 37,4 % ga ko‘paygan. Yangi fondlar hali o‘zlashtirilmagan. Shu sababli ishlab chiqarish fondlari samaradorligi pasaygan;

- xuddi shu sababli yangi fondlarning o‘zlashtirilmaganligi natijasida korxonaga tegishli kapitalining va investitsiyalarning rentabellik darajasi kamaygan.

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar shuni tasdiqlaydiki, rentabellikni tahlil qilishda ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish kerak. Bu ko‘rsatkichlardan har biri korxonalar moliyaviy natijasining alohida tomonlarini, xususiyatlarini ifodalaydi va bu moliyaviy natijalarni har tomonlama tahlil qilishga imkoniyat beradi. Rentabellikni tahlil etish rentabellik darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish bilan yakunlanishi lozim. Yuqorida keltirilgan rentabellik ko‘rsatkichlariga, ulardan har biri bilan bog‘liq bo‘lgan omillar ta‘sir ko‘rsatadi.

Masalan, korxonada aktivlari rentabelligiga aylanma mablag‘larning aylanishi, mahsulot rentabelligi o‘zgarishi; ishlab chiqarish rentabelligiga - aylanma mablag‘larni birkiritish, mahsulot rentabelligi o‘zgarishi va mahsulot fond sig‘imi, fondlar qaytimi; mahsulot rentabelligiga mahsulot tannarxi, mahsulotlarga qo‘yilgan narxlar; joriy xarajatlar rentabelligiga narxlar va sotilgan mahsulotning tarkibiy o‘zgarishi ta‘sir ko‘rsatadi.

### **Joriy xarajatlar rentabelligi omillari.**

Yuqorida aytilganidek, joriy xarajatlar rentabelligiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatadi:

- sotilgan mahsulot tannarxining o‘zgarishi;
- sotilgan mahsulot narxining o‘zgarishi;
- sotilgan mahsulotning tarkibiy o‘zgarishi.

Omili tahlil uchun indeks usulidan foydalanamiz, buning uchun joriy xarajatlar rentabelligini umumiy dinamika va omilli indekslarini hisoblaymiz.

Joriy xarajatlar rentabelligi dinamikasi, ya‘ni joriy davrda o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarish indeksi, bu:

$$\frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotdan olingan foyda}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi}} : \frac{\text{O‘tgan davrda sotilgan mahsulotdan olingan foyda}}{\text{O‘tgan davrda sotilgan mahsulotning tannarxi}}$$

Umumiy dinamik indeksining shakli:

$$\frac{\sum M_1 B_1 - \sum M_1 T_1}{\sum M_1 T_1} \cdot \frac{\sum M_0 B_0 - \sum M_0 T_0}{\sum M_0 T_0}$$

$M_1$  va  $M_0$  — joriy va o‘tgan davrda sotilgan mahsulotlarni turlari bo‘yicha miqdori.



$B_1$  va  $B_0$  - joriy va o'tgan davrda mahsulot turlari bo'yicha, narx-navolar.  
 $T_1$  va  $T_0$  — joriy va o'tgan davrda mahsulotlarni turlari bo'yicha tannarxi.  
 $\Sigma M_1 B_1$  — joriy davrda sotilgan mahsulotlar tushumi.  
 $\Sigma M_0 B_0$  - o'tgan davrda sotilgan mahsulotlar tushumi.  
 $\Sigma M_1 T_1$  — joriy davrda sotilgan mahsulotlar tannarxi.  
 $\Sigma M_0 T_0$  - o'tgan davrda sotilgan mahsulotlar tannarxi.

Indeksdan ko'rinib turibdiki, joriy xarajatlar rentabelligi dinamikasini aniqlash uchun bu rentabellikning joriy davrdagi darajasi o'tgan davrdagi darajasi bilan taqqoslanadi. Joriy xarajatlar rentabelligi darajasi joriy va o'tgan davrda sotilgan mahsulotdan olingan foydani sotilgan mahsulotning tannarxiga bo'lish bilan aniqlanadi.

Endi omilli indekslarni keltiramiz.

**Tannarxning ta'siri indeksi:**

$$\frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotdan foyda}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi}} : \frac{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotdan foyda, mahsulotning o'tgan davr tannarxi bo'yicha}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi}}$$

Tannarx ta'siri indeksining shakli:

$$\frac{\Sigma M_1 B_1 - \Sigma M_1 T_1}{\Sigma M_1 T_1} : \frac{\Sigma M_1 B_1 - \Sigma M_1 T_0}{\Sigma M_1 T_1}$$

$\Sigma M_1 T_0$  — joriy davrda sotilgan mahsulotlarning o'tgan yilgi tannarxi.

Bu indeksda ham sotilgan mahsulotdan olingan foyda dinamikasi aniqlanadi, lekin bu gal joriy davrda olingan foyda o'tgan davr tannarxiga asoslangan foyda bilan taqqoslanadi.

Ko'rinib turibdiki, taqqoslashda faqat sotilgan mahsulotning tannarxi o'zgaryapti. Demak, bu indeks tannarxning joriy xarajatlar rentabelligiga ta'sirini ifodalaydi.

**Narx-navo ta'siri indeksi:**

$$\frac{\text{Joriy davrda o'tgan davr tannarxi asosida sotilgan mahsulotdan foyda}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi}} : \frac{\text{Joriy davrda o'tgan davr narx-navosi va tannarxi asosida sotilgan mahsulotdan foyda}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi}}$$

**Narx-navo ta'siri indeksi shakli:**

$$\frac{\Sigma M_1 B_1 - \Sigma M_1 T_0}{\Sigma M_1 T_1} : \frac{\Sigma M_1 B_0 - \Sigma M_1 T_0}{\Sigma M_1 T_1}$$

Ko'rinib turibdiki, bu indeksda joriy davrda sotilgan mahsulot ( $M_1$ ) asosida aniqlangan ikki joriy xarajatlar rentabelligi darajasi taqqoslanayapti. Sotilgan mahsulotdan olingan foydalar aniqlanganda, sotilgan mahsulot soni ( $M_1$ ), sotilgan mahsulot tannarxi ham ( $T_0$ ) o'zgarmayapti, narx-navo esa ( $B_1$  va  $B_0$ ) o'zgaryapti. Demak, bu hisob-kitobda joriy xarajatlar rentabelligi dinamikasiga narx-navo o'zgarishi ta'siri aniqlanadi.

Mahsulot tarkibi ta'siri indeksi:

$$\frac{\text{O'tgan davrgi narx va tannarxda joriy davrda sotilgan mahsulotlardan foyda}}{\text{Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi}} : \frac{\text{O'tgan davrda sotilgan mahsulotdan olingan foyda}}{\text{O'tgan davrda sotilgan mahsulot tannarxi}}$$

**Narx-navo ta'siri indeksi shakli:**

$$\frac{\sum M_1 B_0 - \sum M_1 T_0}{\sum M_1 T_1} : \frac{\sum M_0 B_0 - \sum M_0 T_0}{\sum M_1 T_1}$$

$M_1 B_0$  - sotilgan mahsulotdan joriy davrda o'tgan davr narxi asosida olingan tushum.

$M_1 T_0$  - joriy davrda sotilgan mahsulotning o'tgan davr tannarxida hisoblangan hajmi.

Ko'rinib turibdiki, bu indeksda joriy davrdagi joriy xarajatlarni rentabellik darajasi o'tgan davrdagi rentabellik darajasi bilan taqqoslanadi, lekin bu rentabellik ko'rsatkichlarida faqat mahsulotlar tarkibi o'zgargan, Demak, bu indeks joriy xarajatlar rentabelligiga mahsulotlar tarkibiy o'zgarishi ta'sirini ifodalaydi.

Yuqorida foydalanilgan indekslarni aniqlash ko'p qiyin emas. Moliyaviy hisobotda (2-shakl) mahsulotlar sotish tushumi, sotilgan mahsulotlar tannarxi va sotilgan mahsulotlardan olingan foyda to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Buxgalteriya birlamchi hisobidan faqat joriy davrda sotilgan mahsulotlarni o'tgan davr narx-navolarida ( $\sum M_1 B_0$ ) va o'tgan davr tannarxida baholanish ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga to'g'ri keladi ( $\sum M_1 B_1$ ).

Aniqlangan omilli indekslar o'zaro aloqada bo'lib, ular bir-biriga ko'paytirilsa, joriy xarajatlar rentabelligi umumiy indeksi olinadi, ularning mutlaq o'zgarish farqlari olinsa, ularning so'mmasi umumiy indeksning farqiga barobar.

Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib tasdiqlaymiz:

**25-jadval**

**Joriy xarajatlar rentabelligi omillari ta'siri**

N		Ming so'm
Ma'lumotlar bazasi		
1	Joriy davrda sotilgan mahsulotlardan tushum ( $\sum M_1 B_1$ )	800
2	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar tannarxi ( $\sum M_1 T_1$ )	640
3	O'tgan daarda sotilgan mahsulotlardan tushum ( $\sum M_0 B_0$ )	595
4	O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar tannarxi ( $\sum M_0 T_0$ )	490
5	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narx-navolarida ( $\sum M_1 B_0$ )	680
6	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida ( $\sum M_1 T_0$ ).	560

1. Joriy xarajatlar rentabelligini umumiy dinamika indeksi

$$\frac{800 - 640}{640} : \frac{595 - 490}{490} = (0,250 : 0,214) \cdot 100 = 116,7 \%$$

Demak, joriy xarajatlar rentabelligi joriy davrda o'tgan davrga nisbatan 16,7 % ga oshgan.

2. Sotilgan mahsulotlar tannarxining ta'siri:

$$\frac{800 - 640}{640} : \frac{800 - 560}{640} = (0,250 : 0,375) \cdot 100 = 66,6 \%$$

Demak, korxonada sotilgan mahsulotlar tannarxining o'zgarishi joriy xarajatlar rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, natijada joriy xarajatlar rentabelligi 33,4 % ga kamaygan (100-66,6). Joriy davrda o'tgan davrga nisbatan sotilgan mahsulotlarning tannarxi ko'tarilgan. Masalan, sotilgan mahsulotlarni bir so'mga nisbatan sarf etilgan xarajatlar o'tgan davrda 17,6 tiyindan joriy davrda 20 tiyinga ko'tarildi.

3. Sotilgan mahsulotlarga quyilgan narx-navoning ta'siri:

$$\frac{800 - 560}{640} : \frac{680 - 560}{640} = (0,375 : 0,186) \cdot 100 = 200 \%$$

Ko'rinib turibdiki, korxonada mahsulotlariga narx-navolar ko'tarilgan, natijada joriy xarajatlar rentabelligi darajasi ikki marta ko'tarilgan. Demak, narx-navolarni o'zgartirish rentabelliga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

4. Sotilgan mahsulotlarning tarkibiy o'zgartirilishi ta'siri:

$$\frac{680 - 560}{640} : \frac{595 - 490}{490} = (0,186 : 0,314) \cdot 100 = 87,6 \%$$

Joriy davrda o'tgan davrga nisbatan sotilgan mahsulotlarning tarkibi o'zgardi va bu o'zgarish joriy xarajatlar rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu omil ta'sirida joriy xarajatlar rentabelligi 12,4 % ga kamaygan (100-87,6).

Umumiy rentabellik dinamika indeksi bilan omilli indekslar o'rtasidagi bog'lanish quyidagicha tasdiqlanadi:

Rentabellik darajasi	Joriy davr	O'tgan davr	+o'sish -kamayish
Umumiy rentabellik	25,0	21,4	+ 3,6
Tannarx ta'siri	25,0	37,5	-12,5
Narx-navo ta'siri	37,5	18,6	+ 18,9
Mahsulot tarkibi ta'siri	18,6	21,4	-2,8
Jami	X	X	3,6

yoki

$$\frac{25}{21,4} = \frac{25}{37,5} \cdot \frac{37,5}{18,6} \cdot \frac{18,6}{21,4}$$

yoki

$$1,167 = (0,666 \cdot 2 \cdot 0,876) \text{ ёки } 116,7\%$$

Demak, joriy xarajatlar rentabelligining umumiy indeksi uch omilli indekslar ko'paytmasiga barobar.

Ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlarning rentabelligiga, yuqorida aytilgandek quyidagi uch omil ta'sir ko'rsatadi:

- mahsulotlar rentabelligining o'zgarishi;
- fondlar sig'imining o'zgarishi;
- aylanma mablag'larni birkirish ko'rsatkichining o'zgaryapti.

Yana umumiy dinamik va omillar ko'rsatkichlarini aniqlaymiz.

### 1. Ishlab chiqarish rentabelligining umumiy dinamikasi:

$$\frac{\text{Joriy davrda olingan yalpi foyda}}{\text{Joriy davrda ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati}} : \frac{\text{O'tgan davrda olingan yalpi foyda}}{\text{O'tgan davrda ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati}}$$

Ishlab chiqarish rentabelligi dinamikasi — demak, bu joriy davrdagi rentabellik ko‘rsatkich darajasini o‘tgan davrdagi rentabellik ko‘rsatkichi darajasi bilan solishtirishdir.

**2. Ishlab chiqarish rentabelligiga mahsulot rentabelligi o‘zgarishining ta’siri:**

$$\frac{\text{Joriy davrdagi rentabellik darajasi}}{\text{O‘tgan fondlar sig‘imining darajasi}} : \text{O‘tgan davrdagi ishlab chiqarish rentabellik darajasi}$$

Fondlar sig‘imi darajasi – bu o‘tgan davrda asosiy fondlar qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo‘linishidir, ya’ni, o‘tgan davrda har bir so‘mlik mahsulotga asosiy fondlarining qancha qiymati to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.

**3. Fondlar sig‘imining o‘zgarishi ta’siri:**

$$\frac{\text{Joriy davrdagi fondlar sig‘imi va o‘tgan davrdagi aylanma mablag‘larni birkirish ko‘rsatkichiga asoslangan joriy davr ishlab chiqarish rentabellik darajasi}}{\text{O‘tgan davrdagi fondlar sig‘imi va o‘tgan davrdagi aylanma mablag‘larning birkirish ko‘rsatkichiga asoslangan ishlab chiqarish rentabellik darajasi}}$$

Hisob-kitob qilingan ishlab chiqarish rentabellik ko‘rsatkichlarida faqat mahsulotning fondlarga qaytishi o‘zgaryapti, demak, bu omilni ta’siri aniqlanyapti.

**4. Aylanma mablag‘larning birkirish ko‘rsatkichi o‘zgarishining ta’siri:**

$$\frac{\text{Joriy davrdagi ishlab chiqarish rentabellik darajasi}}{\text{Aylanma mablag‘larni o‘tgan davrdagi birkirish ko‘rsatkichiga asoslangan joriy davrdagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasi}}$$

Endi yuqorida ko‘rilgan umumiy va omilli ishlab chiqarish rentabelligi ko‘rsatkichlarini misolda miqdoran aniqlaymiz. Ishlab chiqarish rentabelligining umumiy o‘zgarishi.

$$\frac{200}{300} : \frac{120}{200} = (0,667 : 0,600) \cdot 111,2$$

Demak, joriy davrda o‘tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish rentabelligi 11,2 % ga oshgan.

**I. Mahsulot rentabelligi ta’siri:**

$$\left(\frac{180}{550} : \frac{120}{200}\right) : \frac{120}{200} = (0,654 : 0,600) \cdot 100 = 109$$

**Ishlab chiqarish rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillarning hisob-kitobi (ming so'm)**

N		Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika,
	Ma'lumotlar bazasi			
1	Sotilgan mahsulotdan tushum	550	400	137,5
2	Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati	300	200	150,0
3	Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati	220	150	146,7
4	Aylanma kapitalning o'rtacha qiymati	80	50	160,0
5	Soliq to'lashdan oldingi foyda	200	120	166,7
6	Mahsulot sotishdan foyda	180	110	163,6
7	Ishlab chiqarish rentabelligi (5:2)	66,7	60,0	111,2
8	Mahsulot rentabelligi (6:1)	32,7	27,5	113,8
9	Fond sig'imi — bir so'mlik tushumga asosiy kapital qiymati (3:1) tiyin	40,0	37,5	106,7

Demak, mahsulot rentabelligining o'zgarishi ishlab chiqarish rentabelligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va natijada ishlab chiqarish rentabelligi 9 % ga oshdi.

2. Fondlar qiymati (fond sig'imi) o'zgarishining ta'siri:

$$\left[ \frac{180}{550} : \left( \frac{220}{550} + \frac{50}{400} \right) \right] : \left( \frac{180}{550} : \frac{200}{400} \right) = (0,622 : 0,654) \cdot 100 = 95,1$$

Fondlar qaytimi tushumning bir so'miga nisbatan 37,5 tiyindan 40,0 tiyinga ko'tarilishi ishlab chiqarish rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada ishlab chiqarish rentabelligi darajasi 4,9 % ga pasaydi.

3. Aylanma kapitalning birkirish ko'rsatkichi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{200}{300} : \left[ \frac{180}{550} : \left( \frac{220}{550} + \frac{50}{400} \right) \right] = (0,666 : 0,623) \cdot 100 = 106,9$$

Aylanma kapitalni birkirish ko'rsatkichi o'zgarishi ishlab chiqarishlar rentabelligini 6,9 % ga ko'tardi.

Demak, ishlab chiqarish rentabelligiga mahsulot rentabelligini va aylanma kapitalni birkirish ko'rsatkichlari ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Fondlarning qaytimi esa salbiy ta'sir ko'rsatdi. Endi korxonalar aktivlari rentabelligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rib chiqamiz.

**Korxonalar aktivlari rentabelligining umumiy o'zgarishi:**

$$\frac{\text{Korxonalar aktivlarining joriy davrdagi rentabellik darajasi}}{\text{Korxonalar aktivlarining o'tgan davrdagi rentabellik darajasi}}$$

**Korxonalar aktivlari rentabelligiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:**

1. Korxonalar aktivlarining aylanishi.

2. Mahsulot rentabelligi.

**1. Korxonalar aktivlari rentabelligiga korxonalar aktivlari aylanishining ta'siri:**

$$\frac{\text{O'tgan davrdagi mahsulot rentabelligi} \times \text{Korxonalar aktivlarining aylanish miqdori}}{\text{O'tgan davrdagi korxonalar aktivlari rentabelligi}}$$

## 2. Korxonalar aktivlari rentabelligiga mahsulot rentabelligi ta'siri:

$\frac{\text{Joriy davrda korxonalar aktivlari rentabelligi}}{\text{O'tgan davrdagi mahsulot rentabelligi}} \times \text{Korxonalar aktivlarining aylanish miqdori}$

Bu hisob-kitoblarni korxonalar ma'lumotlarida ko'rib chiqamiz.

27-jadval

### Korxonalar aktivlarining rentabelligi (ming so'm)

	Joriy davr	O'tgan davr
Ma'lumotlar bazasi		
1. Sotilgan mahsulotdan tushum	600	500
2. Soliq to'lanmasdan oldingi foyda	150	100
3. Korxonalar aktivlarining o'rtacha qiymati	45	40
4. Korxonalar aktivlarining aylanish miqdori (1:3)	13,3	12,5
5. Mahsulot rentabellik darajasi (2:1)	25	20
6. Korxonalar aktivlarining rentabellik darajasi (2:3)	250	333

Joriy davrda o'tgan davrga nisbatan korxonalar aktivlarining rentabelligi 33,2 foizga oshdi. Ko'rinib turibdiki, korxonalar aktivlarining aylanishi tezlashgan — 12,5 martadan 13,3 martagacha ko'paygan. Demak, bu omilning ta'siri:

$(20 \times 13,3) : 250 = (266 : 250) \times 100 = 106,4 \%$  ijobiy bo'lib, aktivlar rentabelligini 6,4 % ga ko'tarishga imkon bergan.

Mahsulot rentabelligi ham tahlil qilinayotgan davrda ko'tarilgan, demak, bu omil ham aktivlar rentabelligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni:

$333 : (20 \times 133) = (333 : 266) \times 100 = 125,2 \text{ foiz.}$

Korxonalar aktivlari rentabelligini 25,2 % ga ko'tarishga imkon bergan. Ikki omilning ko'paytmasi korxonalar aktivlari rentabelligining umumiy dinamikasiga teng, ya'ni:

$\frac{106,4 \cdot 125,2}{100} = 133,2 \%$ .

Korxonalar rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar moliyaviy hisobotlarda va birlamchi buxgalteriya hisobida mavjud.

Omillar tahlili bo'yicha yuqorida keltirilgan axborotlar umuman moliyaviy tahlilda, ayniqsa, rentabellik tahlilida omillar bo'yicha tahlil o'tkazishning ob'yektiv zarurligini isbotlayapti va omillar bo'yicha o'tkazilgan tahlil korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishni chuqurlashtiradi hamda yangi xulosalar chiqarishga, tavsiyalar berishga imkoniyat yaratadi.

### 6.3. Korxonalar iqtisodiy nochorligi tahlili

Ilgari, odatda, yuqori moliya-bank organlari korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini doimo tahlil qilishar edi. Bozor munosabatlariga o'tish paytida korxonalar faoliyati bilan shug'ullanuvchi organlar va tashkilotlar o'zlarining asosiy e'tiborini korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishga safarbar etmoqdalar.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish usullari yuqorida ko‘rildi. Korxonalarining moliyaviy holati tahlilda alohida korxonalarining iqtisodiy nochorligini ko‘rish lozim. Korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil qilish bozor munosabatlari va korxonalararo raqobat aloqalari bilan bog‘liq.

Bozor munosabatlari davrida korxonalar uchun bozor iqtisodiyotida o‘z o‘rnini topish xo‘jalik yuritishning asosiy tamoyiliga aylanib qoladi. Bu davrda korxonalarni sinishi, bankrot bo‘lishi ijtimoiy ishlab chiqarishni qonuniy holatiga aylanib qoladi. Buni respublika misolida ko‘rishimiz mumkin. Bankrot bo‘lgan korxonalar, tashkilotlar soni respublikada 1995 yili 55 ta, 1996 yili 70 ta, 1997 yili 145 ta, 1998 yili 436 ta, 1999 yili 963 ta bo‘lgan.

Shu voqealar munosabati bilan korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil qilish va bu tahlil usulini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Bu borada respublikada O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, korxonalarni bankrot va sanatsiya bo‘lishi masalalari bo‘yicha hukumat komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi mol-mulk qo‘mitasi huzuridagi korxonalarining iqtisodiy nochorligi masalalari bo‘limi tomonidan ancha ishlar amalga oshirildi.

Avvalambor korxonalarining iqtisodiy nochorligini aniqlashning qonuniy-uslubiy bazasi barpo etildi. O‘zbekiston Respublikasi korxonalarini sinish va sanatsiyaga o‘tkazish masalalari bo‘yicha hukumat komissiyasi tomonidan 1997 yil 11 aprelda «Korxonalarining moliyaviy tahlil qilish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar», «Korxonalarining iqtisodiy nochorligi masalalari bo‘yicha hududiy boshqarmasi to‘g‘risida vaqtincha nizom», «Korxonalarining ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish to‘g‘risida vaqtincha nizom», «Iqtisodiy nochor korxonalarini sanatsiya qilishda ularga moliyaviy yordam berish tartibi» tasdiqlandi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat mol-mulk qo‘mitasi huzuridagi korxonalarining iqtisodiy nochorligi masalalari to‘g‘risida qo‘mita tomonidan 1997 yil 10 dekabrda «Qishloq xo‘jaligi korxonalarini iqtisodiy nochor deb tan olish to‘g‘risida vaqtincha tartib», 1998 yil 20 martda «Korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini monitoring va tahlil qilish tartibi» tasdiqlandi.

Yuqorida keltirilgan me‘yoriy-uslubiy hujjatlarni tahlil qilish bizni quyidagi xulosalarga olib keldi:

**Birinchidan**, ulardan uchta korxonalarining moliyaviy holati tahliliga, qolganlari korxonalarining iqtisodiy nochorligiga bag‘ishlangan.

**Ikkinchidan**, ulardan uchtasida bevosita korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil qilish ko‘rsatkichlari tizimi ko‘rilgan, tavsiya qilingan.

«Moliyaviy tahlil to‘g‘risida uslubiy tavsiyalarda» korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil etish uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tavsiya etilgan:

1. Qarzlarni qaytib berishga qodirlik koeffitsienti.
2. Korxonaga tegishli va qarzga olingan mablag‘lar o‘rtasidagi o‘zaro nisbat.
3. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti.
4. O‘z aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti.
5. Zaxira va xarajatlarni o‘z manbalari bilan ta‘minlanganlik koeffitsienti.
6. Qarzlarni qaytib berishga qodirlikni tiklash koeffitsienti.
7. Korxonaning chaqqonlik koeffitsienti.
8. Mahsulot sotish rentabellik koeffitsienti.

9. O'z kapitalining rentabellik koeffitsienti.
10. Asosiy vositalarni rentabellik koeffitsienti.
11. Permanent kapitalning rentabellik koeffitsienti.
12. Korxonalar kapitalining umumiy aylanish koeffitsienti.

Ko'rinib turibdiki, korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil etish uchun haddan tashqari keng ko'rsatkichlar tavsiya etilgan, ulardan bir qismi iqtisodiy nochorlikka aloqasi bo'lmagan ko'rsatkichlardir. Bankrotlik va sanatsiya masalalari bo'yicha hukumat komissiyasi tomonidan qabul qilingan «Korxonalarini iqtisodiy nochorligini aniqlash uchun mezonlar tizimida» korxonalar iqtisodiy nochorligini tahlil qilish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi qisqartirilgan va ular quyidagilardan iborat:

1. Qarzlarni qaytib berishga qodirlik koeffitsienti.
2. O'z va qarzga olingan mablag'larning o'zaro nisbati koeffitsienti.
3. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti.
4. O'z aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti.

Bu ko'rsatkichlarning mazmuni hisoblash uslublari va ularni me'yoriy darajalari ham keltirilgan. «Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy tahlil qilish uslubiy tavsiyalarda» va «Qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy nochor deb tan olishning vaqtincha tartibi»da nochorlikni tahlil qilish uchun yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar to'liq qaytarilgan va ulardan tashqari quyidagilar tavsiya etilgan:

1. Mahsulotning rentabellik koeffitsienti:
2. Aktivlarning rentabellik koeffitsienti.

«Korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini monitoring va tahlil qilish tartibi»da yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlardan tashqari yana ikkita ko'rsatkich tavsiya etilgan:

1. ishlab chiqarish kuchlaridan foydalanish koeffitsienti.
2. asosiy fondlarni eskirish koeffitsienti.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalarni sinchiklab o'rganish, tahlil qilish bizni quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Bu me'yoriy-uslubiy materiallarni asosiy vazifasi korxonalarining iqtisodiy nochorligini aniqlash usulini, uning uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishdan iborat edi. Lekin bu materiallarda korxonalar nochorligiga har xil qarash ifodalangan va nochorlikni aniqlash uchun har xil ko'rsatkichlar tizimi tavsiya etilgan. Tavsiya etilgan ko'rsatkichlar soni 4 tadan 12 tagacha.

2. Tavsiya etilgan ko'rsatkichlardan ko'pchiligi har xil uslubda aniqlanadi. Masalan: qarzlarni qaytarib berishga qodirlik koeffitsienti.

1) Qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy holatini va iqtisodiy nochorligini aniqlashga bag'ishlangan hujjatlarda quyidagicha:

$$\frac{\text{Aylanma aktivlar}}{\text{Aylanma aktivlar}} \quad \text{—} \quad \frac{\text{muddati o'tgan debitorlik qarzar}}{\text{uzaytirilgan majburiyatlar}}$$

2. Korxonalarining iqtisodiy nochorligini aniqlash mezonlari tizimida quyidagicha:

$$\frac{\text{Aylanma aktivlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} \quad \text{—} \quad \frac{\text{Muddati o'tgan debitorlik qarzar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$



3. Korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini monitoring va tahlil qilish tartibida quyidagicha:

Aylanma aktivlar			
Qisqa muddatli majburiyatlar	–	Muhlati o‘tgan muddatli majburiyatlar	– Iste’molchilardan olingan, muhlati o‘tgan avanslar

O‘zlik va qarzga olingan mablag‘lar o‘rtasidagi o‘zaro nisbat ko‘rsatkichi ham har xil aniqlanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan me‘yoriy-uslubiy hujjatlarda quyidagicha aniqlash tavsiya etilgan:

1. 
$$\frac{\text{Qisqa muddatga olingan qarzlar}}{\text{O‘z mablag‘larining manbalari}} - \text{Muddati uzaytirilgan majburiyatlar}$$
2. 
$$\frac{\text{Qisqa muddatga olingan qarzlar}}{\text{O‘z mablag‘larining manbalari}}$$
3. 
$$\frac{\text{O‘z mablag‘larining manbalari}}{\text{Qisqa muddatga olingan qarzlar}}$$

Ko‘rinib turibdiki, qarzlarni qaytarib berishga qodirlik koeffitsienti, o‘z mablag‘lari va qarzga olingan mablag‘larning o‘zaro nisbati koeffitsienti keltirilgan hujjatlarda har xil mazmunda keltiriladi va shu sababli, bu koeffitsientlar turli usulda aniqlanadi. Masalan, o‘z mablag‘lari bilan qarzga olingan mablag‘lar o‘rtasidagi o‘zaro nisbat to‘g‘risida gap ketar ekan, faqat o‘z mablag‘lari bilan qisqa muddatga olingan qarzlar o‘rtasidagi o‘zaro nisbat tahlil etiladi, uzoq muddatga olingan qarzlar nimagadir e‘tiborga olinmaydi. Undan tashqari faqat «Korxonalar moliyaviy holati tahlili to‘g‘risidagi tavsiyalar»da bu koeffitsient qisqa muddatga olingan qarzlarni o‘z mablag‘larning manbalariga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi, qolgan hujjatlarda esa bu ko‘rsatkich o‘z mablag‘larining manbalarini qisqa muddatga olingan qarzlarning har xil shakliga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Yana bir ko‘rsatkich —o‘z mablag‘lari bilan ta‘minlanish koeffitsienti. Bu ko‘rsatkich ham har xil aniqlangan. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili to‘g‘risidagi uslubiy tavsiyalarda va «Qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish to‘g‘risidagi uslubiy tavsiyalar»da bu ko‘rsatkich quyidagicha aniqlangan;

$$\frac{\text{O‘z mablag‘larining manbalari}}{\text{Aylanma aktivlari}} - \text{Uzoq muddatli aktivlar}$$

«Qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy nochorligini tan olish tartibi»da va «Korxonalarini monitoring qilish va moliya xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish tartibi»da quyidagicha aniqlanish tavsiya etilgan:

$$\frac{\text{O‘z mablag‘larining manbalari}}{\text{Aylanma aktivlari}} - \frac{\text{Uzoq muddatga olingan qarzlar}}{\text{Uzoq muddatli aktivlar}}$$

Bu yerda o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti ham ikki mazmunda ko'riladi. Birinchidan, aniqlangan ko'rsatkichda aylanma aktivlar faqat o'zlik mablag'larining manbalari bilan ta'minlansa, ikkinchidan, aniqlangan ko'rsatkichda, unda nimagadir, uzoq muddatga olingan qarz va kreditlar ham e'tiborga olingan.

Bu ko'rsatkichning nomi ham hujjatlarda har xil berilgan. «Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish uslubiy tavsiyalarda», bu ko'rsatkichni nomi - zaxira va xarajatlarni o'z manbalari bilan ta'minlash koeffitsienti, boshqa hujjatlarda esa bu ko'rsatkichning nomi - o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti deb atalgan.

Ma'lumki, zaxira va xarajatlar korxonaga aylanma mablag'lari va aylanma aktivlarining bir qismini tashkil qiladi. Korxonalar esa bugun aylanma mablag'lari bilan ta'minlanishi lozim.

1. Yuqorida keltirilgan me'yoriy-uslubiy materiallarda korxonalarining iqtisodiy nochorligini tan olish ko'rsatkichlarini me'yoriy darajalarini aniqlash muammosi bo'yicha ham bir fikrlik ifoda etilgan emas.

Korxonalarda monitoring o'tkazish va moliyaviy xo'jalik faoliyati tahlili to'g'risidagi tartibda quyidagicha me'yoriy darajalar tavsiya etilgan:

- qarzlarni qaytarib berishga qodirlik koeffitsienti – 1,0 dan past emas;
- o'zlik mablag'lar bilan qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi o'zaro nisbat — 1 dan kam emas;
- o'zlik aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsienti – 0,3 dan kam emas;
- chaqqonlik koeffitsienti – o'rta tarmoq darajasidan kam emas.

Yuqorida keltirilgan boshqa me'yoriy-uslubiy materiallarda quyidagi me'yoriy darajalar tavsiya etilgan:

- qarzlarni qaytarib berishga qodirlik koeffitsienti – 2 dan kam emas;
- o'zlik mablag'lar bilan qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi o'zaro nisbat — 2 dan kam emas;
- o'zlik aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsienti — 0,1 dan kam emas;
- chaqqonlik koeffitsienti — 0,5 dan kam emas.

Bu hujjatlarda berilgan tavsiyalar, o'zlik aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsientidan boshqa ko'rsatkichlar, bir-biridan tubdan farq qiladi.

2. Iqtisodiy nuqtai nazardan iqtisodiy nochorlikka uchragan korxonalar har xil nochorlik darajasida bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy tahlili to'g'risidagi uslubiy tavsiyalarda va qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy nochor deb tan olish to'g'risidagi tartibda iqtisodiy nochorlikka uchragan korxonalar uch guruhga, korxonalarda monitoring o'tkazish va ularni moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlili to'g'risidagi tartibda iqtisodiy nochorlikka uchragan korxonalar besh guruhga bo'linadi.

Bu holat korxonalarini iqtisodiy nochorligi tan olingandan keyin, ularni xayot-mamotini aniqlashni murakkablashtiradi.

Fikrimizcha iqtisodiy nochorlikka uchragan korxonalar va tashkilotlar ikki guruhga bo'linishi lozim. Ya'ni:

- sanatsiyaga o'tkaziladigan korxonalar;

- bankrot, sindi deb e'lon qilinadigan korxonalar.

Shunday qilib, korxonalarni bankrotligi va sanatsiyaga o'tkazish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumat komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi mol-mulk Davlat Qo'mitasi huzurida korxonalarni iqtisodiy nochorligi masalalari bo'limi tomonidan tayyorlangan, qabul qilingan bir qancha me'yoriy-uslubiy hujjatlarga qaramasdan korxonalarni iqtisodiy nochorligini aniqlash bo'yicha hali respublikada asoslangan, kelishilgan, yagona uslubiyat shakllangani yo'q.

Lekin bunday uslubiyatni shakllantirish ob'yektiv zaruratdir. Chunki bozor munosabatlari davrida korxonalarni bankrotga uchrashi, sinishi tabiiy hol, bunday hodisalar eng rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda ham mavjud. Bu borada O'zbekiston Respublikasi to'g'risida gap borar ekan, 1995-1998 yillarda respublikada 700 dan oshiq korxonalar va tashkilotlar bankrot deb e'lon qilingan, ulardan 346 tasi tugatilgan. 1999 yili bankrot deb e'lon qilingan korxonalar va tashkilotlarni soni 969 tani tashkil etdi. 1999 yil 1 yanvargacha 538 korxonalar va tashkilotlar sanatsiya qilindi, ulardan 400 tasi amalga oshirilgan tadbirlar natijasida o'zlarining moliyaviy holatini yaxshiladilar.

Korxonalarni iqtisodiy nochorligini tan olish, ularni sanatsiyaga o'tkazish, bankrot deb e'lon qilish - mas'uliyatli, har tomonlama murakkab muammo, chunki bu korxonalar va tashkilotlarning, qolaversa, ularning mehnatkash jamoalarining kelgusi hayot-mamotidir.

Demak, korxonalarning iqtisodiy nochorligini tan olish, ularni sanatsiyaga o'tkazish, bankrot deb e'lon qilish, bu muammoni har tomonlama asoslangan ravishda yechishni talab etadi. Buning uchun korxonalarni iqtisodiy nochorligini tan olish usulini har tomonlama asoslash va shakllantirish lozim. Fikrimizcha bu usul quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozim:

- korxonalar va tashkilotlarni iqtisodiy nochorligini aniqlash ko'rsatkichlari bankrot deb e'lon qilinadigan, sanatsiyaga o'tkaziladigan korxonalar va tashkilotlarga alohida tasdiqlanishi lozim;

- buni e'tiborga olib, iqtisodiy nochor deb tan olingan korxonalar va tashkilotlar ikki guruhga bo'linishi lozim: bankrot deb e'lon qilinadigan, sanatsiyaga o'tkaziladigan;

- korxonalar va tashkilotlarni iqtisodiy nochorligi bilan shug'ullanuvchi hukumat komissiyasi va mol-mulk qo'mita uchun yagona usul shakllanishi lozim va ular iqtisodiy nochor korxonalar masalalarini qurishda bir xil kriteriyaga asoslanishi kerak.

- iqtisodiy nochor deb tan olingan korxonalar va tashkilotlarni qarzlarni qaytarib berishga qodir emas, deb qabul qilinishi lozim.

Yuqorida ko'rilgan tamoyillar hamda korxonalar va tashkilotlarni iqtisodiy nochorligi bilan shug'ullanishni takomillashtirish maqsadida, fikrimizcha, iqtisodiy nochorlikni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

**1. Nomo'tadil moliyaviy mustahkamlik koeffitsienti.** Korxonalarning zaxira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qoplashga o'z mablag'larining manbalari hamda uzoq muddatga olingan qarz va kreditlar yetishmaydi, bu qoplanmagan ehtiyojlar qisqa muddatga olingan qarz va kreditlar hisobidan qoplanadi. Bu majburiyatlarni tez

fursatda qaytarish lozim.

**2. Inqirozga uchragan moliyaviy holat koeffitsienti.** Korxonalar hamda tashkilotlarning zaxira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojlari ulardagi mavjud butun manbalar — o'zlik mablag'larning manbalari, uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlarni, kreditlarni safarbar etilsa ham qoplanmaydi. Demak, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini davom etish imkoniyatlariga ega emas.

**3. Balansning mutlaq likvidlik koeffitsienti.** Bu koeffitsient qisqa muddatga olingan qarz va kreditlarni korxonalar hamda tashkilotlarda mavjud naqd pullar hisobidan qaytarib berish imkoniyatini ifodalaydi. Korxonalar balansining umumiy va xususiy likvidlik koeffitsientlari korxonalarni qarzlardan qutilishda potentsial imkoniyatlarini ko'rsatsa, balansning mutlaq likvidlik koeffitsienti ularning real imkoniyatlarini ifodalaydi.

**4. O'z mablag'lar va qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi o'zaro nisbat koeffitsienti.** Bu koeffitsientni ikki shaklda aniqlash maqsadga muvofiq:

- korxonalarining butun mablag'lari aktivlari bilan korxonalarining butun majburiyatlari, ya'ni uzoq va qisqa muddatga olingan qarz hamda kreditlar o'rtasidagi o'zaro nisbat koeffitsienti. Bu koeffitsient korxonalar aktivlarini uning umumiy majburiyatlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi;

- korxonalarining aylanma mablag'lari aylanma aktivlari bilan qisqa muddatga olingan qarz hamda kreditlar o'rtasidagi o'zaro nisbat koeffitsienti. Bu koeffitsient korxonalar aktivlarini uning qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

**5. Korxonalarining aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'z manbalari bilan ta'minlanish koeffitsienti.** Bu koeffitsientni aniqlash uchun korxonalar o'z mablag'larining manbalaridan uzoq muddatli aktivlar qiymati ayrib tashlanadi va qolgan qismi aylanma aktivlar qiymatiga bo'linadi.

**6. Korxonalar aktivlarining rentabellik koeffitsienti.** Bu koeffitsient korxonalar mol-mulkidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Bu koeffitsientni aniqlash uchun soliq to'lashdan oldingi foydani korxonalar aktivlarining o'rtacha qiymatiga bo'lish bilan aniqlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, korxonalarini iqtisodiy nochorligini aniqlash uchun keltirilgan hujjatlarda bir qancha boshqa koeffitsientlar, ko'rsatkichlar tavsiya etilgan. Masalan, moliyaviy qaramlik ishlab chiqarish kuchlaridan foydalanish koeffitsientlari, korxonalarining o'z kapitali, asosiy vositalari, permanent kapitali va mahsulotning rentabellik koeffitsientlari. Fikrimizcha, bu koeffitsientlar korxonalarining iqtisodiy nochorligi bilan bevosita aloqador emas, demak, ulardan foydalanishning hojati yo'q. Shunday qilib, mavjud uslubiy tavsiyalarni umumlashtirib, korxonalarini iqtisodiy nochorligini aniqlash qo'yigan quyilgan vazifalarni e'tiborga olib, korxonalarini iqtisodiy nochorligini tan olishda, ularni sanatsiyaga o'tkazishda, bankrot deb e'lon qilishda, quyidagi baholash kriteriyalaridan, koeffitsientlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

**Korxonalarining iqtisodiy nochorligini aniqlash ko'rsatkichlari tizimi**

	Koeffitsientlarni me'yoriy darajalari, foiz	
	Sanatsiya	Bankrot
1. Mo'tadil moliyaviy mustahkamlik koeffitsienti	≥100	-
2. Inqirozga uchragan moliyaviy holat	-	<100
3. Mutlaq likvidlik koeffitsienti	1.0-10.0	<1.0
4. O'z mablag'lar bilan qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi o'zaro nisbat koeffitsienti	100-200	<100
5. aylanma mablag'larni o'z manbalar bilan ta'minlanganligi	50-100	<50
6. Aktivlar rentabellik koeffitsienti	5 gacha	<1.0

Bu ko'rsatkichlarning me'yoriy darajalari quyidagicha asoslangan:

- nomu'tadil moliyaviy mustahkamlik bu korxonalarda oz bo'lsa ham faoliyatni davom etish uchun imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu korxonalariga biroz yordam berilsa, ular o'z moliyaviy holatini yaxshilashlari mumkin;

- inqirozga uchragan moliyaviy holat bu korxonalarining zaxira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojlari butun manbalardan — o'z manbalar uzoq va qisqa muddatga olingan qarz va kreditlardan foydalanilsa ham to'liq qoplanmaydi. Demak, bu korxonalarda faoliyat to'xtaydi;

- mutlaq likvidlik koeffitsienti, odatda, 20 foiz yoki undan ko'p bo'lishi kerak. Bu koeffitsient 1 foizdan ham kam bo'lsa, korxonalar qarzlarni qaytib berishga umuman qodir emas. Demak, ular bankrot deb e'lon qilinishi lozim. Agarda bu koeffitsient 1 foizdan 10 foizgacha bo'lsa, korxonalar qarzlarni qaytarib berishga biroz qodir. Ularni sanatsiyaga o'tkazish mumkin;

- korxonalarining o'z mablag'larning manbalari tashqaridan olingan qarz va kreditlardan 2 marotabadan ko'p bo'lishi lozim. Bu koeffitsientning darajasi 100 foizdan oshiq lekin 200 foizdan kam bo'lsa, korxonalar faoliyatini davom etish uchun biroz imkoniyatga ega, ularni sanatsiyaga o'tkazish mumkin. Bu koeffitsient 100 foizdan kam bo'lsa, ular bankrot deb e'lon qilinishi lozim;

- o'z mablag'larning manbalari hisobidan korxonalarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoji 100 dan ortiq foizga qoplanishi lozim. Agarda bu koeffitsient 50 foizdan kam bo'lsa, demak, korxonalarda faoliyat to'xtab qolishi mumkin, ular bankrot deb e'lon qilinishlari kerak. Agarda bu koeffitsient 50 foizdan 100 foizgacha bo'lsa, bu korxonalariga biroz yordam berilsa, ular o'z faoliyatini davom etish imkoniyatiga ega;

- korxonalar o'z-o'zini qoplash uchun aktivlarning rentabelligi 10-13 foiz bo'lishi lozim. Korxonalar aktivlarining umuman rentabelligi bo'lmay, zarari bo'lsa, ularni bankrot deb e'lon qilish kerak, agarda aktivlarni rentabellik darajasi 5 foizgacha bo'lsa, ularni sanatsiyaga o'tkazish lozim.

Tavsiya etilayotgan ko'rsatkichlarning me'yoriy darajalari yuqorida keltirilgan

me'yoriy-uslubiy hujjatlarda ko'rsatilgan tavsiyalardan farq qiladi. Fikrimizcha, bizning tavsiyalarimiz asoslangan va amaliyot talablariga to'liqroq javob beradi. Tavsiya etilgan kriteriyalardan amaliyotda foydalanilsa, korxonalarining iqtisodiy nochorligini tahlil qilish, aniqlash sezilarli takomillashtiriladi va bozor munosabatlaridan foydalanish samarasi ko'tariladi.

Ma'ruza matnlari korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishning bozor munosabatlari davridagi nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilish, yoritish bizni quyidagi xulosalarga olib keldi:

- Bozor munosabatlariga o'tish bilan korxonalarining moliyaviy holatini ahamiyati oshib boradi.

- Korxonalarini ishlab chiqarish — xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda ularning moliyaviy holatini tahlil qilishni tutgan o'rni kuchayib boradi.

- Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishni yaxshilash maqsadida respublikada hisobni va hisobotni tashkil etish takomillashtirilmoqda.

- Moliyaviy tahlil bozor munosabatlarining talablariga javob bera borib, u har tomonlama, asoslangan, chuqur bo'lishi lozim.

Moliyaviy tahlil ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

Birinchidan, korxonalarda boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida faoliyat kechirayotgan korxonalarini moliyaviy holatini baholab, me'yoriy va ilg'or korxonalarining ko'rsatkichlari bilan solishtirib, moliyaviy holatni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish.

Ikkinchidan, bozor munosabatlari davrida tabiiy bo'lgan korxonalarining iqtisodiy nochorligini har tomonlama, asoslangan ravishda tahlil qilib, korxonalarini sanatsiyaga o'tkazish, bankrot deb e'lon qilish jarayonini takomillashtirish.

Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishni yaxshilash uchun:

- moliyaviy tahlil usulini takomillashtirishi lozim;

- moliyaviy tahlil bo'yicha me'yoriy-uslubiy tavsiyalarni har tomonlama ishlab chiqish;

- barcha o'quv yurtlarida moliyaviy tahlil fanini o'qitishni yaxshilash lozim;

- korxonalarini moliyaviy holatini tahlil qilishda qiziqqan manfaatdor organ va tashkilotlarni bu borada qilayotgan ishlarini yanada yaxshilash zarur;

- moliyaviy tahlilda moliyaviy ko'rsatkichlarni miqdoriy ifodalash, baholash, ular iqtisodiy mazmun bilan bog'lanish tarzida tahlil etilishi lozim;

- moliyaviy tahlil bilan shug'ullanuvchi xodimlar, mutaxassislar keng iqtisodiy ilmga ega bo'lishlari kerak;

- moliyaviy tahlil yakunida korxonalarining moliyaviy holatini ko'tarishga safarbar etilgan tavsiyalar bo'lishi darkor.

Ishonamizki, yuqorida eslatilgan muammolarni yechish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarishda tavsiya etilayotgan ma'ruza matnlari sezilarli yordam beradi.

### **Tayanch iboralar**

Korxonada foydasi – uning moliyaviy natijasi, uning faoliyatini samarasini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Yalpi foyda – ularni korxonada faoliyatidan olingan moliyaviy natija.

Sof foyda – korxonada tomonidan budjetga o‘tkazilgan to‘lov va soliqlardan keyin qolgan korxonada foydasi.

Rentabellik – korxonada faoliyatining samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkich.

### **Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Bozor munosabatlari sharoitida foyda deb nimani tushunasiz?
2. Korxonada foydasi qanday ko‘rsatkichlarda, shakllarda ifodalanadi?
3. Korxonada foyda ko‘rsatkichlari qanday tahlil etiladi?
4. Korxonada foydasiga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatadi va bu ta‘sir qanday tahlil etiladi?
5. Rentabellik deb nimani tushunasiz?
6. Rentabellik qanday shakllarda ifodalanadi?
7. Qanday ko‘rsatkichlar orqali rentabellik tahlil etiladi?
8. Rentabellikning asosiy va qo‘shimcha ko‘rsatkichlari.
9. Korxonalarining iqtisodiy nochorligi deb nimani tushunasiz?
10. Korxonalarini sanatsiya qilish va bankrot deb e‘lon qilish.
11. Korxonalarini iqtisodiy nochorligini qanday ko‘rsatkichlar orqali tahlil etiladi?

## XOTIMA O‘RNIDA

Hurmatli o‘quvchi, ushbu o‘quv qo‘llanmadan foydalanuvchi!

Tavsiya qilinayotgan bu qo‘llanma muallifning ko‘p yillar mobaynidagi o‘qituvchilik faoliyati, o‘ylashi, izlanishi va tadqiqot ishlarining natijasidir.

O‘quv qo‘llanmada muallifning O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik davrida «Korxonalarining moliyaviy holati tahlili» fanidan Bank-moliya Akademiyasi, Buxgalterlar va auditorlar Assotsiatsiyasi, Toshkent moliya instituti huzuridagi tarmoqlararo moliya-bank xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutida va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi magistraturada darslar o‘tkazish rejalari, mavzulari bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligi bozor munosabatlariga o‘tkazilmoqda. Bozor munosabatlari davrida korxonalar va tashkilotlar faoliyatining asosiy natijalari bo‘lib moliyaviy ko‘rsatkichlar shakllanadi. Demak, korxonalarining moliyaviy holati tahlili korxonalarining boshqaruv tizimini takomillashtirishda alohida o‘rin egallaydi.

O‘quv qo‘llanmada xorijiy mamlakatlarning tajribalari, mamlakatimizda bajarilgan ilmiy-amaliy ishlarining natijalari, bozor munosabatlariga o‘tish vazifalari, bozor munosabatlarining samaradorligini ko‘tarish muammolari o‘z ifodasini topgan. Qo‘llanmani tayyorlashda muallif soha mutaxassislarini, talabalarni tahlil asosida faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisoblash uslublariga o‘rgatish bilan chegaralanmasdan, bu ko‘rsatkichlarning mazmunini tushunishga, moliyaviy muammolar bo‘yicha o‘ylashga, xulosalar chiqarishga, tavsiyalar ishlab chiqarishga o‘rgatishga intilgan. Shu sababli o‘quv qo‘llanmada ko‘rilgan muammolarni ko‘pchiligiga har tomonlama, batafsil, turli nuqtai nazardan qarash amalga oshirilgan.

Hozirgi paytda iqtisodiy mavzudagi adabiyotlarning tarqalishi, o‘quvchilarga yetib borishi murakkabligi sababli muallif moliyaviy tahlil bo‘yicha chop etilgan asarlarga va boshqa materiallarga ko‘proq e‘tibor bergan.

O‘ylaymizki, o‘quv qo‘llanmani o‘qituvchilar, aspirantlar, magisrtlar, bakalavrlar, korxonalar, tashkilot rahbarlari, xalq xo‘jalik mutaxassislari katta qiziqish bilan qabul qiladilar. Muallif kelgusida ham bu borada ilmiy tadqiqot ishlarni davom etar ekan, hurmatli o‘quvchi va foydalanuvchilarga iltimos qilib, qo‘llanma bo‘yicha o‘z mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini va tavsiyalari Toshkent shahri, Lutfiy ko‘chasi, 18-uydagi Tarmoqlararo moliya-bank xodimlari malakasini oshirish institutiga yuborishlarini so‘raydi. Ular muallif tomondan samimiylik bilan qabul qilinadi va kelgusi ishlarda e‘tiborga olinadi.



## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### 1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003. - 40б.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат статистикаси тўғрисида”ги Қонуни. – Т., 2002 йил 12 декабр, №441-II.

### 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларини ислоҳ қилиш ва янада эркинлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. /Халқ сўзи. 2005 й., 1 апрел.

4. “Бозор ислоҳотларини чуқурлаштириш ва иқтисодий янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 2005 йил 14 июн.

5. “Тадбиркорлик субъектлари томонидан тақдим этилаётган ҳисобот тизимини такомиллаштириш ва унинг ноқонуний талаб этилиши устидан назоратни кучайтириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори 2005 йил 15 июн.

### 3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari.

6. “Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси фаолиятини ташкил этиш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 8 – сонли Қарори 8 январ 2003 йил.

7. “Давлат статистикаси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш ҳақида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қарори 12 декабр 2002 йил №442 – II

### 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

8. Каримов И.А. 2005 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2006 йилда иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. /Халқ сўзи газетаси 2006 йил 11 феврал.

9. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. - Т.: Ўзбекистон, 2005. - 153 б.

10. Каримов И.А. “Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида”. - Т.: Ўзбекистон, 2005. - 175 б.

### 5. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari me’oriy-huquqiy hujjatlari

11. “Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни 6 ноябр 2004 йил. №230.

12. Фуқароларнинг банклардаги омонатларини ҳимоялаш кафолатлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Қонуни 2 январ 2002 йил. №7.

### 6. Darsliklar

13. Курс социально – экономической статистики. /Под ред. М.Г. Назарова. – М.: Финстатинформ, 2005. - 423 с.

14. Теория статистики. Учебник. /Под ред. Р.А. Шмойловой. – М.: Финансы и статистика, 2004. - 656 с.

15. Салин В.Н., Шпаковская Е.В. Социально – экономическая статистика.

– М.: ЮРИСТ, 2004. - 192 с.

16. Микроэкономическая статистика. Учебник. /Под ред. С.Д. Ильенковой.

– М., 2004. - 544 с.

17. Соатов Н. Статистика. Дарслик. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2003. - 744 б.

18. Сиденко А.В., Башкатов Б.И. Международная статистика. Учебник. – М.: Дело и сервис, 2003. - 211 с.

19. Адамов В.Е. и др. Экономика и статистика фирм. Учебник. 2003. - 450 с.

20. Социальная статистика. Учебник. /Под ред. И.И. Елисеевой. – М., 2003 . - 560 с.

21. Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2002. - 465 б.

## **7. O‘quv qo‘llanmalar**

22. Социально-экономическая статистика: Практикум, /Под ред. В.Н. Салина, Е.П. Шпаковской. – М.: Финансы и статистика, 2006. - 192 с.

23. Набихўжаев А.А., Махмудов Б.М., Насретдинова Ш.С. Молиявий дастурлаш: Ўқув кўлланма. – Т.: Молия, 2005. - 268 б.

24. Аюбжонов А.Ғ. Ташки иқтисодий фаолият статистикаси: Ўқув кўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004. - 145 б.

25. Акрамов Э.А. Корхоналар молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2003. - 224 б.

26. Ефимова М.Р., Бычкова С.Г. Социальная статистика: Учебное пособие. – М., 2003. - 560 с.

## **8. Ilmiy monografiyalar, maqolalar**

27. Доклад о развитии человеческого потенциала в странах Европы и СНГ – М.: ПРООН, 2002.

28. Доклад о мировом развитии 2000/2001. Борьба с бедностью. Всемирный банк. Вашингтон, округ Колумбия. 2000.

## **9. Doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari**

29. Ахмаджонов Х. Ўзбекистон хонадонлари молия ресурсларини шаклланиши ва ишлатилиши. Номзодлик диссертацияси. – Т., 2006.

30. Джалилов Х. Истеъмол сарфлари ва ялпи ички маҳсулот ўртасидаги боғланишни статистик ўрганишни такомиллаштириш. (Миллий ҳисоблар тизими асосида). Номзодлик диссертацияси. – Т., 2004.

## **10. Ilmiy —amaliy anjumanlar ma’ruzalari to‘plamlari**

31. Набиев Х.Н. Инвестиция муҳитини статистик баҳолаш усуллари. “Ўзбекистон иқтисодиётида иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш” – Т., 1 ноябр ТДИУ, 2005. - 45-48 б.

32. Аюбжонов А.Ғ. Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланишини статистик ўрганиш тамойиллари. «Миллий иқтисодиёт соҳаларида халқаро тажрибани ўрганиш ва уни кичик бизнес, хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда татбиқ этиш мавзуидаги илмий-амалий анжуман». Тошкент, ТДИУ, 2004 йил 2 ноябр, 60-63 б.

## **11. Gazeta va jurnallar**

33. Соатов Н.М. Статистика: вчера сегодня и завтра. //Экономическое обозрение №8 2005. - 32-38 с.

34. Ғойибназаров Б.К. Ялпи ички маҳсулотни ўзгармас баҳода ҳисоблаш йўллари. //«Иқтисодиёт ва таълим» журнали, 2004 йил 4-сони 61-64 б.

## **12. Statistik ma’lumotlar to‘plamlari**

35. Статистический ежегодник регионов Узбекистана 2004. Статистический сборник – Т., 2005. - 215 с.

36. Промышленность республики Узбекистан 2004: Статистический сборник. — Т.: Гос комитет РУ по статистике, 2005. - 115 с.

37. Узбекистан в цифрах 2004. Статистический сборник. – Т.: 2005. - 196 с.

## **13. Internet saytlari**

38. МЭСИ ([www.mesi.ru](http://www.mesi.ru)).

39. [. Society.askold.net/s/cogf.html](http://Society.askold.net/s/cogf.html) Демография и статистика населения

России.

40. [www.scafler.ru/story/stat.phtml](http://www.scafler.ru/story/stat.phtml)  
населения.

Официальная статистика народа

**AKRAMOV ERGASH AKRAMOVICH**

**KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATI TAHLILI**

**(O‘quv q o‘llanma)**

**Kompyuterda sahifalovchi – S.N.Sayfullaev**